

Nigora Erkaboyeva

PEDAGOGIK MAHORAT
(O‘quv qo‘llanma)

Toshkent – 2020

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

QO'QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

Nigora Erkaboyeva

PEDAGOGIK MAHORAT

(O'quv qo'llanma)

5110900 – “Pedagogika va psixologiya” yo`nalishi talabalari uchun o'quv qo'llanma

TOSHKENT – 2020

UDK:

BBK:

Erkaboeva N. Pedagogik mahorat / O'quv qo'llanma. – Qo'qon: Qo'qon DPI nashriyoti, 2020. – 143 bet.

O'quv qo'llanma pedagogika oliy ta'lim muassasalarida "Pedagogik mahorat" fanini o'qitish uchun yordamchi manba sifatida yaratilgan. Unda "Pedagogik mahorat" fanidan ma'ruza mashg'ulotlarini tashkil etish uchun mo'ljallangan mavzular bo'yicha ishlanmalar berilgan. O'quv qo'llanmasining mundarijasidan pedagogik mahoratning o'qituvchi faoliyatida tutgan o'rni, maktab amaliyotida o'qituvchi mahorati masalalari, pedagogik muloqotni to'g'ri tashkil etish, pedagogik odob, pedagogik faoliyatni ilmiy asosda tashkil etish kabi mavzular o'rin olgan. O'quv qo'llanmada talabalarning pedagogik qobiliyati, o'quv-tarbiya jarayonida ruhiy holatni boshqarish malakasi, kommunikativ qobiliyat, pedagogik texnika va nutq texnikasi malakalarini rivojlantirishga doir laboratoriya mashg'ulotlarining ishlanmalar tavsiya etiladi.

Mazkur o'quv qo'llanma pedagogika OTMning talabalari, uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida faoliyat yuritayotgan pedagoglar, ilmiy xodimlar, aspirantlar, tadqiqotchilar hamda pedagogik mahorat asoslari bilan qiziquvchilar uchun mo'ljallangan.

Taqrizchilar: pedagogika fanlari doktori **Z.Azimova**
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent **M.Nishonov**

O'quv qo'llanma Muqimiy nomidagi Qo'qon DPI Ilmiy-metodik kengashining 2020 yil " __ " _____ dagi __-sonli qaroriga muvofiq nashrga tavsiya etilgan

МУНДАРИЖА

Кириш	3
I bob. “Pedagogik mahorat” fanining nazariy asoslari	
Pedagogik mahorat haqida tushuncha, uning o‘qituvchi faoliyatida tutgan o‘rni.....	4
O‘qituvchi faoliyatida pedagogik qobiliyat.....	8
O‘qituvchining kommunikativ qobiliyati.....	14
O‘qituvchi faoliyatida muloqot madaniyati va psixologiyasi.....	23
II bob. Maktab amaliyotida o‘qituvchi mahorati	
O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi muloqot.....	27
Pedagogik nazokat va odob-axloq.....	31
Pedagogik texnika haqida tushuncha pedagogik texnikani shakllantirish uslublari.....	37
Nutq texnikasi va notiqlik madaniyati.....	45
O‘qituvchining ta’lim jarayonidagi mahorati.....	54
III bob. O‘qituvchining tarbiya jarayonidagi mahorati	
O‘qituvchining tarbiyachi sifatidagi mahorati.....	63
O‘qituvchining tarbiya texnologiyalari asosida faoliyat olib borishi.	71
O‘qituvchi pedagogik faoliyatida kompyuter texnologiyalaridan foydalanishi.....	85
O‘qituvchi pedagogik faoliyatida kasbiy reflyeksiyaning o‘rni.....	93
O‘qituvchi mehnatini ilmiy asosda tashkil etish	103
Xotima	109
Foydalanilgan adabiyotlar	110

СОДЕРЖАНИЕ

Введение.....	3
Глава 1. Теоретические основы дисциплины “Педагогическое мастерство”	
Понятие о педагогическом мастерстве, его роль в деятельности учителя.....	4
Педагогическая способность в деятельности учителя.....	8
Коммуникативная способность учителя.....	14
Культура и психология общения в деятельности учителя.....	23
Глава 2. Мастерство учителя в школьной практике	
Общение между учителем и учащимся.....	27
Педагогический такт и педагогическая этика.....	31
Понятие о педагогической технике, способы формирования педагогической техники.....	37
Техника речи и ораторская культура	45
Мастерство учителя в процессе обучение.....	54

Глава 3. Мастерство учителя в процессе воспитания

Мастерство учителя в качестве воспитателя.....	63
Ведение деятельности учителем на основе воспитательных технологий.....	71
Использование компьютерной технологии в педагогической деятельности учителя.....	85
Роль профессиональной рефлексии в педагогической деятельности учителя.....	93
Организации труда учителя на научной основе.....	103
Заключение	109
Использованные литературы	110

CONTENTS

	Introduction.....	3
Chapter I. Theoretical basics of the discipline “Pedagogical mastery”		
	The concept of pedagogical mastery, its role in the activity of a teacher.....	4
	Pedagogical ability in the activity of a teacher.....	8
	Communicative ability of a teacher.....	14
	Culture and psychology of communication in the activity of a teacher.....	23
Chapter II. Mastery of a teacher in school practice		
	Communication between a teacher and a student.....	27
	Pedagogical tact and pedagogical ethics.....	31
	The concept of pedagogical technique, methods of formation of pedagogical technique.....	37
	Speech technique and oratory.....	45
	Mastery of a teacher in teaching process.....	54
Chapter III. Mastery of a teacher in educational process		
	Mastery of a teacher as an educator.....	63
	Carrying out a pedagogical activity based on educational technologies.....	71
	The use of computer technologies in pedagogical activity of a teacher.....	85
	The role of professional reflection in the pedagogical activity of a teacher	93
	Scientific organization of a teacher’s work	103
	Conclusion.....	109
	Literature.....	110

SO‘ZBOSHI

Kishilik jamiyati taraqqiyotining o‘ziga xos bosqichi bo‘lgan bozor iqtisodiyoti har bir mutaxassisdan puxta bilim, yuksak kasbiy tayyorgarlikka ega bo‘lishni talab etmoqda. Zero, kuchli raqobatga asoslangan ijtimoiy tuzilmaning bu shaklida mutaxassislarning kasbiy salohiyati va mahorati ular tomonidan tashkil etiladigan faoliyat samaradorligini ta‘minlovchi muhim omil sanaladi. Shu sababli mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan kadrlar tayyorlashga doir milliy siyosat asosini har tomonlama shakllangan, o‘zining puxta kasbiy bilim, malaka va mahoratga egaligini to‘la namoyon eta oladigan shaxslarni kamol toptirish g‘oyasi tashkil etadi.

Malakali kadrlarni tayyorlashdan iborat yagona, yaxlit tizimda shubhasiz oliy ta‘lim muassasalari alohida o‘rin tutadi. Binobarin, uzluksiz ta‘lim tizimining aynan bu bosqichida bo‘lajak mutaxassislar ixtisoslik fanlari asoslarini ham nazariy, ham amaliy jihatdan puxta o‘zlashtirish imkoniyatiga egadirlar. Shunga ko‘ra bo‘lajak o‘qituvchilarni samarali tayyorlashda bu yo‘nalishda faoliyat olib borayotgan oliy ta‘lim muassasalari, shuningdek, ixtisoslik fanlari o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Ixtisoslik fanlari orasida “Pedagogik mahorat” fanining mavjudligi esa bo‘lajak o‘qituvchilarni amaliy-texnik jihatdan kasbiy faoliyatga tayyorlashning muvaffaqiyatli bo‘lishini ta‘minlaydi. Bunda yagona shart – o‘quv mashg‘ulotlarining nazariy, texnik va texnologik nuqtai nazardan to‘g‘ri tashkil etilishi hisoblanadi. “Pedagogik mahorat: seminar va laboratoriya mashg‘ulotlari uchun ishlanmalar” nomli o‘quv qo‘llanmada ana shu shartning inobatga olinishi ko‘zda tutiladi.

O‘quv qo‘llanmada “Pedagogik mahorat” fani bo‘yicha tashkil etiladigan ma‘ruza mashg‘ulotlarining ishlanmalari berilgan bo‘lib, ular talabalar muayyan mavzularda fan asoslarini puxta o‘zlashtirishlariga yordam beradi. Ishlanmalarda talabalarining fan bo‘yicha o‘zlashtirgan nazariy bilimlarini boyitishga xizmat qiladigan ma‘lumotlar o‘rin olgan bo‘lsa, laboratoriya mashg‘ulotlarining ishlanmalari ularni amaliy, texnik jihatdan kasbiy faoliyatga tayyorlashni ko‘zda tutadigan mashqlardan tarkib topgan.

Muallif tomonidan o‘quv qo‘llanmada ma‘ruza mashg‘ulotlarining samarali tashkil etilishiga erishish maqsadida har bir mavzu yuzasidan imkon qadar tayanch tushuncha va iboralarni qamrab olishga, talabalarda pedagogik faoliyatni muvaffaqiyatli tashkil etilishiga xizmat qiladigan ko‘nikma-malakalarning shakllantirilishini ta‘minlovchi holatlarni inobatga olishga e‘tiborni qaratilgan. Mazkur o‘quv qo‘llanma bo‘lajak o‘qituvchilar sifatida talabalar tomonidan “Pedagogik mahorat” fani asoslarining puxta o‘zlashtirilishida muhim amaliy manba bo‘la oladi.

1 BOB. “PEDAGOGIK MAHORAT” FANINING NAZARIY ASOSLARI

PEDAGOGIK MAHORAT HAQIDA TUSHUNCHA, UNING O‘QITUVCHI FAOLIYATIDA TUTGAN O‘RNI

O‘quv rejasi:

1. Pedagogik mahorat haqida tushuncha.
2. Pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari va ularning mohiyati.
3. O‘qituvchi faoliyatining asosiy yo‘nalishlari.

Tayanch tushunchalar: o‘qituvchi, o‘qituvchilik kasbi, o‘qituvchining kasbiy faoliyati, o‘qituvchilik faoliyatining tizimi, o‘qituvchining kasbiy mahorati (pedagogik mahorat), pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari, pedagogik bilim, pedagogik zakovat.

1. Pedagogik mahorat haqida tushuncha. Mustaqillikka erishilganidan so‘ng respublikada ijtimoiy hayotning barcha sohalarida bo‘lgani kabi ta’lim tizimida ham tub o‘zgarishlar sodir etildi. O‘zgarishlarning sodir bo‘lishi yuzaga kelgan ijtimoiy ehtiyoj va zaruriyat bilan bog‘liq edi. Mavjud ijtimoiy ehtiyoj hamda o‘qituvchining pedagogik faoliyati, uni tashkil etish masalasi O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risda”gi Qonunining Yangi tahriri (2019 yilning 12 dekabr)da o‘z ifodasini topgan.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risda”gi Qonuni
5 ta bob, 34 moddadan iborat

Hujjatda belgilangan asosiy boblar quyidagilardan iborat:

1. Umumiy qoidalar (jami 8 ta modda; 1-8-moddalar).
2. Ta’lim tizimi va turlari (jami 11 ta modda; 9-19-moddalar).
3. Ta’lim jarayoni qatnashchilarini ijtimoiy himoya qilish (jami 5 ta modda; 20-24-moddalar).
4. Ta’lim tizimini boshqarish (jami 5 ta modda; 25-29-moddalar).
5. Yakunlovchi qoidalar (jami 5 ta modda; 30-34-modda).

O‘zRning “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy printsiplari; bilim olish va pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish huquqi; ta’lim muassasasi (TM)ning huquqiy maqomi; DTS; ta’lim tizimi; ta’lim turlari va ularning mohiyati; ta’lim to‘g‘risidagi hujjatlar; ta’lim oluvchilar; ta’lim muassasalari xodimlarini ijtimoiy himoya qilish; yetim bolalar, ota-onasiz, qonuniy vakillarning vasiyligisiz qolgan, jismoniy yoki ruhiy rivojlanishda nuqsoni bo‘lgan bolalar va o‘smirlarni o‘qitish masalalari yoritilgan. Ijtimoiy yordamga, tiklanishga muhtoj shaxslar uchun o‘quv-tarbiya muassasalari; O‘zR Vazirlar Mahkamasi va mahalliy javlat hokimiyati organlarining ta’lim sohasidagi vakolatlari; ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlarining huquqlari; TMni boshqarish, ota-onalar, qonuniy

vakillarning vazifalari, ta'limni moliyalashtirish, xalqaro hamkorlik, ta'lim to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik masalalari hujjatda o'z ifodasini topgan.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunining 5-moddasida pedagogik faoliyatni tashkil etishga qo'yiladigan talablar quyidagicha ifodalangan:

Tegishli ma'lumoti, kasb tayyorgarligi bor va yuksak axloqiy fazilatlariga ega bo'lgan shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega.

Pedagogik xodimlarni oliy o'quv yurtlariga ishga qabul qilish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlagan Nizomga muvofiq tanlov asosida amalga oshiriladi.

Pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish sud hukmiga asosan man etilgan shaxslarning ta'lim muassasalarida bu faoliyat bilan shug'ullanishlariga yo'l qo'yilmaydi.

Mahorat (arabcha so'z bo'lib, mohirlik, ustalik, epchillikni anglatadi) – biror ish, kasb uchun zarur yoki shu sohada orttirilgan ustalik, san'at, mohirlik¹; bir ish yoki faoliyatni yuksak darajada, hech bir qiyinchiliksiz, o'ta mohirlik bilan bajarish.

Pedagogik mahorat – 1) o'qituvchining pedagogik jarayonni tashkiliy, metodik, ruhiy va sub'ektiv jihatdan o'ta mohirlik, ustalik bilan tashkil etish va boshqarish qobiliyati, ko'nikma-malakasiga egaligi; 2) ta'lim-tarbiya jarayoniga ongli, ijodiy yondashuv, metodik bilimlarni samarali qo'llay olish qobiliyati, yuksak pedagogik tafakkur; 3) oliy ta'lim muassasalarida o'qitiladigan pedagogik turkum fanlarning biri.

Mustaqil o'quv fani sifatida "**Pedagogik mahorat**" ijtimoiy fanlar turkumiga kiradi va bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik jarayonni samarali, metodik jihatdan to'g'ri tashkillashtirishga oid bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

"**Pedagogik mahorat**" fanining maqsadi – talabalarda pedagogik jarayonni mustaqil, tashkiliy ilmiy-metodik jihatdan to'g'ri tashkil eta olish va kasbiy-pedagogik faoliyatda yuqori samaradorlikka erishishni kafolatlovchi bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat.

"Pedagogik mahorat" fanining vazifalari:

- talabalarni pedagogik mahoratning tarkibiy qismlariga doir nazariy bilimlar bilan qurollantirish;

- ularda pedagogik faoliyatni oqilona tashkil etish, pedagogik jarayonni samarali yo'lga qo'yish ko'nikma va malakalarini rivojlantirish;

- talabalarning pedagogik hamkorlikni qaror toptirish texnologiyasiga oid bilimlarni egallashlarini ta'minlash;


- ularda pedagogik odob va madaniyat sifatlarini tarkib toptirish, pedagogik qobiliyatni shakllantirish;

- talabalar tomonidan pedagogik muloqot, pedagogik nazorat (takt), texnika va pedagogik ta'sir ko'rsatish ko'nikma, malakalarini yetarli darajada o'zlashtirilishini ta'minlash;

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Е – М / 5 жилдди. Иккинчи жилд. – Тошкент: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2006. – 575-бет.

- bo'lajak mutaxassis sifatida talabalarda pedagogik madaniyatni shakllantirish. "Pedagogik mahorat" tushunchasi "Pedagogika", "Pedagogik texnologiya" hamda "Pedagogik mahorat" kabi fanlarga xos muhim kategoriya bo'lib, u kategoriya sifatida o'tgan asrning 80-90-yillarida ilmiy-pedagogik jihatdan asoslangan.

2. Pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari va ularning mohiyati. Quyidagi tarkibiy qismlar pedagogik mahoratning muhim asosini tashkil etadi (1-rasm):



1-rasm. Pedagogik mahoratning muhim tarkibiy qismlari

"Pedagogik mahorat" fani ham o'zining muhim kategoriyalariga ega. Fanning muhim kategoriyalari quyidagilardir:

Mahorat – muayyan ish, xatti-harakat yoki kasbiy faoliyatning ustalik, mohirlik bilan, san'atkorona tashkil etilishiga imkon beradigan bilim, ko'nikma va malakalar majmui.

Pedagogik mahorat – pedagog tomonidan kasbiy faoliyatning ustalik, mohirlik bilan, san'atkorona tashkil etilishini ta'minlovchi bilim, ko'nikma va malakalar majmui.

Pedagogik ijod – pedagogning kasbiy jarayonni samarali tashkil etishga yo'naltirilgan yaratuvchanlik faoliyati.

Pedagogik novatorlik – pedagogik faoliyatda ilg'or tamoyil yoki g'oyani asoslash, yangi yo'l, usul yoki vositalarni tavsiya qilish, ularni amaliyotga tatbiq etishga qaratilgan ijodiy yondashuv.

Pedagogik bilimdonlik – pedagog tomonidan mutaxassislik bilimlarining puxta egallanganligi; pedagogning bilag'onligi.


Pedagogik faoliyat – pedagog tomonidan kasbiy maqsadga muvofiq tashkil etiladigan tizimli harakatlarning muayyan shakli.

Pedagogik texnika – pedagogik faoliyatda orttirilgan ko'nikma va malakalar yig'indisi bo'lib, u pedagogik jarayon samaradorligini ta'minlaydi.

Pedagogik tajriba – kasbiy faoliyatni tashkil etish jarayonida pedagog tomonidan o'zlashtirilgan orttirilgan bilim, ko'nikma va malakalar majmui.

Pedagogik madaniyat – pedagogning shaxs va mutaxassis sifatida muayyan xulq-atvor, odob, muomala va xatti-harakat ko‘nikma, malakalarini o‘zlashtirish darajasi.

3. O‘qituvchi faoliyatining asosiy yo‘nalishlari. Barcha kasbiy faoliyatda bo‘lgani kabi o‘qituvchining faoliyatida ham bir qator yo‘nalishlar ko‘zga tashlanadi. Ular quyidagilardir (2-rasm):



2-rasm. Pedagogik faoliyatning asosiy yo‘nalishlar

1. Metodologik yo‘nalish – ta‘lim va tarbiya qonuniyatlarini, shaxsning yosh va psixologik xususiyatlarini bilish.

2. Ta‘limiy yo‘nalish – ta‘lim jarayonini samarali tashkil etish, ta‘lim shakli, metod va vositalarini to‘g‘ri tanlay olish, ta‘lim maqsadini aniq belgilash.

3. Tarbiyaviy yo‘nalish – tarbiya jarayonini samarali tashkil etish, ta‘lim shakli, metod va vositalarini to‘g‘ri tanlay olish, tarbiya maqsadini aniq belgilash.

4. Metodik yo‘nalish – ta‘lim va tarbiya jarayonlarini amaliy jihatdan to‘g‘ri tashkillashtirish, maqsadning natijalanishiga erishish.

5. Texnologik yo‘nalish – ta‘lim va tarbiya jarayonlarini ularning tarkibiy elementlari o‘rtasidagi o‘zaro izchillik asosida mohirona tashkil etish.

6. Ijodiy yo‘nalish – har bir dars va muayyan tarbiya jarayoniga o‘ziga xos yondashish, original loyihalarni yaratish.

7. Tadqiqotchilik yo‘nalishi – mavjud pedagogik muammolarning yechimini topishga intilish, ular yuzasidan o‘ziga xos yechimlarni tavsiya etish.

Demak, ta‘lim-tarbiya jarayonlarini tizimli tashkil etish yo‘lga qo‘yilgandan boshlab, o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatga xos sifatlarga ega bo‘lishiga nisbatan ehtiyoj sezilgan. Bu ehtiyojning qondirilishi o‘qituvchi tomonidan kasbiy faoliyatini muvaffaqiyatli tashkil etishga imkon beradigan sifatlar majmuiga, ya‘ni pedagogik mahoratga ega bo‘lishi hisobiga qondirilgan. Bugungi kunda pedagogik mahoratga ega bo‘lish talabi faqatgina o‘qituvchilarga emas, shu bilan birga jamoa bilan, ijtimoiy sub‘ektlar bilan ishlaydigan har qanday mutaxassislarga ham qo‘yilmoqda. Binobarin, tirik mavjud bo‘lgan shaxslarga ta‘sir ko‘rsatish, ularni boshqarish oson kechmaydi. Bu esa oliy ta‘lim muassasalarida bo‘lajak mutaxassislarning muayyan darajada pedagogik mahoratga ega bo‘lishlari zarurligi taqozo etmoqda.

Nazorat savollari:

1. “Pedagogik mahorat” tushunchasi qanday ma’noni anglatadi?
2. Pedagogik mahoratning muhim tarkibiy qismlari qaysilar?
3. Pedagogik tafakkur nima va u qanday shakllanadi?
4. Pedagogik kreativlik nima va u qanday rivojlantiriladi?
5. Pedagogik refleksiya nima?
6. Pedagogning refleksiya ega bo‘lishi qanday ahamiyatga ega?
7. Pedagogik madaniyat deganda nimani tushunasiz?
8. Pedagogik faoliyatning muhim yo‘nalishlarini nimalar tashkil etadi?

O‘QITUVCHI FAOLIYATIDA PEDAGOGIK QOBILIYAT

O‘quv rejasi:

1. Qobiliyatning psixologik-pedagogik tavsifi.
2. Pedagogik qobiliyatning asosiy turlari.
3. Pedagogik qobiliyatni rivojlantirish yo‘llari, shakllari va metodlari.
4. O‘qituvchining axloqiy sifatleri.
5. O‘qituvchining irodaviy sifatleri.
6. O‘qituvchining hissiy sifatleri.

Tayanch tushunchalar: qobiliyat, pedagogik qobiliyat, empatiya, pertseptiv qobiliyat, didaktik qobiliyat, tashkilotchilik qobiliyati, konstruktiv qobiliyat, kommunikativ qobiliyat, bilish (anglash) qobiliyati, o‘qituvchining axloqiy sifatleri (mas’uliyatlilik, o‘z zimmasiga javobgarlikni ola bilishi, ijodiy holatni tashkil eta olishi), o‘qituvchining irodaviy sifatleri, o‘qituvchining hissiy sifatleri (o‘z-o‘zini boshqarish, hissiy ta’sir ko‘rsatish).

1. Qobiliyatning psixologik-pedagogik tavsifi. Pedagogik jarayonning qanchalik samarali, muvaffaqiyatli tashkil etilishi o‘qituvchining pedagogik qobiliyatga egaligiga bog‘liq. Manbalardan birida “qobiliyat” tushunchasi shunday sharhlanadi: 1) shaxsning osonlik bilan biron faoliyatni egallay olishini ta’minlaydigan individual psixologik xususiyat; 2) narsa va hodisalar mohiyatini ijodiy tasavvur qilish layoqati.

Odatda qobiliyat umumiy va maxsus qobiliyatlar tarzida ikki guruhga ajratiladi.

Umumiy qobiliyatlar shaxs faoliyatining asosiy turlarida namoyon bo‘ladi, kasbiy faoliyatning ayrim turlarida namoyon bo‘ladigan qobiliyatlar (matematik, texnik, musiqa, tasviriy san’at, adabiyot (poeziya va proza), jismoniy tayyorgarlik va b.) esa **maxsus qobiliyatlar** deb yuritiladi.

Pedagogik qobiliyat – pedagogga xos bo‘lib, pedagogik faoliyatni oqilona tashkillashtirish va olib borilishiga imkon beradigan, amaliy vazifalarning samarali bajarilishini ta’minlashda ahamiyatli bo‘lgan xususiyatlar

Pedagogik qobiliyatning ustuvor xususiyatlari quyidagilardir:


- pedagogik takt (pedagogning o'quvchilar bilan turli faoliyat shakllari bo'yicha tashkil etiladigan muloqotda mavjud axloqiy tamoyillar, hulq-atvor qoidalariga rioya qilishi, ularga to'g'ri yondashish malakalariga egaligi);
- pedagogik kuzatuvchanlik (o'qituvchining o'quvchilarga xos bo'lgan hatto eng oddiy xususiyatlarni ham payqab olish qobiliyatiga egaligi);
- bolalarga bo'lgan muhabbat (ularga mehr qo'ya olish, ularga mehribonlik ko'rsatish, ichki kechinmalari, his-tuyg'ulari, orzu-umidlari, hayotiy intilishlari bilan o'rtoqlashish, ular uchun qiyin bo'lgan vaziyatlarda g'amxo'rlik qilish);
- bilimlarni uzatishga bo'lgan ehtiyoj.

2. Pedagogik qobiliyatning asosiy turlari. F.N.Gonobolin o'qituvchi shaxsida quyidagi qobiliyatlarning namoyon bo'lishini muhim deb hisoblaydi: o'quvchini tushuna olish qobiliyati; yosh, psixologik jihatdan barcha o'quvchilar o'zlashtira oladigan materiallarni taqdim eta olish qobiliyati; o'quvchilarning qiziqishlarini rivojlantirish qobiliyati; tashkilotchilik qobiliyati; pedagogik takt; o'z ishining natijalarini ko'ra olish va b.

Pedagogik qobiliyatlar turlari, eng avvalo, quyidagilar sanaladi: pedagogik kuzatuvchanlik; pedagogik xayol (fantaziya); xarakter sifatlarining tarbiyalanishiga bo'lgan talabchanlik; pedagogik takt; tashkilotchilik qobiliyatlari; nutq madaniyatiga egalik; muloqotga kirishuvchanlik (kirishimlilik); hissiy sezgirlik (kasbiy ziyraklik, boshqalarga hamdard bo'la olish, ichki sezgiga ega bo'lish); harakatchanlik, ta'lim jarayoni ishtirokchilariga irodaviy ta'sir ko'rsatish va ishontirish qobiliyatiga egalik; hissiy barqarorlik (o'z-o'zini tuta bilish, boshqarish va nazorat qilish); kelajakni maqbul holda bashoratlay bilish; kasbiy mustaqillik, ijodiy qobiliyatga egalik.

V.A.Krutetskiy pedagogga xos qobiliyatlarni umumlashtirib, ularning turlari quyidagi ekanligini ko'rsatib o'tadi (3-rasm).

Qobiliyatli o'qituvchilarda noyob qobiliyatlar ham ko'zga tashlanadi. Ya'ni: bir vaqtning o'zida bir necha faoliyatni bajara olish (masalan, eshitish, ko'rish, o'qish, yozish, fikr yuritish, muloqot qilish va b.); atrofida kechayotgan ikki yoki bir necha voqelikni birdek qabul qilish (bir o'quvchining ma'ruzasini eshitgani holda, sinfdagi boshqa o'quvchilarning faoliyatlarini kuzata olish); o'ta qiziquvchanlik (tabiat va jamiyatda kechayotgan har bir voqea-hodisa (garchi ular eng ahamiyatsiz, e'tiborga tashlanmaydigan bo'lsa-da) mohiyatini bilishga intilish, haddan ziyod ko'p savollarga javob topishga intilish); miya faoliyatining biokimyoviy va elektrik faolligi (miya deyarli to'xtovsiz faoliyat ko'rsatib, nihoyatda kam vaqt "dam oladi", bilish jarayonida noaniqliklar ko'zga tashlansa, ular tezda bartaraf etiladi; uyquchanlik qobiliyatli pedagoglarga xos xususiyat emas); nutqi va fantaziyasining boyligi (qobiliyatli o'qituvchilarning aksariyati nihoyatda boy nutqqa ega, ularda fantaziya (tasavvur qilish) qobiliyati beqiyos darajada kuchli); kuchli xotira (yirik hajmdagi matnni, jumladan, dostonlarni bir marta o'qish bilan to'laligiga yodlab olib, uni so'zma-so'z qayta hikoya qilib berish qobiliyati)ga egalik kabilar alohida o'rin tutadi.




3-rasm. Pedagogik qobiliyat turlari (V.A.Krutetskiyga ko‘ra)

3. Pedagogik qobiliyatni rivojlantirish yo‘llari, shakllari va metodlari. Har qanday qobiliyat kabi pedagogik qobiliyatni ham rivojlantirish borish taqozo etiladi.


Pedagogik qobiliyatni rivojlantirish – mutaxassis sifatida faqat pedagog (o‘qituvchi)largagina xos bo‘lgan qobiliyatlarni yanada boyitish va takomillashtirish uchun zarur shart-sharoitni yaratish sanaladi

Tabiiyki, pedagogik qobiliyat muayyan yo‘llar bilan rivojlanadi. **Pedagogik qobiliyatni rivojlantirish yo‘llari** quyidagilardan iborat (4-rasm):




4-rasm. Pedagogik qobiliyatni rivojlantirish yo'llari

Pedagogik qobiliyatni rivojlantirishda ma'lum shakllar nihoyatda samarali sanaladi. Ular quyidagilardir (5-rasm):



5-rasm. Pedagogik qobiliyatni rivojlantirish shakllari

Shuningdek, pedagogik qobiliyatni rivojlantirishda muayyan metodlar (6-rasm) qo'llaniladi:



6-rasm. Pedagogik qobiliyatni rivojlantirish metodlari

IV. O'qituvchi shaxsida aks etuvchi axloqiy sifatlar. Axloq (lot. "moralis" – xulq-atvor) – ijtimoiy ong shakllaridan biri hisoblanib, ijtimoiy munosabatlar va shaxs xatti-harakatini tartibga soluvchi, muayyan jamiyat tomonidan tan olingan, rioya qilinishi zarur bo'lgan tartib, odob, o'zaro munosabat, muloqot, xulq-atvor qoidalari, mezonlarining majmui.

Axloqiy sifatlar – ijtimoiy munosabatlarni tashkil etish jarayonida jamiyat tomonidan tan olingan o'zaro munosabat, muloqot, xulq-atvor qoidalariga, mezonlariga og'ishmay amal qilinishini ifodalovchi sifatlar. Axloqiy sifatlar sirasiga quyidagilar kiradi: axloqlilik, odoblilik, xushmuomalalilik, xushfe'lliligi, to'g'riso'zlik, intizomlilik, mas'uliyatlilik, jamoa bilan bo'lish, e'tiqodlilik, iymonlilik, bilimlilik, kamtarlik, mehnatsevarlik, kirishimlilik, adolatparvarlik, vijdonlilik va boshqalar.

O'qituvchining axloqiy sifatlari – o'qituvchining ijtimoiy-pedagogik munosabatlarni tashkil etish jarayonida jamiyat tomonidan tan olingan o'zaro munosabat, muloqot, xulq-atvor qoidalariga, mezonlariga og'ishmay amal qilinishini ifodalovchi sifatlari bo'lib, ular ham umumiy axloqiy sifatlar tarzida namoyon bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda o'qituvchi o'quvchilarga o'zining axloqliligi, odobliligi, xushfe'lliligi, xushmuomalaliligi, to'g'riso'zligi, intizomlilik, mas'uliyatliligi, jamoa bilan birga bo'la olishi, e'tiqodlilik, iymonlilik, bilimlilik, kamtarligi, mehnatsevarligi, kirishimlilik, adolatparvarligi, vijdonlilik va hokazo sifatlari bilan namuna bo'la olishi lozim.

V. O'qituvchiga xos bo'lgan irodaviy va hissiy sifatlar. Iroda – shaxsning aniq maqsad sari ongli ravishda olg'a intilishi, zo'r berib harakat qilishi.

Irodaviy sifatlar – shaxsning aniq maqsad sari ongli ravishda olg'a intilishi, zo'r berib harakat qilishini ta'minlovchi sifatlar bo'lib, ular sirasiga quyidagilar kiradi: kuch, chaqqonlik, dadillik, jur'atlilik, qat'iyatlilik, maqsaddan og'ishmaslik, ahddidan qaytmaslik, chidam bilan olg'a intilish, qiyinchiliklardan cho'chimaslik, muvaffaqiyatsizliklardan "o'zini yo'qotib qo'yimaslik", eng og'ir vaziyatlarda ham "o'zini qo'lga ola bilish", tushkunlikka tushmaslik, atrofdagilarni olg'a intilishga rag'batlantira bilish, ularga dalda bera olish va boshqalar.

O‘qituvchiga xos irodaviy sifatlar – o‘quvchining aniq pedagogik maqsad sari ongli ravishda olg‘a intilishi, zo‘r berib harakat qilishini ta‘minlovchi sifatlar bo‘lib, ular sirasiga quyidagilar kiradi: pedagogik jarayonlardagi dadillik, jur‘atlilik, qat‘iyatlilik, pedagogik maqsaddan og‘ishmaslik, pedagogik majburiyatlarni bajarishda jismonan va ruhan charchoq yuzaga kelganda ham ularni tezda bartaraf eta olish, chidam bilan pedagogik vazifalarni ado etish, qiyinchiliklardan cho‘chimaslik, pedagogik muvaffaqiyatsizliklardan “o‘zini yo‘qotib qo‘ymaslik”, eng og‘ir vaziyatlarda jarayonlarda yuzaga keladigan nizolardan cho‘chimaslik, ularni oqilona baholay olish, tushkunlikka tushmaslik, o‘quvchilarni olg‘a intilishga rag‘batlantira bilish, ularga dalda bera olish va boshqalar.

VI. O‘qituvchiga xos hissiy sifatlar. Hissiyot (lotincha emovere – to‘lqinlanish, bezovtalanish, xavotirga tushish) – ruhiy holat va jarayonlarning o‘ziga xos sohasi; qayg‘u, qoniqish, quvonch, g‘am-alam, istirob, umidsizlik, ko‘ngil qolish, achinish, nafrat, anduh, g‘amginlik, siqilish, qo‘msash, ayb, uyat, sarosima, jirkanish, ajablanish, qiziqish, ikkilanish, yumor tuyg‘usi kabi ichki kechinmalar.

Hissiy sifatlar – qayg‘u, qoniqish, quvonch, g‘am-alam, istirob, umidsizlik, ko‘ngil qolish, achinish, nafrat, anduh, g‘amginlik, siqilish, qo‘msash, ayb, uyat, sarosima, jirkanish, ajablanish, qiziqish, ikkilanish, yumor tuyg‘usiga egalikni ifodalovchi sifatlar.

O‘qituvchining hissiy sifatleri – o‘qituvchiga o‘quvchining qayg‘usi, quvonchi, g‘am-alami, istirobi, umidsizligi, nafrati, anduhi, g‘amginligi, siqilishi, sarosimasi, jirkanishi, ajablanishi, qiziqishi, ikkilanishi, qo‘msashini tushunish, aybini tan olganligini va uyatni his qilganligini anglash, yumor tuyg‘usiga egaligini his eta olishga yordam beradigan sifatlar. O‘qituvchining hissiy sifatleri ta‘lim, tarbiya jarayonida o‘quvchi bilan o‘quv muassasasi, ko‘cha-kuy va oila muhitida tashkil etiladigan o‘zaro muloqot, munosabat jarayonida aks etadi. O‘quvchilar tomonidan o‘quv fanlari asoslarini puxta o‘zlashtirilishi, ta‘lim muassasasida o‘rnatilgan tartib-intizom qoidalariga rioya qilinishida, shuningdek, ularda zarur axloqiy sifatning hosil bo‘lishida o‘qituvchining hissiy sifatlarga egaligi ham muhim ahamiyatga ega. Zero, o‘qituvchining hissiy sifatlarga egaligi o‘quvchi bilan o‘zaro hamkorlik o‘rnatish, hamjihatlikka erishish, yagona maqsad sari harakatlanishga yordam beradi.

Nazorat savollari:

1. Qobiliyat nima?
2. Pedagogik qobiliyatning qanday turlari mavjud?
3. Pedagogik qobiliyatni rivojlantirish yo‘llari nimalardan iborat?
4. Pedagogik qobiliyatni rivojlantirishda qanday shakllardan foydalaniladi?
5. O‘qituvchining axloqiy sifatleri deganda nimani tushanasiz?
6. O‘qituvchi faoliyatida qanday axloqiy sifatlar ko‘zga tashlanadi?
5. O‘qituvchi qanday irodaviy sifatlarga ega bo‘lishi zarur?
6. O‘qituvchining hissiy sifatleri deganda qanday sifatlarni tushunasiz?

Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. Abdurahobov U. Shaxs (Kamil inson haqida). – Toshkent: Vatan, 1996.
2. Avloniy, A. Turkiy guliston yohud axloq. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992.
3. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Moliya, 2003.
4. Akromova F. Insoniy munosabatlar psixologiyasi. – Toshkent: “Shams ASA”, 2002.
5. Bolshaya psixologicheskaya entsiklopediya / Samoe polnoe sovremennoe izdanie. – Moskva: Eksmo, 2007.
6. Vigotskiy L.S. Pedagogicheskaya psixologiya /Pod red. V.V.Davidova. – M.: Pedagogika. 1991.
7. Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o‘qituvchisining psixologiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 1999.
8. Ivanov R.I., Zufarova M.E. Umumiy psixologiya / Pedagogika va psixologiya bakalavriat ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun darslik. – Toshkent: O‘zbekiston Faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008.
9. Zimnyaya I.A. Pedagogicheskaya psixologiya / Ucheb. posobie dlya studentov vissha.ped.ucheb.zavedeniy. – Rostov-na-Donu: RGU, 1997.
10. Umumiy psixologiya / Ma’ruza matnlari. Tuzuvchilar: N.Yoqubov, D.Mirzajonova, G.Ashurova. – Qo‘qon: Qo‘qon Davlat pedagogika instituti, 2007.
11. G‘oziev E. Psixologiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 1994.
12. Педагогическая мастерство // <http://psi.webzone.ru/st/050200.htm>.
13. Сущность педагогического мастерства // <http://psylist.net/hpor/ped037.htm>.
14. Виды педагогического мастерства // <http://dic.academic.ru/dic.nsf/socio/4789>.

O‘QITUVCHINING KOMMUNIKATIV QOBILIYATI

O‘quv rejasi:

1. Muloqot – pedagogik hamkorlik vositasi sifatida.
2. Muloqot turlari, shakllari va vositalari.
3. Pedagogik muloqot va uning mohiyati.
4. Pedagogik muloqotning tarkibiy tuzilmasi va vazifalari.
5. O‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi muloqotining o‘ziga xosligi.
6. Kasbiy-pedagogik muloqotda o‘qituvchi qobiliyatining namoyon bo‘lishi.

Tayanch tushuncha va iboralar:

Muloqot (kommunikativ aloqa), muloqot turlari, muloqotni samarali tashkil etish, pedagogik muloqot, pedagogik muloqotning tarkibiy tuzilmasi, pedagogik muloqot vazifalari, pedagogik muloqot uslublar, muloqot orqali pedagogik ta’sir etish, pedagogik muloqotni samarali tashkil etish, pedagogik muloqot jarayonini boshqarish, pedagogik muloqot jarayonida yuzaga keladigan nizolar va ularning oldini olish, kommunikativ ko‘nikmalar, o‘qituvchining kommunikativ ko‘nikmalar, bo‘lajak o‘qituvchilarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish metodlari.

I. Muloqot – pedagogik hamkorlik vositasi sifatida. Muloqot faqat insonlarga xos bo'lgan jarayondir. Kishilarda faoliyat jarayonida bir-birlariga nimanidir aytish istagi tug'iladi.

Odatda muloqot shaxslar o'rtasida birgalikdagi faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan bog'lanishlar rivojini aks ettiradi. **Muloqot** ikki va undan ortiq kishilar o'rtasida bilish yoki baholash tarzidagi axborot almashishda namoyon bo'luvchi o'zaro ta'sirdir. U birgalikda faoliyat ko'rsatuvchilar o'rtasida axborot ayirboshlashni ta'minlaydi. Bunda munosabatning **kommunikativ jihati** hisobga olinadi. Kishilar munosabatga kirishishda avvalo tilga murojaat qiladi. Muloqotning yana bir jihati munosabatga kirishuvchilarning o'zaro birgalikdagi harakati **axborotlarni faqat so'zlar bilan emas, balki harakatlar bilan ham ayirboshlash** namoyon bo'ladi. M: shaxs muloqotga kirishar ekan, turli imo-ishoralarni ham qo'llaydi. Munosabatning keyingi jihati muloqotga **kirishuvchilarning bir-birlarini idrok eta olishlaridir**. M: muloqot vaqtida suhbatdoshlar avval birlarini hurmat qilib yoki mensimasdan munosabatda bo'linadi. Demak, muloqot jarayonida **kommunikativ (axborot uzatish), interaktiv (o'zaro birgalikda harakat qilish) va pertseptiv (o'zaro birgalikda)** idrok etish amalga oshiriladi.

Muloqot qonuniyatlarini bilish hamda uni o'rnatish malakalari va qobiliyatlarini rivojlantirish har bir kishi uchun muhimdir.

Shaxsning yuksak ma'naviy ehtiyojlarimizdan biri muloqotga bo'lgan ehtiyojdir. Muloqotga bo'lgan ehtiyoj qondirilmasa, shaxs ongi ham rivojlanmaydi. Shu sababli kishi doimo muloqotga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishi lozim. Kimlar bilandir bo'lgan muloqotdan qoniqish hosil qilamiz, lekin ayrim hollarda esa biz qoniqmaslikni his qilamiz.

Til – eng muloqot vositasi sanalib, u muloqotga kirishuvchilar o'rtasida aloqa bog'lanishini ta'minlaydi. U vositasida axborotni ma'lum qilayotgan hamda uzatayotgan shaxs ham axborot asosida o'z xulq-atvorini ifoda etadi.

Pedagogik jarayonda ta'lim oluvchilarning ba'zilarida muloqotga kirisha olmaslik kuzatiladi. **Muloqotga kirisha olmaslikning asosiy sababi** o'zini o'zi ortiqcha yuqori yoki past baholash tufayli o'ziga va uni qurshab turgan odamlarga noto'g'ri munosabatdir.

Buning oldini olish imkoniyatlari mavjud bo'lib, asosan quyidagilarga ahamiyat berish quyidagi ijobiy natijalarni kafolatlaydi:

1) hamkorlik faoliyatida, muloqotlar tizimi orqali muloqot jarayonining barcha a'zolari o'rtasida insonparvarlik munosabatlarini tashkil qilish, emotsional muhitni taqqoslash imkoniyatini yuzaga keltirish;

2) muloqotda ichki munosabatlar tizimida har bir a'zoning qulay pozitsiyasini ta'minlashga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish;

3) insonning muloqot xususiyatlari, maromi, usullari, shakllari to'g'risidagi axborotni egallashga oid maxsus mashg'ulotlarni uyushtirish;

4) shaxslararo munosabatlar va muloqot usullariga mo'ljallangan ishbilarmonlik o'yinlari, psixodrama, trening tizimini yaratish.

II. Muloqot turlari, shakllari va vositalari. O'z mohiyatiga ko'ra muloqot bir necha turga ajratiladi. Muloqotning quyidagi turlari farqlanadi:


1. Ijtimoiy yo'naltirilgan muloqot (u keng jamoatchilikka qaratilgan va jamiyat manfaatlaridan kelib chiqadigan).

2. Guruhdagi predmetga yo'naltirilgan muloqot (u o'zaro hamkorlikdagi faoliyatni amalga oshirish mobaynidagi muloqot – mehnat, ta'lim jarayonidagi yoki konkret topshiriqni bajarish jarayonida guruh a'zolarining o'rtida sodir bo'ladi).

3. Shaxsiy muloqot (u bir shaxsning boshqa shaxs bilan o'z muammolarini ochish maqsadida o'rnatgan munosabatlari sanaladi).

4. Pedagogik muloqot (u pedagogik jarayonda ishtirok etuvchilar o'rtasida amalga oshiriladigan murakkab o'zaro ta'sir jarayoni sifatida namoyon bo'ladi).

Muloqotning shakllari ham turlichadir. Xususan (7-rasm):



7-rasm. Muloqotning asosiy shakllari

Muloqotda eng ko'p holatlarda nutq faoliyati ko'zga tashlanadi. **Nutq faoliyati** shaxs tomonidan ijtimoiy-tarixiy tajribani o'zlashtirish, ularni avlodlarga uzatish, kommunikatsiya o'rnatish va o'z harakatlarini rejalashtirish maqsadida tildan foydalanish jarayoni sanaladi. Bu turdagi faoliyat aloqa jarayonining o'zidir.

Nutq faoliyatining quyidagi turlari farqlanadi:

- 1) faol nutq (so'zlovchining nutqi);
- 2) sust nutq (tinglovchining nutqi).

Shuningdek, nutq:

- 1) ichki nutq (monologik va dialogik nutq);
- 2) tashqi nutq (yozma va og'zaki nutqqa) bo'linadi.

Monolog bir shaxsning o'ziga yoki boshqalarga qaratilgan nutqidir. Bu o'qituvchining bayoni, o'quvchining to'laroq javobi, ma'ruza va boshqalardir. Monologik nutq ma'lum qiyinchiliklarga ega. Monologda gapirayotgan kishi fikrlarning aniqligiga, grammatik qoidalarning saqlanishiga, logika va aytilayotgan fikrlarning izchilligiga e'tibor berish kerak.

Monologik nutq dialogik nutqqa nisbatan kechroq shakllanadi. Maktabda o'quvchilarda monologik nutqni rivojlantirishga alohida e'tibor berishlari kerak.

Ikki yoki undan ortiq kishilar o'rtasidagi nutq **dialog** deyiladi. Dialogik nutqda bayon qilinayotgan fikr ko'p jihatdan undan oldingi fikrga bog'liq bo'ladi. Dialogik

nutqda suhbatdoshlarga ma'lum bo'lgan ayrim so'zlar tushirib qoldiriladi. Shuning uchun yozib olingan dialog boshqalarga unchalik tushunarli bo'lmasligi mumkin. Dialogik nutqda har xil turdagi shablonlar, ya'ni odatlanib qolgan so'z birikmasi ko'p uchraydi (qoyil, marhamat qilib aytingchi).

Nutqning **ichki nutq** deb atalgan turi nutq faoliyatining alohida turi hisoblanadi. Ichki nutq amaliy va nazariy faoliyatni rejalashtirish bosqichi sifatida namoyon bo'ladi. Odatda shaxs so'zlar chala yarim aytilganda ham tushanadi.


Yozma nutq monologik nutqning turlaridan biri bo'lib, yozma nutq monologik nutqqa nisbatan batafsilroqdir. Yozma nutq tufayli kishilar to'plagan tajribani avloddan avlodga eng yaxshi tarzda yetkazish imkoniyati bor. Yozma nutq piktografiyadan minglab so'zlar bir necha o'nlab harflar yordamida ifoda etilayotgan hozirgi zamon yozuviga qadar rivojlandi. Ko'pincha bir narsani yozib qo'yish – uni anglab olish va eslab qolish hisoblanadi.

III. Pedagogik muloqot va uning mohiyati. Pedagogik muloqot – pedagogning o'quvchilar jamoasi, ota-onalar, hamkasblar hamda rahbariyat bilan pedagogik odob hamda muloqot talablariga muvofiq holda uyushtiradigan suhbat. Pedagogga xos bo'lgan mahorat asosini tashkil etuvchi pedagogik muloqot madaniyati uning o'quvchilar jamoasi, ota-onalar, hamkasblar hamda rahbariyat bilan uyushtiriladigan muloqot jarayonida namoyon bo'ladi. Bunda, ayniqsa, pedagogning o'quvchilar jamoasi bilan o'zaro muloqoti muhim ahamiyatga ega. Pedagog o'quvchilar bilan muloqotga kirishishga, uning samarali bo'lishiga intiladi.

Muloqot jarayonida o'quvchi tomonidan bildirilayotgan fikrlar, uning qarashlari shaxsni yaqindan o'rganish uchun imkoniyat yaratadi. O'quvchi shaxsini yaqindan bilish, uning ichki kechinmalari, o'y-fikrlari, his-tuyg'ulari, orzu-umid, maqsad va hayotiy intilishlaridan xabardor bo'lish pedagogik jarayonning metodik, ruhiy jihatdan to'g'ri tashkil etilishini ta'minlaydi. Zero, bu jarayonda pedagogik o'quvchi shaxsiga xos yosh, psixologik va shaxsiy xususiyatlarni inobatga olgan holda faoliyatni tashkil etadi.


Muloqot jarayonidagi axborot almashinuvi ta'lim jarayoni ishtirokchilarining o'zaro ijtimoiy jarayonlar, shaxs kamolotining kechishiga doir ma'lumotlar almashishini ta'minlaydi. Pedagogik va o'quvchilar o'rtasida hamkorlikni qaror toptirish esa har qanday vaziyatda ham ular o'rtasida o'zaro axborot almashinuvi samarali ro'y berishi uchun sharoit yaratadi. Bu jarayonda o'qituvchi ta'lim oluvchilarning eng yaqin maslahatchisi, yo'l boshchisi va rahbariga aylanadi. Muloqot chog'ida o'quvchilar tomonidan o'z shaxsini, "meni"ni, qadr-qimmatini yetarlicha baholash va o'z oldilariga hayotiy maqsadlarni qo'ygan holda olg'a intilishlarini ta'minlashga jiddiy e'tibor qaratish lozim. Muloqot jarayonida axborot almashish vazifasi muayyan vositalar yordamida amalga oshiriladi. Pedagogik faoliyatni tashkil etishda o'qituvchining nafaqat o'zi, balki uning ijobiy ta'siri asosida o'quvchilar ham muloqot madaniyatini o'zlashtirib borishlari lozim.

IV. Pedagogik muloqotning tarkibiy tuzilmasi va vazifalari. Pedagogik muloqot turlari mavjud (8-rasm):




8-rasm. Pedagogik muloqot turlari

Pedagogik muloqot quyidagi yo'nalishlarda tashkil etiladi (9-rasm):



9-rasm. Pedagogik muloqot yo'nalishlari

Pedagogik muloqot quyidagi vazifalarni bajaradi (10-rasm):




10-rasm. Pedagogik muloqot jarayonida bajariladigan asosiy vazifalar

V. Kasbiy-pedagogik muloqotda o'qituvchi qobiliyatining namoyon bo'lishi. Pedagogik jarayonda kechadigan muloqot kasbiy-pedagogik muloqot ham

deb ataladi. **Kasbiy-pedagogik muloqot** – pedagogning o‘z kasbiy faoliyatida ta’lim jarayonining ishtirokchilari – o‘quvchi, talaba, hamkasblari, ota-onalar va rahbarlar bilan tashkil etadigan muloqoti. Uni tashkil etishda dastlab bir necha vazifalar rejalashtiriladi (maqsad qo‘yiladi, muloqotning qachon, qaerda, necha yoshlilar bilan o‘tkazilishi aniqlanadi).

Pedagogik muloqotni tashkil etish bir necha bosqichda kechadi (11-rasm):



11-rasm. Pedagogik muloqotni tashkil etishning asosiy bosqichlari

Birinchi bosqichdan muhim, mas’uliyatli muammoni hal qilishda foydalaniladi. M: darsga tayyorlanish, ma’ruzani rejalashtirish ham shu bosqichga kiradi. Birinchidan, dasturga mos ravishda dars loyihasi tuziladi. Ikkinchidan, o‘quvchilarning individual xususiyatlari hisobga olinadi. Uchinchidan, dars jarayonida qo‘llaniladigan ta’lim-tarbiya usullari tanlanadi. To‘rtinchidan, bolani aqliy rivojlanish qobiliyati hisobga olinadi.

Ikkinchi bosqichni “kommunikativ hujum” deb atash mumkin. Chunki o‘qituvchi to‘liq tashabbusni o‘z qo‘liga olib dars boshlaydi.

Uchinchi bosqich kasbiy kommunikatsiyaning muhim tarkibiy qismidir.

Kasbiy-pedagogik muloqotning vazifasi – texnologiyani o‘zlashtirish bo‘lib, unda o‘qituvchi iliq munosabatlarni qo‘llay oladi, natijada pedagog shaxsi namoyon bo‘ladi.

Kasbiy-pedagogik muloqotning muvaffaqiyatli bo‘lishida o‘qituvchining kommunikativ madaniyati muhim o‘rin egallaydi. Bola o‘qituvchining dildan gapirayotganligini his qilib turishi kerak. Bo‘lmasa ko‘ngildagidek muloqot amalga oshmaydi. Ayrim pedagoglar bolalar bilan ularning yoshini hisobga olmasdan muloqotda bo‘ladilar. o‘qituvchi bola katta bo‘layotganligini sezib tursa, bu uning muloqot madaniyatini shakllanayotganligidan dalolat beradi.


Pedagog kommunikativ madaniyatga erishish uchun quyidagilarga ahamiyat berishi lozim:

- bolani sabr-toqat bilan tinglash madaniyati;
- unga qiziqarli bo‘lmasa ham bolani diqqat bilan tinglash;
- bola zerikayotganligini sezib, mavzuni boshqa qiziqarli tomonga burib yuborish;

- suhbatlashishdan avval bolaning kayfiyatini ko‘tarishga harakat qilish;
- bozor iqtisodiyotiga mos keladigan muloqot madaniyatini o‘zlashtirishni ta’minlash.

O‘qituvchi o‘zi uchun boshqalar bilan bo‘ladigan muloqotni yaxlit portretini tuzib olishi kerak. Bu auditoriya bilan bo‘ladigan munosabatlarni tashkil qilishiga

yordam beradi. Pedagog kommunikativ faoliyati pedagogik faoliyatdagi muloqotda muhim rol o'ynaydi. Kommunikativ ko'nikma muayyan shakllarda namoyon bo'ladi (12-rasm):



12-rasm. Kommunikativ qobiliyatning asosiy shakllari

Kommunikativ qobiliyatning asosiy tarkibiy qismi muloqotchanlikning turlicha namoyon bo'lishidir. Biz bilamizki, muloqotmand kishilar oson, tez, zudlik (operativ) bilan muloqotni tashkillashtiradilar. Bunday kishilar har doim kommunikativlikning eng markazida turadi. Pedagogik faoliyatdagi muloqotchanlik shaxsiy fazilat sifatidagina emas, balki kasbiy-shaxsiy fazilat sifatida yuzaga chiqadi.

Ijtimoiy yaqinlik vaqtinchalik ruhiy holat sifatida emas, balki shaxsning kasbiy-pedagogik yo'nalishi bilan bog'liq holda ishtiroq etadi. Muloqotchanlik shaxs fazilati sifatida pedagogik muloqotning mahsuldor bo'lishini ta'minlaydi. Bizning fikrimizcha, muloqotchanlikni uchta tarkibiy qismini ko'rib chiqish lozim: muloqotga ehtiyoj, muloqot paytida va muloqotdan keyin yaxshi kechinmalar his qilish, kommunikativ ko'nikma va malakalar.

Muloqotchanlik hissiy tabiatga ega bo'lib, ular kommunikativ va altruistik hislardir. Kommunikativ hislarga fikr almashish, hayajonlanish, simpatiya (yoqtirish) his qilish, muloqotda bo'layotgan hamroxnini hurmat qilish kabilar kiradi. Altruistik hislar esa kishilarga quvonch keltirishni xohlash, boshqalar quvonchidan xursand bo'lish, hamdardlik bildirish va shu kabilardan iborat.

Pedagogning kommunikativ faoliyatiga uning qobiliyatlari ham kiradi. Jumladan, didaktik (mavzuni tushunarli, sodda tilda bayon qilib bera olish), hissiy-irodaviy ta'sir eta olish, pertseptiv-pedagogik kuzatuvchanlik asosida o'quvchi ruxiyotiga ta'sir qilish, ekspressiv – nutqiy, mimika, pantomimika asosida fikrni tushuntirish, kommunikativ – o'quvchilar bilan munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yish, pedagogik takt, talabchanlik kabilar. Ko'rinib turibdiki, barcha pedagogik qobiliyatlar kommunikativ qobiliyatlar bilan bog'liq.

Kommunikativ qobiliyat – shaxslararo munosabatlarda shaxsning o'z fikri, his-tuyg'ulari, hissiyotlarini to'g'ri ifodalashga, suhbatdosh tomonidan samimiy qabul

qilinishiga, suhbat jarayonida o'z qarashlarini muvaffaqiyatli himoya qilinishiga erishish imkonini beradigan layoqati; individual xususiyatning muayyan ko'rinishi.

Kommunikativ qobiliyatni rivojlantirish – shaxslararo munosabatlarda shaxsning o'z fikri, his-tuyg'ulari, hissiyotlarini to'g'ri ifodalashga, suhbatdosh tomonidan samimiy qabul qilinishiga, suhbat jarayonida o'z qarashlarini muvaffaqiyatli himoya qilinishiga erishish imkonini beradigan layoqatini yanada mustahkamlash va takomillashtirish.

Kommunikativ qobiliyatni rivojlantirish metodlari – shaxslararo munosabatlarda shaxsning o'z fikri, his-tuyg'ulari, hissiyotlarini to'g'ri ifodalashga, suhbatdosh tomonidan samimiy qabul qilinishiga, suhbat jarayonida o'z qarashlarini muvaffaqiyatli himoya qilinishiga erishish imkonini beradigan layoqatini yanada mustahkamlash va takomillashtirishni ta'minlovchi metodlar.

Bo'lajak o'qituvchining kommunikativ qobiliyatini rivojlantirish metodlari – mutaxassis sifatida bo'lajak o'qituvchilarning o'quvchilar bilan bo'ladigan munosabatlarda o'z fikri, his-tuyg'ulari, hissiyotlarini to'g'ri ifodalashga, o'quvchilar tomonidan to'g'ri qabul qilinishiga, suhbat jarayonida o'z qarashlarini muvaffaqiyatli himoya qilinishiga erishish imkonini beradigan layoqatlarini yanada mustahkamlash va takomillashtirish.

Kommunikativ ko'nikmalar – shaxslararo munosabatlarda shaxsning o'z fikri, his-tuyg'ulari, hissiyotlari to'g'ri ifodalashga imkon beradigan qobiliyat, odat, ko'nikma va malakalari. Ular suhbatdosh tomonidan uni to'g'ri tushunilishini, to'g'ri qabul qilinishini ta'minlaydi.

Kishilik faoliyatining barcha sohalarida quyidagi kommunikativ ko'nikmalar muvaffaqiyatga erishishni ta'minlaydi:

1. Muammoni hal qilish malakasiga egalik.
2. Tartiblilik.
3. Ochiqlik, samimiylik.
4. Ishontira olish qobiliyatiga egalik.
5. Liderlik².

O'qituvchining kommunikativ ko'nikmalar – o'qituvchining pedagogik maqsadga erishish yo'lida o'z fikri, his-tuyg'ulari, hissiyotlarini o'quvchilarga to'g'ri yetkaza olishini, shuningdek, o'quvchilarning fikrlari, his-tuyg'ulari, hissiyotlarini to'g'ri tushunishi, qabul qilishini ifodalovchi ko'nikmalari.

Kasbiy faoliyatni tashkil etish jarayonida o'qituvchilar quyidagi kommunikativ ko'nikmalarga egaliklarini namoyon eta olishlari lozim:

1. O'quvchilar bilan aloqani oson o'rnatish va butun jarayonda bu aloqani saqlay bilish.
2. O'quvchilarda zarur taassurot qoldirishga erishish.
3. Auditoriya bilan ishlash psixotexnikasini egallash.
4. O'z pozitsiyasini ishonch va qat'iyat bilan ifodalashga erishish.
5. O'z manfaatlari, qarashlarini muvaffaqiyatli himoya qilish.
6. Salbiy nizolarni hech bir qiyinchiliklarsiz yengib o'tish.

² Коммуниктивные умения // <http://oblasti-zhizni.ru/professionalnye-i-kommunikativnye-navyki-v-chem-razlichie>.

7. Shaxsiy harakatlari va soʻzlarining mohiyatini hamda oʻquvchilarning ularga nisbatan munosabatlarini tushuna olish.
8. Oʻquvchilarni samarali tinglay olish va faollik asosida ularga savollar berish.
9. Noverbal kommunikatsiya vositalarini oqilona foydalanish.
10. Oʻquvchilarning psixologik holatlarini tashxislay va tahlil qila bilish.
11. Oʻquvchilarning “qitmirliklari”ni oʻz vaqtida anglay olish va bartaraf etish.
12. Oʻquvchilar, hamkasblar va oila aʼzolari bilan oʻzaro ishonch va jipslikka asoslangan muhitni yaratish.

Shunday qilib, pedagogik muloqot jarayoni beshta bosqichda kechadi. Har bir oʻqituvchi bu bosqichlar mohiyatidan yaxshi xabardor boʻlishi lozim. Muloqotning bir necha turlari farqlanadi, shuningdek, u bir necha shakllarda tashkil etiladi. Qolaversa, muloqotning samarali boʻlishi uchun bir qator metodlar qoʻllaniladi. Pedagogik muloqot pedagogik taʼsirning eng muhim sifati boʻlib, uning yordamida oʻqituvchilar oʻquvchilarga oʻquv-tarbiyaviy taʼsir oʻtkaziladi.

Nazorat savollari:

1. “Muloqot – pedagogik hamkorlik vositasi” deganda nimani tushunasiz?
2. Muloqotning qanday turlari mavjud?
3. Pedagogik muloqot nima?
4. Pedagogik muloqot qanday vazifalarni bajaradi?
5. Oʻqituvchi va oʻquvchilar oʻrtasidagi muloqotning oʻziga xosligi nimada koʻrinadi?
6. Kasbiy-pedagogik muloqotda oʻqituvchi qobiliyati qanday ahamiyatga ega?

Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. Bekmirzayev N. Notiqlik sanʼati asoslari. – Toshkent: Yangi asr, 2008.
2. Mahmudov N. Oʻqituvchi nutqi madaniyati. – Toshkent: A.Navoiy nomidagi Oʻzbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.
3. Коммуникативные умения // <http://oblasti-zhizni.ru/professionalnye-i-kommunikativnye-navyki-v-chem-razlichie>.
4. Muhiddinov A.G. Oʻquv jarayonida nutq faoliyati. – Toshkent: Oʻqituvchi, 1995.
5. Osnovi pedagogicheskogo masterstva / Pod red. A.Zyuzina. – Moskva: Prosveshenie, 1989.
6. Sultonova G.A. Pedagogik mahorat / Oʻquv-uslubiy qoʻllanma. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005.
7. Tarbiyaviy ishlar metodikasi / Pedagogika institutlari uchun oʻquv qoʻllanma. L.I.Ruvinskiy tahriri ostida. – Toshkent: Oʻqituvchi, 1991.
8. Qudratov T. Nutq madaniyati asoslari / Oliy oʻquv yurtlari uchun oʻquv qoʻllanma. – Toshkent: “Oʻqituvchi”, 1993.
9. Holiqov A. Pedagogik mahorat / Oʻquv qoʻllanma. – Toshkent: “Iqtisod-moliya”, 2010.
10. Husanov B., Gʻulomov V. Muomala madaniyati / Darslik. – Toshkent: “Iqtisod-moliya”, 2009.
11. Djumaeva S. Ijtimoiy va pedagogik nizolar: ularning mohiyati va bartaraf etish yoʻllari / Metodik qoʻllanma. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2011 yil.

O'QITUVCHI FAOLIYATIDA MULOQOT MADANIYATI VA PSIXOLOGIYASI

O'quv rejasi:

1. Kasbiy-pedagogik muloqot bosqichlari.
2. Muloqot jarayonida o'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan uslublar.
3. Muloqot orqali pedagogik ta'sir etish usullari va pedagogik muloqot jarayonini boshqarish.
4. Pedagogik muloqot jarayonida yuzaga keladigan nizolar va ularning oldini olish.

Tayanch tushunchalar: kasbiy-pedagogik muloqot, pedagogik muloqot uslublari, muloqot orqali pedagogik ta'sir etish usullari, pedagogik muloqot jarayonini boshqarish, pedagogik muloqot jarayonida yuzaga keladigan nizolar va ularning oldini olish.

I. Kasbiy-pedagogik muloqot bosqichlari. Muloqot – ikki yoki undan ortiq shaxslarning o'zaro birlar-birlariga ta'sir etish shakli. Muloqotni samarali tashkil etish – ikki yoki undan ortiq shaxslarning o'zaro birlar-birlariga to'g'ri ta'sir etishlari orqali kutilgan natijaga erishilishi.

Pedagogik jarayonda muloqotni samarali tashkil etishda o'qituvchining muloqot madaniyatiga egaligi muhim ahamiyatga ega. **Muloqot madaniyati** – muloqot jarayonini axloqiy me'yorlar, ijtimoiy talablarga muvofiq tashkil etish asosida suhbatdoshni tushuna olish ehtiyoji va qobiliyatiga egalik.

Pedagog faoliyatda muloqotning turli bosqichlarida hissiy jihatdan o'zini his qilish muhim rol o'ynaydi. U faoliyatga tayyorlanish jarayonida auditoriyadagi muloqotdan so'ng uni tadbiq qilishda namoyon bo'ladi. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, kommunikativ ruxlantirishning vujudga kelishi va uni tadbiq qilish murakkab jarayondir. Bevosita muloqot jarayonida pedagogda kommunikativ ruxlanish holati yuzaga chiqadi. Tabiiyki, kommunikativ o'zini his qilish pedagogning umumiy va kommunikativ madaniyati darajasiga, eng muhimi-pedagog shaxsining kasbiy-pedagogik darajasiga, bolalar bilan ishlash xohish-istagiga bog'liq.


Psixologik ishlar yo'nalishi pedagogning ijodiylik hissi, intellektual, emotsional tomonini tashkil etadi. Pedagogning ijodiylik hissi ayniqsa adabiyot darslarida kuchli namoyon bo'ladi. Shu bilan birga pedagogning tajribasi ham muhim rol o'ynaydi. Tajribasi ortib borgani sari pedagog dastlabki materiallardan ko'ngli to'lmaydi, yangi-yangi materiallarni dars jarayonida qo'llashga harakat qiladi. Buning uchun esa ijodiylik hissi shakllangan bo'lishi lozim. Ijodiylik hissi bo'lsa, pedagog izlanadi, imkon topadi. Yozini hissiy tomondan tayyorlash pedagogda ijodiylik hissini keltirib chiqaradi.

Pedagogik faoliyat jarayonidagi muloqotning quyidagicha tavsiflash mumkin:

- 1) o'quvchi va pedagog muloqoti tizimining umumiy tuzilishi (muloqotning aniq usuli);
- 2) pedagogik faoliyatning aniq bosqichi uchun xos bo'lgan muloqot tizimi;
- 3) aniq pedagogik va kommunikativ masalalarni yechishda namoyon bo'ladigan

muloqotning vaziyatli tizimi.

Kasbiy-pedagogik muloqot beshta bosqichda tashkil etiladi. Ya'ni (13-rasm).



13-rasm. Kasbiy-pedagogik muloqotning asosiy bosqichlar

1. **Muloqot jarayonida mo'ljal olish.** Bu bosqichda pedagog muloqotining anglanganligi yuzaga chiqadi. Shuningdek, muloqot uslubini yangi kommunikativ faoliyat sharoitida aniqlash ham yuzaga chiqadi.

2. Pedagogik faoliyatning muhim jihati **e'tiborni o'ziga tortish** bo'lib, bola bilan samarali muloqotni amalga oshirish uchun dars jarayonida bolaning diqqati barqaror bo'lishi kerak.

3. **Ob'ekt e'tiborini qozonish** pedagogik muloqotni tashkillashtirishda katta ahamiyatga ega. Mohiyati jihatidan bu bosqich kommunikatsiyani o'ziga xos izlash bosqichidir. M: yangi materialni bayon etishda pedagog bolalarni muloqotga tayyorlab oladi. o'qituvchining o'quvchini tushunishi kasbiy-pedagogik muloqotning kaliti hisoblanadi.

4. **Verbal muloqot**, ya'ni o'qituvchining yangi materialni o'quvchilarga og'zaki bayon qilishidir. Pedagog uchun nutq muloqoti juda muhim. Pedagogik muloqot tizimida pedagogning so'zi obrazlar qo'zg'atuvchisi bo'lib hisoblanadi.

5. Pedagog bilan o'quvchi o'rtasidagi o'zaro harakatda hayajonlanishning uzatilishida **kommunikativ vositalardan foydalanish** muhim ahamiyatga ega. Jumladan, pedagogning nutqi jonli, ohanglarga boy, tushunarli, aniq, sodda tilda bo'lishi kerak. Shunda tinglovchilarning idroki to'liq, obrazli bo'ladi.

II. Muloqot orqali pedagogik ta'sir etish usullari va pedagogik muloqot jarayonini boshqarish. Muloqot orqali pedagogik ta'sir etish – o'qituvchi, ota-onalar va vasiylarning muloqot jarayonida o'quvchi (farzand)larga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishi. Muloqot orqali pedagogik ta'sir ko'rsatishda o'qituvchi, ota-onalar va vasiylar muayyan so'z, xatti-harakat, faoliyatning to'g'ri yoki noto'g'riligini, maqsadga muvofiq yoki maqsadga muvofiq emasligini, o'rinli yoki o'rinsiz ekanligini anglatishga muvaffaq bo'ladilar.

Pedagogik muloqotni samarali tashkil etish – o'qituvchi, ota-onalar va vasiylarning muloqot jarayonida o'quvchi (farzand)larga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishida kutilgan natijalarga erishishga qaratilgan faoliyat.

Pedagogik muloqot jarayonini boshqarish – o‘qituvchi, ota-onalar va vasiylarning o‘quvchi (farzand)larga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish, kutilgan natijaga erishish uchun muloqot jarayonida tashabbusni o‘z qo‘liga olish, muloqot mavzusi, yo‘nalishi, shakl, metod va vositalarini to‘g‘ri tanlay bilishga yo‘naltirilgan faoliyati.

Pedagogik muloqot jarayonini samarali boshqarish shakllari – o‘qituvchi, ota-onalar va vasiylarning o‘quvchi (farzand)larga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish, kutilgan natijaga erishish maqsadida muloqot jarayonida tashabbusni o‘z qo‘liga olish, muloqot mavzusi, yo‘nalishi, metod va vositalarini to‘g‘ri tanlay bilishga qaratilgan faoliyatlarining ko‘rinishlari.

Pedagogik muloqot jarayonini samarali boshqarish metodlari – o‘qituvchi, ota-onalar va vasiylarning o‘quvchi (farzand)larga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish, kutilgan natijaga erishish maqsadida muloqot jarayonida tashabbusni o‘z qo‘liga olish, muloqot mavzusi, yo‘nalishi, shakl va vositalarini to‘g‘ri tanlay bilishga qaratilgan faoliyatlarining uslublari.

IV. Pedagogik muloqot jarayonida yuzaga keladigan nizolar va ularning oldini olish. Pedagogik muloqot jarayonida yuzaga keladigan nizolar – o‘qituvchi va o‘quvchilar, ota-onalar, vasiylar va farzandlar (otaliqqa olingan farzandlar) o‘rtasidagi muloqot jarayonida yuzaga keladigan o‘zaro kelishmovchiliklar, qarama-qarshiliklar, ziddiyatlar.

Pedagogik muloqot jarayonida yuzaga keladigan salbiy nizolarning oldini olish – o‘qituvchi va o‘quvchilar, ota-onalar, vasiylar va farzandlar (otaliqqa olingan farzandlar) o‘rtasidagi muloqot jarayonida yuzaga keladigan salbiy xarakterdagi o‘zaro kelishmovchiliklar, qarama-qarshiliklar, ziddiyatlarning oldini olish, bartaraf etishga qaratilgan faoliyat yoki bu borada ko‘riladigan chora-tadbirlar.

Pedagogik muloqot jarayonida yuzaga keladigan salbiy nizolarning oldini olish yo‘llari – o‘qituvchininng mutaxassis sifatida pedagogik muloqot jarayonida salbiy nizolar yuzaga kelishining oldini olish, ularni bartaraf etish maqsadida tutiladigan amallari, amaliy harakatlari.

Pedagogik muloqot jarayonida yuzaga keladigan salbiy nizolarning oldini olishda o‘qituvchilar quyidagi shartlarga amal qilishlari lozim:

- sinfnng barcha o‘quvchilari bilan birdek munosabatda bo‘lish;
- o‘quvchilarning xulq-atvori, xatti-harakatlari hamda bilimlarini baholashga adolatli yondashish;
- ta’lim va tarbiya jarayonida hech bir o‘quvchiga alohida imtiyozlar berilishining oldini olish;
- sinfdagi barcha o‘quvchilarning ota-onalari bilan yaqin aloqada bo‘lish;
- pedagogik talabning sinfdagi barcha o‘quvchilar uchun bir xil bo‘lishiga erishish;
- sinf o‘quvchilari tomonidan pedagogik talablarning birdek bajarilishi yuzasidan adolatli nazorat o‘rnatish;
- o‘quvchilar bilan munosabatda xushmuomala bo‘lish, ularni sevish va hurmat qilish;
- o‘quvchilarning barchasi bilan birdek munosabatda bo‘lish;
- o‘quvchilarni kamsitmaslik, sha’nlarini toptamaslik, haqoratlamaslik, ularning ustilaridan kulmaslik;

- ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari bilan pedagogik axloq qoidalariga rioya qilgan holda munosabatda bo'lish;
- shaxsiy manfaatlari, obro'sini o'quvchilarning manfaatlari va obro'laridan yuqori qo'yishga intilmaslik va hokazolar³.

Nazorat savollari:

1. Kasbiy-pedagogik muloqot qanday bosqichlarda kechadi?
2. Muloqot jarayonida o'qituvchi tomonidan qanday uslublar qo'llaniladi?
3. Muloqot orqali pedagogik ta'sir etishda qanday usullar qo'llaniladi?
4. Pedagogik muloqot jarayonini boshqarishda nimalarga e'tibor qaratiladi?
4. Pedagogik muloqot jarayonida qanday nizolar yuzaga keladi?
5. Pedagogik muloqot jarayonida qanday qilib nizolarning oldini olish mumkin?

Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. Bekmirzayev N. Notiqlik san'ati asoslari. – Toshkent: Yangi asr, 2008.
2. Mahmudov N. O'qituvchi nutqi madaniyati. – Toshkent: A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.
3. Muhiddinov A.G. O'quv jarayonida nutq faoliyati. – Toshkent: O'qituvchi, 1995.
4. Osnovi pedagogicheskogo masterstva / Pod red. A.Zyuzina. – Moskva: Prosveshenie, 1989.
5. Sultonova G.A. Pedagogik mahorat / O'quv-uslubiy qo'llanma. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005.
6. Tarbiyaviy ishlar metodikasi / Pedagogika institutlari uchun o'quv qo'llanma. L.I.Ruvinskiy tahriri ostida. – Toshkent: O'qituvchi, 1991.
7. Qudratov T. Nutq madaniyati asoslari / Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma. – Toshkent: "O'qituvchi", 1993.
8. Holiqov A. Pedagogik mahorat / O'quv qo'llanma. – Toshkent: "Iqtisod-moliya", 2010.
9. Husanov B., G'ulomov V. Muomala madaniyati / Darslik. – Toshkent: "Iqtisod-moliya", 2009.
10. Djumaeva S. Ijtimoiy va pedagogik nizolar: ularning mohiyati va bartaraf etish yo'llari / Metodik qo'llanma. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2011 yil.

³ Джумаева С. Ижтимоий ва педагогик низолар: уларнинг моҳияти ва бартаф этиш йўллари / Методик қўлланма. – Тошкент: Низомий номидаги ТДПУ, 2011 йил. – 49-бет.

II BOB. MAKTAB AMALIYOTIDA O'QITUVCHI MAHORATI O'QITUVCHI VA O'QUVCHI O'RTASIDAGI MULOQOT

O'quv rejasi:

1. O'qituvchi obro'si.
2. Muloqot jarayonida o'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan uslublar.
3. O'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi muloqotining o'ziga xosligi.
4. O'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida tashkil etiladigan muloqotga qo'yiladigan talablar.

Tayanch tushunchalar: o'qituvchi obro'si, muloqot jarayonini boshqarish uslublari, avtoritar uslub, liberal uslub, demokratik uslub, muloqot turlari: do'stona muloqot, qo'rquv asosiga qurilgan muloqot, hazil-mutoyibaga asoslangan muloqot, dars, darsdan tashqari jarayon, o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi muloqot, o'quvchilar jamoasida ijodiy kayfiyatni yaratish.

I. O'qituvchi obro'si. Pedagogik muloqotda o'qituvchining obro'si muhim ahamiyatga ega. **O'qituvchi obro'si** – bu pedagogning o'quvchilar, ularning ota-onalari, pedagogik jamoa, shuningdek, jamiyat tomonidan e'tirof etilgan axloqiy maqomi. Pedagog o'zi tomonidan qozongan obro'ga tayanib, o'quvchi (talaba, tarbiyalanuvchi)larning hulq-atvorlarini boshqaradi, ularning ishonchlarini qozonadi.


Pedagogik obro' pedagogning ma'naviy-axloqiy va pedagogik-psixologik tayyorgarligini ham ifodalaydi. Pedagog ega bo'lgan obro' darajasini uning chuqur bilimi, zakovati, mahorati, o'z ishiga bo'lgan munosabati va boshqalar belgilaydi.

Yurish-turishda, muomalada, atrofdagilar – hamkasblar, o'quvchilar, ularning ota-onalari bilan samimiy muloqotda bo'lish, ijtimoiy axloq qoidalariga rioya qilish, vaziyatga bosiqlik bilan baho berish, ovoz ohangining dag'al, qo'rs bo'lmasligi, aksincha, muloyim bo'lish o'qituvchining obro'sini oshirishga xizmat qiladi. Muloqot chog'ida hissiyotga berilmaslik, aksincha, aql bilan yondashish, vaziyat to'g'risida to'la tasavvurga ega bo'lmasdan xulosa chiqarmaslik, o'quvchi yoki boshqalarni hech bir sababsiz ayblamaslik ham o'qituvchining atrofdagilar o'rtasida obro'li bo'lishiga olib keladi.

Har qanday vaziyatda ham o'qituvchi holatni har tomonlama tahlil qila olishi, aksincha, unga bir yoqlama baho berishga yo'l qo'ymasligi kerak.

II. Muloqot jarayonida o'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan uslublar. O'qituvchi (pedagog) tomonidan jamoa bilan muloqotni uyushtirish texnikasini doimiy ravishda tahlil qilib borish maqsadga muvofiqdir. Ma'lum vaziyatlarda o'qituvchi rahbar sifatida o'quvchilar, tarbiyalanuvchilar faoliyatlarini boshqaradi. Xuddi shu jarayonda ham muloqot yetakchi omil hisoblanadi.

Biroq, muloqotning samaradorligi rahbar sifatida namoyon bo'layotgan o'qituvchi tomonidan qanday uslub (muloqot uslubi)ning tanlanganligi bilan belgilanadi. Odatda, o'qituvchining rahbar sifatidagi muloqot uslublari uch turga ajratiladi. Ular (14-rasm):



14-rasm. Pedagogik muloqot uslublari

1. Avtoritar uslub. Pedagogik muloqotda o‘qituvchining mutloq ustunligini ifodalovchi uslub bo‘lib, unga ko‘ra o‘quvchilarning barcha turdagi faoliyatlarining tashkil etilishi, mazmuni, shakli, metod va vositalarining barchasi faqat o‘qituvchi tomonidan belgilanadi. O‘quvchilarning har qanday tashabbuslari rag‘batlantirilmaydi, aksincha, buyruq, ko‘rsatma, yo‘llanma berish, shuningdek, jazolash choralarini ko‘rish orqali o‘quvchilarga ta’sir etiladi. Hatto o‘quvchilarning faoliyatlari ijobiy baholangan vaqtda ham ularga bo‘lgan ta’sir turli kesatiqlar bilan bayon etiladi. Ya’ni: “Sendan ijobiy xatti-harakatni kutmagan edim?!”, “Buni qara-ya, nahotki o‘zgargan bo‘lsang!?”, “Qara-ya, birgina a’lo baho olish bilan o‘zingni yaxshi inson bo‘lib qolgan deb hisoblaysanmi!?” va hokazo mazmundagi rag‘batlar, ular asli ijobiy holatni e’tirof etishga yo‘naltirilgan bo‘lsa-da, o‘quvchini yangi yutuqlariga ilhomlantirmaydi. Aksincha, unda ta’lim olishga, ta’lim muassasasiga va pedagoglarga nisbatan sovuqqonlikni yuzaga keltiradi.

2. Demokratik uslub. Pedagogik muloqotda o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro hamkorligini ifodalovchi uslub bo‘lib, unga ko‘ra o‘qituvchi pedagogik faoliyatni tashkil etishda jamoaning fikriga tayanib ish ko‘radi. O‘quv mashg‘ulotlari va tarbiyaviy ishlarni tashkillashtirishda har bir o‘quvchining fikrini inobatga olishga, ularni umumlashtirgan holda eng samaralisini tanlab olishga intiladi. Muhokamalar chog‘ida barcha o‘quvchilarning ishtiroklari ta’minlanadi. O‘quvchilar tomonidan bildirilayotgan tashabbuslar qo‘llab-quvvatlanadi, mavjud imkoniyatlardan kelib chiqqan holda bu tashabbuslar amaliyotga tatbiq etiladi. Demokratik uslubdan foydalanayotgan pedagog, o‘qituvchi zimmasidagi vazifa faqatgina o‘quvchilarning faoliyatini nazorat qilish, tuzatishlar kiritishdan iborat emasligini anglab yetadi.

Asosiy e’tiborni o‘quvchilarning yutuqlarini e’tirof etgan holda yoki ularning xatolarini o‘zlariga anglatgan holda samarali tarbiya chorasini ko‘rishga qaratadi. Har bir o‘quvchining yutug‘i alohida e’tirof etiladiki, bu esa ularni yangi zafarlarga erishishga ruhlantiradi. Ushbu uslubga asoslanib ish ko‘radigan o‘qituvchi har bir o‘quvchining qiziqishlari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda bajariladigan ishlarni to‘g‘ri taqsimlashga harakat qiladi, faol o‘quvchilarni taqdirlab borishni faoliyatining asosiy yo‘nalishi sifatida belgilaydi. Bu kabi pedagog, o‘qituvchi o‘quvchilar bilan muloqotni o‘rnatishda iltimos, maslahatga tayanib ish ko‘radi.

3. Liberal uslub. Pedagogik muloqotda o‘qituvchining e’tiborsizligini ifodalovchi uslub bo‘lib, u o‘qituvchi va o‘quvchi munosablarining kelishuvchanlikka asoslanishini ta’minlaydigan uslub sifatida ham e’tirof etiladi. Unga ko‘ra ish yuritadigan o‘qituvchi pedagogik jarayonlarda o‘quvchilar tomonidan

sodir etilayotgan salbiy holatlarga e'tibor bermaslikka intiladi. O'quvchilarni tartibga chaqirish, shuningdek, vaziyatdan kelib chiqqan holda ularning faoliyatini to'g'ri baholab, jazolash zarur bo'lgan vaziyatlarda ham indamaslikni odat qilib oladi. Bu esa o'quvchilarning odobsiz, yalqov, mas'uliyatsiz bo'lishlariga olib keladi. Liberal uslubni ma'qul ko'radigan pedagog, o'qituvchi o'quvchilar hayoti bilan mutlaqo qiziqmaydi, ularning faoliyatlariga aralashmaydi, hal qiluvchi vaziyatlarda mas'uliyatni o'z zimmasidan soqit qiladi. Ayrim holatlarda bir-biriga zid bo'lgan fikrlarni ham birdek ma'qullaydi. Natijada bu tahlilda ish ko'radigan o'qituvchi hech qanday obro'ga ega bo'lmaydi. Chunki unga ishonish mumkin emas.

III. O'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida tashkil etiladigan muloqotining o'ziga xosligi. Pedagogik muloqot – pedagogik ta'sirning eng muhim sifati, ko'rsatkichi sanaladi. Bu o'qituvchi va o'quvchining ta'lim-tarbiya jarayonidagi kasbiy muloqoti bo'lib, unda ma'lumot almashinadi va o'quvchilarga o'quv-tarbiyaviy ta'sir o'tkaziladi. Bunda ikki yoqlama muloqot yuzaga kelishi lozim. Uning asosi sifatida o'zaro hurmat va ishonch xizmat qiladi. Pedagog o'quvchilar bilan muloqotga kirishish jarayonida ulardan hurmat kutadi. o'quvchilar ham o'qituvchidan hurmat va ishonchni talab etadi. Bu pedagogik ta'sirning samarali yo'li bo'lib, tajribali pedagoglar bolani o'z-o'zini hurmatlashga asoslangan holda munosabatlarni tashkil etadi va shu orqali o'zaro munosabatlarni amalga oshiradi.

O'quvchilar bilan muomala qilish pedagogning o'z tarbiyalanuvchilari bilan muloqot olib borish mahoratini taqozo etadi. Biz uchun esa so'zlashishni bilish lozim. So'zlashishni, muloqot olib borishni doimo o'rganib borishi lozim. U darsni samarali olib borishni, so'zlashishni bilishi, suhbat, ma'ruza, hikoya qilish kabi usullaridan foydalanishi, umuman butun ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilar bilan muloqotni yo'lga qo'ya olishi lozim.

O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqot bo'lishi uchun o'qituvchi yetarli darajada qobiliyatga ega bo'lishi kerak. Shu sababli u o'z-o'ziga doimo quyidagi savollarni berishi va unga javob berishga harakat qilishi kerak:

1. Nimaga o'rgatish?
2. Kimni o'rgatish?
3. Qanday o'rgatish?

Nimaga o'rgatish: a) ilm-fandagi yangiliklarni anglash, yangi fan terminlarini tushunish, o'quv predmetini to'liq o'zlashtirish; b) malaka, ko'nikma va qobiliyatni shakllantirish; v) o'quv predmetlari o'rtasidagi bolliqlikni amalga oshirish; g) o'quv mazmunini tushunarli tizim asosida ko'rish.

Kimni o'rgatish: a) o'quvchilarning ba'zi psixik xususiyatlarini (eslab qolish, nutq, fikrlash) hamda ularni qay darajada o'qimishli, tarbiyali ekanliklarini aniqlash; b) o'quvchilarning bir darajadan ikkinchisiga o'tishidagi qiyinchiliklarni oldindan aniqlash; v) o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etishda bolalariig dalillari, fikrlarini hisobga olish; g) o'quvchilardagi turli psixik o'zgarishlar va rivojlanishni hisobga olib o'z pedagogik me'natini tashkil etish; d) iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash, yakka holdagi ishni tashkil etish.

Qanday o'rgatish: a) ish jarayonida ishlatiladigan kuch va ketadigan vaqtni hisobga olgan holda o'qitish va tarbiyalashning turli usullari majmuini ishlatish.

IV. O'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi muloqotga qo'yiladigan talablar.

Muloqotning samarali kechishi uni tashkil etish jarayonida muayyan talablarga rioya qilish sanaladi. U qanday doirada tashkil etilmasin, xoh rasmiy, xoh norasmiy bo'lsin, ma'lum talablarga rioya qilingandan samarali, foydali, muvaffaqiyatli kechadi. Shunga ko'ra, tabiiyki, o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida muloqotni tashkil etishga ham aniq talablar qo'yiladi. Ular qo'yidagilardan iborat:

1. Muloqot aniq maqsad asosida tashkil etilishi va samimiy, do'stona bo'lishi zarur.

2. O'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi muloqot mavzusi, yo'nalishi vaziyatdan kelib chiqib tanlanishi kerak.

3. Keskin tanqid, ortiqcha pand-nasihatlardan holi bo'lgan muloqot samarali bo'ladi.

4. Muloqot jarayonida tanqid qilish zarur bo'lsa, u holda o'quvchining shaxsi emas, balki u yo'l qo'ygan xato-kamchilik, belgilangan tartib-qoidaga mos bo'lmagan xatti-harakat to'g'risida so'z yuritilishi zarur.

5. O'qituvchi o'quvchi bilan muloqotda uning shaxsini kamsitishi, haqoratlashi mumkin emas.

6. Muloqot jarayonida o'qituvchi o'quvchining o'z tengdoshlari davrasida keskin tanqid qilmasligi zarur, agar bunga zaruriyat bo'lsa, u holda o'quvchi bilan holi gaplashib olish maqsadga muvofiqdir.

7. O'qituvchi o'quvchini boshqalar bilan solishtirmasligi, boshqalarni unga ibrat qilib ko'rsatmasligi, aksincha, o'z xatolari ustida o'ylab ko'rishga undashi lozim.

8. Muloqot jarayonida o'qituvchi ko'proq o'quvchi yoki o'quvchilarga so'zlash uchun imkon berishi lozim, zero, shunda vaziyat to'g'risida to'la ma'lumotga ega bo'ladi.

9. Pedagogik muloqot jarayonida adabiy til me'yorlaridan foydalanish talab etilib, sheva (ma'lum hududlarda qo'llaniladigan so'zlar), jargon (tor doirada ma'lum kasb-hunar doirasida qo'llaniladigan so'zlar), vulgarizm (haqoratlash, koyishda ishlatiladigan so'zlar), kantselyarizm (ish hujjatlarida qo'llaniladigan so'zlar) va varvarizm (turli tillarning "qorishmasi"dan hosil bo'lgan so'zlar)ni ishlatish taqiqlanadi.

10. Muloqotda mavzu doirasidan chiqmaslik, boshqa mavzularga chalg'imaslik o'qituvchiga maqsadga erishishga yordam bersa, o'quvchi uchun amaliy ahamiyatga ega bo'ladi.

Shunday qilib, pedagogik faoliyatda o'qituvchining obro'si ta'lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etishda muhim ahamiyatga ega. O'qituvchining o'quvchilar, hamkasblari, ota-onalar bilan munosabatni to'g'ri tashkil eta olishi, ular bilan suhbat chog'ida muomala madaniyatiga ega ekanligini namoyon qila bilishi obro'sining oshirishini ta'minlaydi. Muloqot jarayonida o'qituvchi tomonidan uch turdagi uslub qo'llaniladi. O'qituvchi vaziyatdan kelib chiqqan holda har uch uslubdan samarali, maqsadli foydalana olishi zarur. O'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi muloqotining o'ziga xosligi uning pedagogik maqsadlarga xizmat qilishida ko'rinadi. O'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi muloqot muayyan talablarga muvofiq tashkil etilishi zarur. Bunda, eng muhimi, maqsadning aniqligi va vaziyatni oqilona, to'g'ri baholay olish sanaladi.

Nazorat savollari:

1. O'qituvchi obro'si deganda nimani tushunasiz?
2. O'qituvchi obro'ni qanday qozonadi?
2. Muloqot jarayonida o'qituvchi tomonidan qanday uslublar qo'llaniladi?
3. O'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi muloqotining o'ziga xosligi nimalarda aks etadi.
4. O'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi muloqot qanday talablar asosida tashkil etiladi?

Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. Bekmirzayev N. Notiqlik san'ati asoslari. – Toshkent: Yangi asr, 2008.
2. Mahmudov N. O'qituvchi nutqi madaniyati. – Toshkent: A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.
3. Muhiddinov A.G. O'quv jarayonida nutq faoliyati. – Toshkent: O'qituvchi, 1995.
4. Osnovi pedagogicheskogo masterstva / Pod red. A.Zyuzina. – Moskva: Prosveshenie, 1989.
5. Sultonova G.A. Pedagogik mahorat / O'quv-uslubiy qo'llanma. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005.
6. Tarbiyaviy ishlar metodikasi / Pedagogika institutlari uchun o'quv qo'llanma. L.I.Ruvinskiy tahriri ostida. – Toshkent: O'qituvchi, 1991.
7. Qudratov T. Nutq madaniyati asoslari / Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma. – Toshkent: "O'qituvchi", 1993.
8. Holiqov A. Pedagogik mahorat / O'quv qo'llanma. – Toshkent: "Iqtisod-moliya", 2010.
9. Husanov B., G'ulomov V. Muomala madaniyati / Darslik. – Toshkent: "Iqtisod-moliya", 2009.
10. Djumaeva S. Ijtimoiy va pedagogik nizolar: ularning mohiyati va bartaraf etish yo'llari / Metodik qo'llanma. – Toshkent: TDPU, 2011 yil.

PEDAGOGIK NAZOKAT VA ODOB-AXLOQ

O'quv rejasi:

1. "Pedagogik odob va pedagogik nazokat.
2. O'qituvchining dars jarayonidagi nazokati.
3. Pedagogik nazokat va taktika.
4. Pedagogik jarayondagi yoqtirish (simpatiya), yoqtirmaslik (antipatiya) va hamdardlik (empatiya).
5. Pedagogik jarayonning turli bosqichlarida o'qituvchi odobi va nazokatining namoyon bo'lishi.

Tayanch tushuncha va iboralar:

Pedagogik odob, pedagogik odobga qo'yiladigan talablar, pedagogik odobning asosiy shakllari, kasbiy-pedagogik burch, adolat, pedagogik majburiyat, pedagogik obro', takt (dahldorlik), pedagogik takt, pedagogik takt (nazokat)ning tarkibiy elementlari, pedagogik nazokat yordamida hal etiladigan vazifalar, pedagogik taktika, yoqtirish (simpatiya), yoqtirmaslik (antipatiya), hamdardlik (empatiya), pedagogik

hamdardlik (pedagogik empatiya), o'qituvchining muloqot odobi, o'qituvchi va o'quvchining o'zaro hamfikrliligi, o'qituvchi va o'quvchining o'zaro hamkorligi, o'qituvchi va o'quvchi munosabatidagi qiyinchiliklar, o'qituvchi va o'quvchi munosabatidagi qiyinchiliklarni bartaraf etish yo'llari, bo'lajak o'qituvchilarda pedagog odob va nazokat sifatlarini shakllantirish.

I. Pedagogik nazokat va pedagogik odob-axloq. Takt (nazokat, dahldorlik)

– bu axloqiy hulq-atvor, xatti-harakat bo'lib, o'zida barcha ob'ektiv harakatlarning oqibati va ularning shaxs tomonidan sub'ektiv qabul qilishni avvaldan ko'ra olish, belgilangan maqsadga osonroq erishish yo'llarini izlashning namoyon bo'lishini ifodalaydi.


Pedagogik takt (pedagogik nazokat) – pedagogning o'quvchilar bilan turli faoliyat shakllari bo'yicha tashkil etiladigan muloqotda mavjud axloqiy tamoyillar hamda hulq-atvor qoidalarga rioya qilishi, ularga to'g'ri yondashish malakalariga egaligi. Mahoratli pedagog faoliyatida pedagogik takt ham o'ziga xos o'rin tutadi va o'qituvchi faoliyatiga g'oyaviy va amaliy jihatdan bir-biriga mos keladigan pedagogik axloqning bevosita tatbiq etishning shakli sifatida namoyon bo'ladi. Shunga ko'ra pedagogik takt o'z mohiyatiga ko'ra ijodiy izlanishni talab etadigan amaliy harakatdir. O'qituvchining pedagogik taktga egaligi uning yurish-turishida, vazminligida, o'zini tuta bilishida namoyon bo'ladi, Shuningdek, u o'quvchiga ishonch bilan qarashni nazarda tutadi. O'quvchiga ishonchsizlik bilan qarash o'qituvchining pedagogik taktga ega emasligini ifodalaydi. Har qanday pedagogik nizo yoki ziddiyatlarning asosida o'qituvchining pedagogik taktga ega emasligi yotadi. Har qanday qo'pollik, kesatiq va koyishlar, o'quvchilarni doimiy ravishda tanqid qilish, ularga ishonchsizlik bildirish pedagogik nizolarni keltirib chiqaradi. Pedagogik takt, shuningdek, o'qituvchining o'quvchi javobini diqqat bilan tinglashida, javobning mazmuniga alohida e'tibor qaratishida, bordi-yu, o'quvchi xatoga yo'l qo'yadigan bo'lsa, uni bosiqlik, vazminlik bilan to'g'rilashda, o'quvchi faoliyatini haqqoniy, oqilona baholashda, qo'yilgan bahoning mohiyatini izohlashda namoyon bo'ladi. Bu jarayonda javob berayotgan o'quvchiga jilmayish, turli imo-ishoralar, qo'l harakatlari bilan, boshni qimirlatish, yuz ifodalari orqali uning javoblarini ma'qullab turish pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Pedagogik odob – bu pedagog (o'qituvchi) oldiga uning o'ziga, kasbiga, jamiyatga, bolalarga va o'quv-tarbiya jarayonining boshqa ishtirokchilariga munosabatda bo'lishiga nisbatan qo'yiladigan axloqiy talablar tizimi. Pedagog faoliyatida uning odobi ham yaqqol aks etadi. Qolaversa, pedagogik odob ta'lim va tarbiya jarayonlari muvaffaqiyatini ta'minlovchi muhim talab hamda omillardan biri sanaladi.

Pedagogik odobga qo'yiladigan talablar – pedagog (o'qituvchi) tomonidan tashkil etiladigan pedagogik mehnat, faoliyat jarayonida bajarilishi shart bo'lgan vazifalar. Pedagog odob talablarining tizimi pedagog (o'qituvchi) tomonidan kasbiy burchni ado etish, jamiyat, pedagogik jamoa va o'quvchi (talaba, tarbiyalanuvchi) oldidagi axloqiy majburiyatlarini bajarishida o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Pedagogik odob pedagogik axloq va pedagogik jarayonda namoyon bo'ladigan

axloqiy qadriyatlar kabi asosiy kategoriyalarning mohiyatini yoritishda yetakchi o‘rin tutadi. Pedagog faoliyatida ham barcha umuminsoniy va milliy axloqiy qadriyatlar yetakchi o‘rin tutadi. Shunday bo‘lsa-da, pedagogik odob sirasida pedagogik qarashlarni, pedagogik faoliyat va munosabatni ifodalovchi muhim kategoriyalar asosiy o‘rinni egallaydi.

Pedagogik odobning asosiy shakllari quyidagilardir (15-rasm):



15-rasm. Pedagogik odobning asosiy shakllari

1. Kasbiy-pedagogik burch. Pedagog ham o‘z faoliyatida yuqorida ko‘rsatilgan qadriyatlarni ulug‘lay olishi, ularga tayangan holda faoliyatni tashkil etishi lozim. Shuningdek, har bir pedagog kasbiy-pedagogik burchini to‘la anglay olishi, uni ado etish yo‘lida amaliy harakatlarni tashkil eta bilishi zarur. Pedagog tomonidan jamiyat, uning a‘zolari, pedagogik va o‘quvchilar jamoasi oldida qanday vazifalarni bajarishi zarurligini, kasbiy-pedagogik burchni bajarishda qanday tamoyillarga tayanishni aniq belgilab olinishi ham shaxs, ham mutaxassis va fuqaro sifatida o‘z mavqeini mustaqil belgilash imkoniyatini yaratadi. Agarda u o‘z kasbiy faoliyatini mavjud axloqiy tamoyillarga muvofiq tashkil eta olsa, u holda o‘z-o‘ziga bo‘lgan hurmati ortadi, o‘z kuchiga ishonch paydo bo‘ladi. Bu esa pedagogni yangidan yangi yutuqlarni qo‘lga kiritishga rag‘batlantiradi. Agarda bordi-yu, pedagog kasbiy-pedagogik burchini anglasa-da, biroq, uni mavjud axloqiy talablarga muvofiq tashkil eta olmasa, u holda, eng avvalo, o‘ziga bo‘lgan hurmatni yo‘qotadi, o‘zini shaxs sifatida yuqori baholay olmaydi.

2. Pedagogik adolat – muayyan voqea-hodisa, jarayon hamda shaxs xatti-harakatlarini ularning tub mohiyatiga ko‘ra haqqoniy baholash bo‘lib, u tarixiy shart-sharoit va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar bilan belgilanadi. Adolatning axloqiy jihati insonlararo muomalada bir xil munosabatda bo‘lishni, bir-birining izzat-nafsiga tegmaslikni, axloq-odob qoidalariga rioya qilishlikni bildiradi”⁴. Qolaversa, adolat insoniy qadr-qimmat bilan uning jamiyat tomonidan tan olinganligi, mavjud axloqiy qoida va majburiyatlar o‘rtasidagi o‘zaro mutanosiblikni tavsiflashga xizmat qiladi.

3. Pedagogik majburiyat – jamiyat tomonidan o‘qituvchi shaxsiga, u tomonidan bir qator pedagogik majburiyatlarning bajarilishiga nisbatan qo‘yiladigan talab va axloqiy yo‘l-qo‘riy, ko‘rsatmalar majmuasi. Pedagog kasbiy faoliyatni tashkil etishda quyidagi majburiyatlarni bajara olishi zarur: muayyan mehnat

⁴ Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 1-том. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2000. – 134-бет.

vazifalarini, asosan, aqliy mehnat vazifalarini amalga oshirish; o'quvchilar, ularning ota-onalari, hamkasblar bilan o'zaro munosabatni to'g'ri tashkil etish; tanlagan kasbiga, o'quvchilar va pedagogik jamoaga hamda jamiyatga bo'lgan shaxsiy munosabatini chuqur anglash. Pedagogik majburiyatlar sirasida, yana shuningdek, kasbiy faoliyatni tashkil etishga ijodiy munosabatda bo'lish, o'ziga nisbatan talabchanlik, kasbiy bilimlarini boyitib va pedagogik malakasini oshirishga intilish, o'quvchilar va ularning ota-onalari bilan o'zaro hurmatga asoslangan va talabchan munosabatni o'rnatish, murakkab pedagogik nizolarni ijobiy hal qilish ko'nikmalarini o'zlashtirish kabilarni ham ko'rsatish zurur.

4. Pedagogik obro' – bu pedagogning o'quvchilar, ularning ota-onalari, pedagogik jamoa, shuningdek, jamiyat tomonidan e'tirof etilgan axloqiy maqomi. Pedagog o'zi tomonidan qozongan obro'ga tayanib, o'quvchi (talaba, tarbiyalanuvchi)larning hulq-atvorlarini boshqaradi, ularning ishonchlarini qozonadi. Pedagogik obro' pedagogning ma'naviy-axloqiy va pedagogik-psixologik tayyorgarligini ham ifodalaydi. Pedagog ega bo'lgan obro' darajasini uning chuqur bilimi, zakovati, mahorati, o'z ishiga bo'lgan munosabati va boshqalar belgilaydi.

II. Pedagogik nazokat va taktika. Pedagogik takt (nazokat)ning tarkibiy elementlari – pedagogik takt (nazokat) negizida aks etuvchi sifatlar. Bularga quyidagilar kiradi: 1) shaxsga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lish; 2) yuksak talabchanlik; 3) suhbatdoshni qiziqish bilan tinglay olish va unga nisbatan qayg'urish malakasi; 4) ruhiy barqarorlik, dadillik va og'ir vazminlik; 5) munosabatlar jarayonida ishonch bilan so'zlay olish; 6) qat'iyatlilik (qaysarlik emas); 7) o'quvchilarga nisbatan e'tiborli va xushyor bo'lish⁵.

Pedagogik nazokat yordamida hal etiladigan vazifalar – pedagogik nazokat o'qituvchining o'quvchilar, ota-onalar, vasiylar va hamkasblar bilan bo'ladigan muloqotida salbiy holatlar kelib chiqishining oldini olish, muayyan yutuqlarga erishish yo'lida hal qilinadigan maqsadli ishlar. Pedagogik nazokat yordamida quyidagilar hal qilinadi: o'quvchilar, ota-onalar, vasiylar va hamkasblar bilan bo'ladigan muloqot samarali tashkil etiladi; muloqot jarayonida turli nizolar kelib chiqishining oldi olinadi; muloqot ishtirokchilari o'rtasida o'zaro hamjihatlik, hamkorlik qaror topadi; maqsadlar birligiga erishiladi.

Pedagogik taktika – o'qituvchining o'quvchilar, ota-onalar, vasiylar va hamkasblar bilan bo'ladigan pedagogik munosabatlari jarayonida ko'zlangan maqsadga erishish uchun olib boriladigan kurashning muayyan sharoitga mos yo'l, shakl, metod va vositalari.

III. Pedagogik jarayondagi yoqtirish (simpatiya), yoqtirmaslik (antipatiya) va hamdardlik (empatiya). Yoqtirish (simpatiya), yoqtirmaslik (antipatiya) va hamdardlik (empatiya) har qanday sohada tegishli kasb egalari tomonidan tashkil etiladigan muloqotlarda yaqqol ko'zga tashlanadigan jihatlardan biridir. Ular muloqot jarayonining umumiy kechishi va yakuniga bevosita ta'sir etadi.

Yoqtirish (simpatiya; yunoncha sympatheia – mayl, havas, ichki qiziqish) – bir shaxsning ikkinchi shaxsga, muayyan sub'ektlar guruhiga yoki qandaydir ijtimoiy

⁵ Педагогический такт // http://imp.rudn.ru/psychology/pedagogical_psychology/13.html.

hodisaga nisbatan ijobiy hissiy munosabati. Yoqtirish hamisha xayrixohlik, xushmuomalalilik, zavqlanishni ifodalaydi, shaxsni muloqotga, e'tibor ko'rsatishga va ko'mak berishga undaydi⁶.

Yoqtirmaslik (antipatiya; yunoncha antipatheia – yoqtirmaslik, xush ko'rmaslik) – bir shaxsning ikkinchi shaxsga, muayyan sub'ektlar guruhiga yoki qandaydir ijtimoiy hodisaga nisbatan salbiy hissiy munosabati. Yoqtirmaslik gina-kuduratni, kek-adovatni, ichiqoralikni, baxillikni, nafratni ifodalaydi, shaxsni muloqotdan qochishga, atrofdagilarga nisbatan yomonlik qilishga, hech bo'lmaganda ularning ko'nglini og'ritishga undaydi.

Hamdardlik (empatiya; yunoncha empatheia – hamdardlik, qayg'udosh bo'lish) – bir shaxs tomonidan ikkinchi shaxsning fikrlari, xohish-istaklari, qiziqishlari, intilishlarining his etilishi, tushunilishi, qabul qilinishini ifodalovchi munosabati. Hamdardlik ham tuyg'ulari qabul qilinayotgan shaxsga nisbatan yordam ko'rsatishga intilishni ifodalaydi, shaxslarni bir-biriga yaqinlashtiradi, ular o'rtasida do'stlik, o'zaro hamkorlik va birlikni qaror toptiradi.

Pedagogik hamdardlik (pedagogik empatiya) – pedagog tomonidan ta'lim jarayoni ishtirokchilari: o'quvchilar, talabalar, tarbiyalanuvchilar, ota-onalar va hamkasblarining xatti-harakatlari, hissiyotlari, hayotiy intilishlari, tabiatlarini tushunish, boshqalar nuqtai nazarini ma'qullash asosida jamoadagi munosabatlarni me'yorda tashkil etilishini ta'minlash; o'zgalarning ichki holatini, o'y-fikrlarini va his-tuyg'ularini tushuna olish; boshqalarning boshiga tushgan kulfat, falokatlardan qayg'urish; rollarni qabul qilish – og'ir vaziyatda bo'lgan kishilarning o'rniga o'zini tasavvur, mushohada yordamida qo'yib ko'rgan holda ulardagi ijobiy his-tuyg'ularini qayta tiklashga ko'maklashish; o'zgalarning qayg'u-alamlaridan, kulfatlaridan qayg'urish, ko'ngilni ko'taruvchi, taskin beruvchi so'zlar bilan og'ir vaziyatda qolgan kimsalarga ijobiy ta'sir ko'rsatish bo'lib, bunda pedagog o'quvchi shaxsi, uning istaklarini tushunish va shu orqali o'quvchilarga samarali ta'sir etish zarurligini anglaydi.

IV. Pedagogik jarayonning turli bosqichlarida o'qituvchi odobi va nazokatining namoyon bo'lishi. O'qituvchining muloqot odobi – o'qituvchining pedagogik jarayonda o'quvchilar, ota-onalar, vasiylar va hamkasblari bilan tashkil etadigan muloqotda odob qoidalariga rioya etish darajasi.

O'qituvchi va o'quvchining o'zaro hamfikrliligi – pedagogik jarayonda o'qituvchi va o'quvchilar qarashlari, intilishlari, maqsadlarining o'zaro bir-biriga mos, muvofiq kelishi.

O'qituvchi va o'quvchining o'zaro hamkorligi – pedagogik jarayonda ko'zlangan maqsadga erishish yo'lida o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikda, manfaatlar tengligi, o'zaro hurmat asosida faoliyat olib borishlari.

O'qituvchi va o'quvchi munosabatidagi qiyinchiliklar – pedagogik jarayonda o'qituvchi va o'quvchi munosabatlarining oson, bir maromda, nizolarsiz kechmasligi.

⁶ Большая психологическая энциклопедия / Самое полное современное издание. – Москва: Эксмо, 2007. – С. 420.

O‘qituvchi va o‘quvchi munosabatidagi qiyinchiliklarni bartaraf etish yo‘llari – pedagogik jarayonda oson, bir maromda, nizolarsiz kechmaydigan o‘qituvchi va o‘quvchi munosabatlarning oldini olish, ularni bartaraf etishna qaratilgan xatti-harakat, amaliy harakat.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagog odob va nazokat sifatlarini shakllantirish – bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagog odob va nazokat to‘g‘risidagi tushunchalarni hosil qilish orqali ularda amaliy ko‘nikma va malakalarni tarkib toptirish.

Shunday qilib, kasbiy faoliyatda o‘qituvchining pedagogik odob va nazokatga ega bo‘lishi ta‘limiy-tarbiyaviy vazifalarni hal qilishda muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchining pedagogik odobi uning mavjud ijtimoiy-axoloqiy me‘yorlarga rioya qilishi bilan belgilansa, pedagogik nazokati muomala, yurish-turish, xulq-atvorda o‘zaro uyg‘unlikka erisha olishida ko‘zga tashlanadi. O‘quvchilar bilan muloqotda o‘qituvchining ularga bo‘lgan yoqtirishi (simpatiyasi) va hamdardligi (empatiyasi) pedagogik maqsadlarga erishish uchun zarur sharoitni yaratadi. Ta‘lim, tarbiyaviy ishlar jarayonini boshqarishda ham o‘qituvchining pedagogik odob va pedagogik nazokatga egaligi uning muvaffaqiyatini ta‘minlovchi omillardan biri sanaladi.

Nazorat savollari:

1. “Pedagogik odob va pedagogik nazokat.
2. O‘qituvchining dars jarayonidagi nazokati.
3. Pedagogik nazokat va taktika.
4. Pedagogik jarayondagi yoqtirish (simpatiya), yoqtirmaslik (antipatiya) va hamdardlik (empatiya).
5. Pedagogik jarayonning turli bosqichlarida o‘qituvchi odobi va nazokatining namoyon bo‘lishi.

Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. Avloniy, Abdulla. Tanlangan asarlar. – Toshkent: “Ma‘naviyat”, 2006.
2. Большая психологическая энциклопедия / Самое полное современное издание. – Москва: Эксмо, 2007.
3. Kaykovus. Qobusnoma / Nashrga tayyorlovchi S.Dolimov. – Toshkent: O‘qituvchi, 1986.
4. Muhiddinov A.G. O‘quv jarayonida nutq faoliyati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995.
5. Magdino, O. Yaxshi yashash siri / Ma‘naviy-ma‘rifiy tavsiyalar. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010.
6. Navoiy, Alisher. Mahbub ul-qulub. Asarlar. O‘n besh tomlik. 13-tom. – Toshkent: Badiiy adabiyot nashriyoti, 1966.
7. Osnovi pedagogicheskogo masterstva / Pod red. A.Zyuzina. – Moskva: Prosveshenie, 1989.
8. Sultonova G.A. Pedagogik mahorat. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005.
9. Tarbiya / Ota-onalar va murabbiylar uchun entsiklopediya. Tuzuvchi: M.N.Aminov. Mas‘ul muharrir A.Majidov. – Toshkent: “O‘bekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2010.

10. Qudratov T. Nutq madaniyati asoslari / Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma. – Toshkent: “O'qituvchi”, 1993.

11. Holiqov A. Pedagogik mahorat / O'quv qo'llanma. – Toshkent: “Iqtisod-moliya”, 2010.

12. Husanov B., G'ulomov V. Muomala madaniyati / Darslik. – Toshkent: “Iqtisod-moliya”, 2009.

13. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 1-том. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2000. – 134-бет.

14. Педагогический такт // http://imp.rudn.ru/psychology/pedagogical_psychology/13.html.

PEDAGOGIK TEXNIKA HAQIDA TUSHUNCHA PEDAGOGIK TEXNIKANI SHAKLLANTIRISH USHLBLARI

O'quv rejasi:

1. Pedagogik texnika va uning tarkibiy elementlari.
2. O'qituvchining ta'lim va tarbiya jarayonlariga ruhan tayyorlanishi va ruhiy barqarorlikka erishish shartlari.
3. Pantomimika, mimika va jestlar.
4. Nutq texnikasi.
5. Pedagogik texnika metodlari vositalari.
6. Yosh o'qituvchilarning pedagogik texnikasidagi kamchiliklar.

Tayanch tushunchalar: pedagogik texnika; imo-ishora; ma'noli qarash; istehzoli tabassum; tarbiyalanuvchi ob'ekt; aktyorlik san'ati; integratsion usullar; ilg'or va novator o'qituvchilar; ma'naviy va estetik qiyofa; mimika; pantomimika; hissiy holat; o'qituvchining anatomik-flziologik xususiyati; ijobiy tarbiyaviy ta'sir; nutq texnikasi.


I. Pedagogik texnika va uning tarkibiy elementlari. Pedagogik mahoratning muhim belgilaridan biri bo'lgan pedagogik texnika o'z navbatida o'qituvchining yuqori texnik malakalarga egaligini ham anglatadi. O'z mohiyatiga ko'ra, **pedagogik texnika** o'qituvchi tomonidan o'zlashtirilgan alohida o'quvchiga hamda ta'lim oluvchilar jamoalariga pedagogik ta'sir ko'rsatish metodlarini amalda samarali qo'llay olish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar majmuidir.

O'qituvchi tomonidan pedagogik texnika asoslarining muvaffaqiyatli o'zlashtirilishi pedagogik mahoratning muhim tarkibiy qismi bo'lib, unga erishish pedagogika, psixologik hamda amaliy tayyorgarlik bo'yicha maxsus bilimlarga ega bo'lishni talab qiladi.

O'qituvchining pedagogik texnikasi quyidagi maqsadlar uchun xizmat qiladi:

- 1) pedagogning o'z diqqati hamda o'quvchilar diqqatini maqsadli boshqarish;
- 2) pedagogik faoliyatda jarayonning, o'quvchilar harakatining sur'atini his qilish.

O'qituvchining pedagogik madaniyatga egaligi, pedagogik texnika asoslarini puxta o'zlashtira olganligi uning yuz ifodasi, erkin, vazmin harakatlari, gavdani to'g'ri tuta bilishi, yig'inchoqligi, imo-ishoraning tabiiyligi, o'quvchilarga nisbatan e'tiborida yaqqol aks etadi (16-rasm):



16-rasm. Pedagogik texnikaning asosiy turlari

Pedagogik texnikani o'zlashtirishda o'qituvchi o'quvchi hulq-atvori, xatti-harakatlarining tashqi belgilarga ko'ra uning ichki holatini belgilay olish malakasiga ega bo'lishi nihoyatda muhimdir. Ta'lim jarayonida o'qituvchi yuzini o'rinsiz, qo'pol tarzida burishtirmasligi, pala-partishlikka yo'l qo'ymasligi, imo-ishoralarning sun'iy bo'lishidan saqlanishi, ma'nosiz bo'lishiga yo'l qo'ymasligi zarur. Zero, bularning barchasi o'qituvchining o'quvchi oldida hurmat qozona olmasligiga olib keladi. Yosh o'qituvchilar pedagogning hatto sinf xonasiga, auditoriyaga qanday kirishi, o'quvchi, talabalarga nazar tashlashi, salomlashishi, stulni surishi, shaxsiy buyumlari (sumka yoki qog'oz solingan yig'majildlarni qaerga, qanday qo'yishi, xona bo'ylab yurishi, yozuv taxtasidan foydalanishdagi harakatlari. o'quvchi, talabalar bilan muloqotda o'zini qanday tutishi va boshqalar katta tarbiyaviy ta'sir kuchiga ega ekanligini yodda tutishlari zarur.

Mohiyatiga ko'ra pedagogik texnikaning samarali bo'lishida pedagogning tashqi qiyofasi ham o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Shuni ham unutmaslik lozimki, pedagogik texnikani namoyish etishda o'qituvchining umumiy madaniyati, ma'naviy va estetik dunyoqarashi muhim o'rin tutadi. Agar o'qituvchining tashqi ko'rinishi qashshoq, so'zlari, talaffuz qilish qobiliyati past, estetik jihatdan omi, bo'lar-bo'lmas voqealarga nisbatan o'z hissiyotiga erk beradigan bo'lsa, tarbiyalanuvchilarning e'tiqodiga, aql-idrokiga, bilish va anglash tafakkuriga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli o'qituvchi o'zidagi ana shu nuqsonlarni qayta tarbiyalashi lozim. Ta'kidlash joizki, pedagogik texnikaning ko'nikma va malakalarini egallash yo'llari to'g'risida bildirilgan fikrlarga e'tibor bermaslik, pedagogik faoliyat jarayonida ularning beqiyos ahamiyatiga yetarlicha baho bermaslik, shuningdek, pedagogik texnika malakalarini tanqidiy, har bir o'qituvchining individual xususiyatlarini hisobga olmay ish yuritish pedagogik mahoratni egallashga salbiy ta'sir ko'rsatadi va o'quv-tarbiyaviy jarayonda o'qituvchilarning ta'lim-tarbiyaviy faoliyatida nuqsonlarning ko'payishiga olib keladi.

O'quvchilarga samarali ta'sir ko'rsata olish uchun pedagog, o'qituvchining tashqi qiyofasi quyidagi talablarga javob bera olishi zarur: o'qituvchi tashqi ko'rinishining o'quvchilarga estetik ta'sir ko'rsatishi, ularni estetik jihatdan zavqlantira olishi; o'qituvchi sochining taralgan, chiroyli turmaklangan bo'lishi; pardoz buyumlaridan o'rinli foydalanish, yuzning ortiqcha bo'yoqlardan holi bo'lishi; o'qituvchi liboslarining toza, ozoda, qomatiga yarashgan bo'lishi, osilib turmasligi, haddan ortiq hashamatli bo'lmasligi lozim; zargarlik buyumlaridan imkon qadar holi bo'lish, ayniqsa, tovlanuvchi metallar – oltin va kumush taqinchoqlardan foydalanmaslik, libosning rangi va o'qituvchining yosh xususiyatlariga muvofiq oddiy, hashamatli bo'lmagan toshli va metall taqinchoqlardan foydalanish.

II. O'qituvchining ta'lim-tarbiya jarayonlariga ruhan tayyorlanishi va ruhiy barqarorlikka erishish shartlari. Faoliyati davomida o'qituvchi o'zini ta'lim-tarbiya jarayonlariga ruhan tayyorlay olishi muhim sanaladi. Bunda u quyidagi shartlarga e'tibor qaratishi zarur: o'ziga, o'z imkoniyatiga ishonish; xushmuomala bo'lish, kelajakka ishonch bilan qarash; o'z xatti-harakatlarini nazorat qilish (muskullar zo'riqishini bartaraf etish, qomatni rostlash, harakatlarni to'g'rilash, nutqning ravon, aniq bo'lishiga e'tibor qaratish va to'g'ri nafas olishni o'zlashtirish); aqliy va jismoniy mehnatni tashkil etishda o'zaro uyg'unlikka erishish, muayyan davrlarda hordiq chiqarish; pedagogik jarayonning samarali kechishiga o'zini o'zi ishonitirish; kasbiy faoliyatni ishtiyoq, ko'tarinki kayfiyat bilan tashkil etishga intilish; turli salbiy ruhiy omillar organizmiga, ruhiy holatiga, xatti-harakatlariga, ta'lim jarayonining ishtirokchilariga nisbatan munosabatiga ta'sir etishiga yo'l qo'ymaslik; salbiy ruhiy omillar va jismoniy holatlarni bartaraf etish uchun trening, avtotreninglardan samarali foydalanish malakasini o'zlashtirish.

III. Pantomimika, mimika va jestlar. O'qituvchining to'g'ri tutilgan, chiroyli qaddi-qomati uning shaxs sifatida namoyon bo'lishini ta'minlaydi. Qolaversa, bu holat uning o'ziga, shaxsiy imkoniyatlariga bo'lgan ishonchi yuqoriligi, shaxs sifatida o'zini qadrlay olishi, o'ziga o'zi yuqori baho berishini ham ifodalaydi. Boshning quyi egilganligi, qo'llarning osilib turishi o'qituvchining ichki zaifligi, o'ziga ishonchsizlirdan dalolat beradi.

Pantomimika – gavda, qo'l va oyoqlarning harakati bo'lib, u pedagog tomonidan bayon etilayotgan muayyan fikrni alohida ajratib ko'rsatishga, ma'lum qiyofa orqali gavlantirishga imkon beradi.

Uzluksiz talim tizimining barcha bosqichlarida ta'lim oluvchilarga gavdani to'g'ri tutishni, erkin harakatlanishni, har qanday vaziyatda ham o'zini tuta bilishni, yig'inchoqlikni o'rgatib borish maqsadga muvofiqdir. Oliy ta'lim muassasalarida talabalarda ushbu sifatlarni hosil qilish esa ularni kasbiy faoliyatga ruhiy tayyorlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Talabalarga, eng avvalo, gavdani to'g'ri tutib turish o'rgatiladi. Bunda oyoqlar yelka kengligida (ikki oyoq oralig'i 12-15 smni tashkil etishi lozim), o'ng oyoq bir oz oldinda turishi maqsadga muvofiqdir. Zero, shundagina tana og'irligi har ikki oyoqqa birdek tushishi bilan birga uzoq vaqt (deyarli 30-30, oliy ta'lim muassasalarida esa

60-70 daqiqa) toliqmay turishni ta'minlaydi. O'qituvchining harakatlari imkon qadar oddiy va erkin bo'lishi lozim.

O'zini o'zi majburlab, ayrim kamchiliklarni yo'qotish maqsadida sun'iy, zo'rma-zo'raki harakatlarni sodir etishning hojati yo'q. Harakatlar qanchalik samimiy va imkon qadar oddiy bo'lsa, o'quvchilarda o'qituvchiga bo'lgan ishonch, hurmatni shunchalik oshiradi. Gavdani oldinga-orqaga tebratmaslik, hadeb tana og'irligini bir oyoqdan ikkinchi oyoqqa o'tkazmaslik, stul suyanchig'iga yoki kafedra (oliy ta'lim muassasalarida ma'ruza o'qish uchun ajratilgan jihoz)ga butunlay suyanib olmaslik, boshni yoki quloqni qashlamaslik, burunni artmaslik, ko'zni ishqalamaslik, qo'lda biror buyumni aylantirmaslik o'quvchiga qanchalik zavq bersa, unda o'qituvchiga nisbatan xayrixohlikni uyg'otsa, ularning aksini sodir etish o'quvchining g'ashini keltiradi. Dars jarayonida o'qituvchi, shuningdek, gavdasi harakatining bosiq, ortiqcha harakatlardan holi bo'lishiga e'tibor qaratishi, ortiqcha silkinish va keskin harakatlarni sodir etishdan o'zini tuta olishi zarur.

Mimika – yuz muskullarining harakatlari orqali o'z fikri, his-tuyg'ulari, kayfiyatini, shuningdek, mavjud voqelikka nisbatan munosabatini ifodalash.

Jest (gavda, qo'l va oyoq harakatlari) – muayyan hodisa yoki ob'ektga nisbatan munosabatning qo'l va oyoq harakatlari yordamida ifodalanishi.

Insoniyat qadim-qadimdan o'zaro munosabat va muloqotlarni tashkil etishda turli jestlardan o'rinli va samarali foydalanib kelgan. Zero, jestlar insonning hissiyotlari, ichki kechinmalari va ijtimoiy borliqqa bo'lgan munosabatini so'zsiz ifodalash imkoniyatiga ega. M: o'ng qo'l chap ko'krak ustiga kaftlar yoyilgan holda qo'yilsa, bu holat "Sizga hurmatim cheksiz", o'ng qo'lning kaftlari ochiq holda ko'rsatilsa, "Jim bo'ling!", "Bas qiling!", qo'l musht qilib tugilsa, "Qoyil qildim!" yoki "Qoyil qilaman!" kabi ma'nolarni anglatadi.

Juda qadimdan inson yuz ifodasi va qarashi atrofdagilarga so'zdan ko'ra kuchli ta'sir qilishi aniqlangan. Shu sababli qadimgi Rim va Yunonistonda notiqlarning nafaqat so'zdan, shu bilan birga mimika, pantomimika va jestlar (gavda, qo'l va oyoq harakatlari)dan samarali foydalana olishlariga e'tibor qaratiladi.

Bugungi kunda ham rivojlangan mamlakatlarda siyosatchilarning yuqorida qayd etilgan harakatlar bo'yicha malakalarni o'zlashtira olishlariga jiddiy e'tibor qaratiladi. O'qituvchi tomonidan mimika, pantomimika va jestlar (gavda, qo'l va oyoq harakatlari)dan samarali foydalana olish malakalarini samarali o'zlashtira olishi uning mehnatini qisman yengillashtirish bilan birga, o'quvchilarga ta'sir ko'rsatishida muayyan muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritishiga imkoniyat yaratadi.

Mimika, pantomimika va jestlar uzatilayotgan axborotning hissiy ahamiyatini oshiradi, uning puxtaroq o'zlashtirilishini ta'minlaydi. Ko'zlar ham yuz ifodasini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Shu sababli ko'zlar yordamida turli ma'nolarni ifodalash malakalarini o'zlashtira olish ham mahoratli pedagog bo'lish uchun nihoyatda zarur.

O'quvchilar o'qituvchining kayfiyati, ruhiy holati va atrofdagilarga munosabatining qanday yo'nalishga ega bo'lishini uning yuzidan, xatti-harakatlari, jestlari, o'zini tuta bilishidan bilib oladi. Agarda o'qituvchining kayfiyati yomon bo'lsa, uni qandaydir muammolar bezovta qilsa, oldida turgan pedagogik muammolar o'ylantirayotgan bo'lsa, u bu holatlarni yashirib tura olish, oshkor qilmaslikni


uddasidan chiqishi darkor. Bu kabi salbiy holatlarni ochiq havoda piyoda sayr qilish, tabiat qo‘ynida, ayniqsa, suv havzalarining bo‘ylarida dam olish, qiziqarli kitoblarni o‘qish orqali mavjud ruhiy zo‘riqlashlarni bartaraf qilish mumkin. Yuz ifodasi va harakatlar faqatgina ta‘lim maqsadiga, ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligini oshirishga yo‘naltirilishi zarur.

O‘qituvchi yuz muskullarini va ko‘zlarini tez-tez harakatlantirishdan, ularning birday qotib qolishidan ehtiyot bo‘lishi kerak. O‘qituvchi nigohi o‘quvchilarga qaratilgan bo‘lishi, bevosita ko‘rish aloqasini vujudga keltira olishi zarur. Devor, deraza va shipga qarab turishdan saqlanishi, aksincha, barcha o‘quvchilarni diqqat markazida ushlab turish muhimdir.

IV. Pedagogik texnika metodlari va vositalari. Talaba pedagogik texnika asoslarini o‘zlashtirishda, o‘qituvchi esa kasbiy faoliyatni tashkil etishda muayyan meto va vositalardan foydalanadi. O‘qituvchining pedagogik texnikasi negizida aks etadigan metod, vositalar shu nom bilan ataladi.

Pedagogik texnika metodlari – pedagog tomonidan o‘quvchilarning u yoki bu harakatlari yoki ularda namoyon bo‘ladigan ma‘naviy-axloqiy sifatlariga o‘zining sub‘ektiv munosabat, alohida his-tuyg‘ularni ma‘noli ifodalanishini anglatuvchi metodlar.

Ma‘lumki ta‘lim va tarbiya jarayonlarida qo‘llaniladigan metodlar muayyan turlarga ajratiladi. Xudi shunday pedagogik texnika metodlari ham ikki yirik turga ajratiladi. Ular (17-rasm).



17-rasm. Pedagogik texnika metodlarining guruhlari

Yuqorida aytib o‘tilganidek, pedagogik texnika muayyan metodlar bilan birga o‘qituvchi tomonidan ayrim vositalarning qo‘llanilishi bilan ham ahamiyatlidir.

Pedagogik texnika vositalari – pedagog tomonidan o‘quvchilarning u yoki bu harakatlari yoki ularda namoyon bo‘ladigan ma’naviy-axloqiy sifatlariga nisbatan sub’ektiv munosabat, alohida his-tuyg‘ularning ma’noli ifodalanishini ta’minlovchi vositalar.

Pedagogik texnika vositalari nutq va og‘zaki bo‘lmagan muloqot sanaladi.

V. Yosh o‘qituvchilarning pedagogik texnikasidagi kamchiliklar. Pedagogik texnika malakalarini mukammal egallash uchun avvalo, o‘qituvchi o‘z fanini, o‘qitadigan predmetining boshqa fanlar bilan o‘zaro aloqadorlikda bilishi, pedagogik va axborot texnologiyalarini, pedagogika va psixologiya fanlari asoslarini davr taraqqiyoti darajasida bilishi, kasbiy jihatdan o‘z-o‘zini tarbiyalay oladigan bo‘lishi zarur.

Chunki pedagogik texnika o‘qituvchilarning individual shaxsiy xususiyatlariga ham bog‘liq. Har bir o‘qituvchi o‘z tafakkuriga, fikrlash qobiliyatiga, o‘zining kasbiy yo‘nalishi, kasbiy laboratoriyasiga ega bo‘lishi kerak. Bu yo‘nalish va laboratoriyani o‘qituvchilarning o‘zlari mustaqil fikr yuritishlari, mustaqil bilim olishlari, pedagogik mahoratini oshirib borishlari orqali qo‘lga kiritadi, mohir o‘qituvchiga xos fazilatlarni tarbiyalaydi hamda kasbiy ideal sari harakat qiladi.

Pedagogik texnika sirlarini mukammal bilish o‘qituvchining tashkiliy-metodik malakalarini egallashiga ham bog‘liq. Bu malakalar zarur bilimlar bo‘yicha ma’ruzalarni tinglash, maxsus adabiyotlar o‘qish orqali qo‘lga kiritiladi. Tashkiliy-metodik malakalar, aytilgan yo‘l-yo‘riqlar, ko‘rsatmalar o‘zining individual kasbiy tajribasida sinab, ko‘nikma hosil qilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Tashkiliy-metodik malakalarning individual xususiyatlari, jamoa va guruh bo‘lib ishlash, o‘qish. faoliyat ko‘rsatish asosida qurilgani ma’qul. Chunki guruh yoki jamoa bo‘lib o‘qish, ishlash har bir o‘qituvchiga refleksiv qobiliyatlari asosida, o‘zini boshqalar ko‘zi bilan ko‘rishni va baho berishni, faoliyatidagi nuqsonlarni seza bilishni, muomala va xulq-atvorning yangi shakllarini izlab topish va sinash imkoniyatini beradi. Bu esa o‘z-o‘zini bilish, o‘z-o‘zini tarbiyalash uchun asos bo‘ladi va pedagogik vazifalarning yangi usullarini tekshirib ko‘rish, nazariy masalalarini hal qilish uchun tajriba maydonini tashkil qilishga zamin yaratadi. Demak, tashkiliy - metodik malakalarni egallashda guruh, jamoa faoliyati, mashg‘ulotlari pedagogik texnika asoslarini egallash imkoniyatini beradi.

Pedagogik texnikani bir maromda egallashda, har bir o‘qituvchining o‘z individual dasturini ishlab chiqishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday dasturni tuzishdan oldin o‘qituvchi o‘zida pedagogik texnika malakalarini shakllanganligining boshlang‘ich darajasini aniqlab olish zarur.

Ya’ni, o‘qituvchining dastlabki o‘quv-tarbiya ishlaridagi natijalarida, nutq madaniyatining to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri qo‘yilishida, harakatidagi mimik va pantomimik holatlarda ro‘y beradigan nuqsonlar e’tirof etiladi. Bunda natija yaxshi bo‘lsa, kelajakda pedagogik texnikani egallash ancha oson bo‘ladi.

Bu faoliyat natijasida ko‘nikma va malakalar yanada rivojlantiriladi. Individual dastur pedagogik texnika malakalarining yetishmaydigan jihatlarini to‘ldirish uchun

xizmat qiladi.

Pedagogik texnika ko'nikma va malakalarini egallash individual-shaxsiy salohiyat ekanligini hisobga olib, pedagogik texnikani egallashda va uni takomillashtirishda kasbiy jihatdan o'z-o'zini tarbiyalash, ya'ni talabalik yillarida o'zida tajribali o'qituvchilarning shaxsiy fazilatlarini va kasbiy malakalarini shakllantirishga qaratilgan faoliyat yetakchi rol o'ynaydi deb aytish mumkin.

Pedagogik amaliyotda yosh o'qituvchilarning pedagogik texnikasida quyidagi juz'iy kamchiliklar uchraydi:

- 1) o'quvchi yoki uning ota-onasi bilan sidqidildan so'zlasha olmaslik;
- 2) g'azabni to'xtata olmaslik yoki uni o'z o'rnida ishlata olmaslik;
- 3) o'zida ishonchsizlikni yenga olmasligi;
- 4) nutqni ravon bayon eta olmaslik;
- 5) ortiqcha qattiqqo'llik;
- 6) xushmuomala bo'lishdan qo'rqish;
- 7) juda tez gapirish (ayniqsa darslarda);
- 8) ortiqcha harakat yoki bir joyda qotib qolish, qo'llarini qaerga qo'yishni bilmaslik;
- 9) o'z gavdasini tutishda muayyan kamchiliklarga yo'l qo'yish (bukchayib, yerga qarab yurish, o'rinsiz kulish, ortiqcha harakat, qo'lida turli jismlarni aylantirib yurish);
- 10) monoton – bir ohangda so'zlash, nutqning zerikarliligi, jonli emasligi;
- 11) ifodali o'qish, so'zlarni aniq, to'g'ri talaffuz qila olmaslik (noto'g'ri diktsiya), sinf xonasi, auditoriya uchun zarur tovush balandligini belgilay olmaslik.

Pedagogik texnikani egallashning asosiy yo'llari o'qituvchining malaka oshirish kurslarida ishtiroki, ustoz murabbiylar rahbarligidagi mashg'ulotlar (ulardan pedagogik texnika sirlarini o'rganish) va mustaqil (kasbiy jihatdan o'z-o'zini tarbiyalash) ishlashdir.

Kasbiy ideal sari intilishda bu harakat pedagogik texnikani egallashda muhim rol o'ynaydi. Tashkiliy-metodik jihatdan pedagogik texnika mashg'ulotlari individual, guruh yoki ketma-ketlikda o'tkaziladi. Masalan, zarur bilimlar ma'ruzalarda yoki tegishli adabiyotlarni mustaqil o'qish asosida, integratsion bilimlarni egallash, portal, kompyuter texnologiyalari yordamida egallanishi mumkin. Avtomatlashtirishga doir ayrim oddiy harakatlar (turli artikulyatsiya, fonatsion nafas olish usullari, relaksatsiya usullari va shu kabilar) o'qituvchi tomonidan muntazam mashg'ulotlar asosida egallanadi. Tegishli ko'nikmalarni ishlab chiqish, individual ishlashni dastlab o'qituvchining nazorati va rahbarligida, keyin esa mustaqil ishlash talab qiladi.

Pedagogik texnika malakalarini shakllantirishda o'qituvchining jamoada faoliyat olib borishi va mashg'ulotlarda o'z-o'zini nazorat qilishi alohida rol o'ynaydi. Pedagogik texnika mashg'ulotlarining bu shaklini ancha batafsilroq ochib berish maqsadga muvofiqdir, chunki u hozirga qadar o'qituvchilar uchun mo'ljallangan o'quv va metodik adabiyotlarda ma'lum darajada ko'rsatib berilmagan. Har qanday jamoada, xoh o'qituvchilar, xoh o'quvchilar jamoasi bo'lsin, o'qituvchi ular oldida o'zini boshqa kishilar ko'zi bilan ko'rishi, hulq-atvor va muomalaning yangi shakllarini izlab topishi va sinab ko'rishi, o'zining jamoa bilan birga bajaradigan ishi

xususiyatlarini anglashi lozim. Shundagina pedagogik faoliyatning individual uslublarini ongli ravishda shakllantirish imkoniyati paydo bo'ladi. Jamoa shaxsning o'z-o'zini bilishi va o'z-o'zini tarbiyalash laboratoriyasi, pedagogik vazifalarini hal qilishning yangi usullarini tekshirib ko'radigan, nazariy va amaliy masalalar, turli muammolar muhokama qilinadigan tajriba maydoni bo'lib qolishi mumkin.

Psixologlar pedagogik texnikaning keng imkoniyatlarini jamoa bo'lib o'rganishni o'qituvchilar orasida bunday jamoalarning eng qulay miqdorini 10-14 kishidan iborat etib belgilashni ta'kidlab o'tadi. Qatnashchilarning xuddi shunday miqdori ulardan har birining boshqa o'qituvchilar bilan birga faoliyat olib borishda individual psixologik muammolarini juda to'liq ravishda aniqlab hal etish, refleksiv va empatik darajasini jiddiy oshirish, kasbiy pedagogik fahm-farosatini rivojlantirish, boshqalarga ta'sir etish vositalarining kengaytirish imkoniyatlarini ochib beradi. Shu narsa muhimki, guruh qatnashchilari, bo'lajak o'qituvchilar kasbiy hamkorlik jihatidan birga ishlash malakalarini egallashga faol intilishlari o'z-o'zini bilish va kasbiy jihatdan o'z-o'zini tarbiyalash bo'yicha muvaffaqiyatli faoliyat olib borishga psixologik jihatdan tayyor bo'lishlari kerak.

Pedagog va psixolog olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarning ko'rsatishicha, o'z faoliyatini endigina boshlayotgan o'qituvchilar duch keladigan qiyinchiliklarning asosiy sababi aynan pedagogik texnikaga oid ma'lumotlarni bilmasligi oqibatida sodir bo'lmoqda.

Xulosa qilib aytganda, pedagogik texnika o'qituvchining nafaqat ta'lim-tarbiya jarayonida, balki butun kasbiy faoliyatida zarur bo'lgan umumiy pedagogik bilim va malakalari majmui sanaladi. Pedagogika OTMda talabalar tomonidan pedagogik texnika ko'nikmalarini samarali o'zlashtirish ularga kelgusida pedagogik faoliyatni metodik jihatdan to'g'ri, muvaffaqiyatli tashkil etish, turli xatolarga yo'l qo'ymaslikka erishishga yordam beradi. Binobarin, pedagogik faoliyatni nazariy va metodik jihatdan to'g'ri tashkil eta bilmaslik, o'z faoliyatini tanqidiy baholay olmaslik ta'lim jarayonija o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida muayyan ziddiyatlarning kelib chiqishini ta'minlaydi. Shunday ekan, talabalar tomonidan kasbiy tayyorgarlik jarayonida pedagogik texnika asoslarining puxta o'zlashtirilishiga e'tiborni qaratish maqsadga muvofiqdir.

Nazorat savollari:

1. Pedagogik texnika deganda nimani tushunasiz?
2. Pedagogik texnikaning tarkibiy elementlari nimadan iborat?
3. O'qituvchining o'zini o'zi hissiy boshqarishida nimalar aks etadi?
4. Pantomimika nima?
5. Mimika deganda nimani tushunasiz?
6. Jestlar nima va ular o'qituvchi faoliyatida qanday ahamiyatga ega?
7. Nutq texnikasi nima?
8. Ritmika nima?
9. Yosh o'qituvchilarning pedagogik texnikasida qanday kamchiliklar uchraydi?
10. Pedagogik texnikadagi kamchiliklarni bartaraf qilish qanday yo'llar bilan amalga oshiriladi?

Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. Bekmirzayev N. Notiqlik san'ati asoslari. – Toshkent: Yangi asr, 2008.
2. Mahmudov N. O'qituvchi nutqi madaniyati. – Toshkent: A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.
3. Muhiddinov A.G. O'quv jarayonida nutq faoliyati. – Toshkent: O'qituvchi, 1995.
4. Osnovi pedagogicheskogo masterstva / Pod red. A.Zyuzina. – Moskva: Prosveshenie, 1989.
5. Sultonova G.A. Pedagogik mahorat / O'quv-uslubiy qo'llanma. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005.
6. Tarbiyaviy ishlar metodikasi / Pedagogika institutlari uchun o'quv qo'llanma. L.I.Ruvinskiy tahriri ostida. – Toshkent: O'qituvchi, 1991.
7. Qudratov T. Nutq madaniyati asoslari / Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma. – Toshkent: "O'qituvchi", 1993.
8. Holiqov A. Pedagogik mahorat / O'quv qo'llanma. – Toshkent: "Iqtisod-moliya", 2010.
9. Husanov B., G'ulomov V. Muomala madaniyati / Darslik. – Toshkent: "Iqtisod-moliya", 2009.

NUTQ TEXNIKASI VA NOTIQLIK MADANIYATI

O'quv rejasi:

1. Nutqning inson hayoti va jamiyat taraqqiyotidagi o'rni.
2. Pedagogning ovozinig asosiy xususiyatlari.
3. Nutq organlari, nutq apparati.
4. Nutq texnikasi: nafas olish, ovozni yo'lga qo'yish, uning tozalanishi, talaffuz, nutq sur'ati.
5. Nutq madaniyati va o'qituvchining nutq mahoratini takomillashtirish yo'llari.

Tayanch tushunchalar: nutq, o'qituvchi nutqi, nutq organlari, nutq apparati, til, og'zaki nutq, nutq madaniyati, nutq texnikasi: nafas olish, ovozni yo'lga qo'yish, uning tozalanishi, talaffuz, nutq sur'ati, o'qituvchining nutq mahorati, o'qituvchining nutq mahoratini takomillashtirish yo'llari.

I. Nutqning inson hayoti va jamiyat taraqqiyotidagi o'rni. Insonning nutqiy faoliyati uch shaklda namoyon bo'ladi. Ular: so'zlash, mutolaa va eshitish.

So'zlash – so'zlovchining ma'lumot, maslahat berishi, buyurishi, o'ziga noma'lum narsalar haqida so'rashi anglashiladi. So'zlaganda so'zlovchinning bilimi, madaniyati, axloqi, odobi yuzaga chiqadi. So'zlash monologik va dialogik ko'rinishda bo'lishi mumkin. Monologik nutqda bir kishining mulohazalari qarshi savollarsiz yoki javoblarsiz yuzaga chiqadi, suhbatdosh tomonidan bo'linmaydi. Dialogik nutqda muloqot qiluvchi shaxslar navbat bilan goh tinglovchi, goh so'zlovchi bo'lib turadi.

Mutolaa o'quvchining yozma nutq orqali asar muallifi, obrazlari bilan muloqotidir. Mutolaa tufayli o'quvchi yozma nutqda aks etgan voqea-hodisalardan xabardor bo'ladi, ular ta'sirida xulqida qandaydir o'zgarish paydo bo'ladi. Mutolaa

ma'lumot olishning eng muhim yo'lidir. Kishi o'qish orqali ma'naviy yetuklikka erisha boradi. Mutolaa oddiy o'qish va ilmiy o'qish (muhim narsalarning tagiga chizib o'qish, parchalar ko'chirib olish, qisqa konspekt olish, asar ustunda mulohaza qilib o'qish) dan iborat.

Oddiy o'qiganda o'quvchi uchun yozma nutq mazmuni bilan tanishuvning o'zi maqsad qilib qo'yiladi. Ilmiy o'qishda o'quvchi asarni tahlil qilishni, undan boshqa biror maqsad uchun foydalanishni, uning mazmunini qayta bayon qilish kabilarni maqsad qilib qo'yadi.

Eshitish – boshqalarni tinglash, ularning fikrlariga munosabat bildirish sanaladi. Zamonaviy psixologiya yaxshi tinglovchi (eshituvchi) bo'lish muloqot jarayonining muvaffaqiyatini ta'minlovchi asosiy omil sanaladi.

Sharq mutafakkirlari o'z asarlarida til va nutqning ahamiyatini yoritishga alohida e'tibor qaratgan. Ayni o'rinda ularning qarashlaridan namunalar keltiriladi:

Kaykovus (1082-1083 yillar; «Qobusnoma» asar):

... Yaxshi so'zlashga o'rgan va muloyim so'zlashdan boshqa narsani odat qilma, negaki qanday so'zni gapirishni istasang, til shuni gapiradi. So'zni o'z joyida so'zla, joyida aytilmagan so'z, agar u yaxshi so'z bo'lsa ham yomon ko'rinadi.

Xalq oldida gapirganda so'zing go'zal bo'lsin, bu so'zni xalq qabul qilsin. Xaloyiq sening so'z bilan baland darajaga erishganingni bilsin, chunki kishining martabasini so'z orqali biladilar, ... kar kishining ahvoli o'z so'zi ostida yashiringan bo'ladi.

Ey farzand, so'zning yuz va orqa tomonini bilgil, ularga rioya qilgil, so'zlaganingda ma'noli gapir, bu notiqlikning alomatidir. Agar gapirgan vaqtingda so'zning qanday ma'noga ega ekanini bilmasang, qushga o'xshaysan, bunday qushnn to'ti deydilar!.

Shunday knshini notiq (suxango'y) deymizki, uning har so'zi xalqqa tushunarli bo'lsin va xalqning har so'ei unga ham ma'lum bo'lsin.

Uylamasdan so'zlama, har bir so'zni o'ylab gapir, to aytgan so'zingdan pushaymon bo'lmagaysan.

Agar so'zni va ilmni yaxshi bilsang ham, hech bir so'zni buzma, to'g'ri ta'rifla. So'zni bir xil gapir.

Yusuf Xos Hojib (XII asr; "Qutadg'u bilig" («Baxt keltiruvchi bilim» asari):

Ey fareand, agar sen har qanday notiq bo'lsang ham, o'zingni bilganlardan pastroq tutgil, toki so'z bilimdonligi vaqtida bekor bo'lib qolmagaysan. Ko'p bilu, oz so'zla, kam bilsang, ko'p so'zlama, chunki aqlsiz kishi ko'p so'zlaydi, deganlarki, jim o'tirish salomatlik sababidir. Ko'p so'zlovchi aqlli odam bo'lsa ham, xalq uni aqlsiz deydi...

So'zni ko'p so'zlama, kamroq so'zla.

Tuman (ming) so'z tugunini shu bir so'z bilan yech.

Tilning foydasi talaydir, ortiqcha hovliqma,

Goho til, maqtaladi, goho so'kiladi.

Modomiki shunday ekan, so'zni bilib so'zla,

So'zing ko'r uchun ko'z bo'lsin, (u) ko'ra bilsin.

Ahmad Yugnakiy (XII—XIII asrlar; "Hibbatul haqoyiq" asar):

Soʻzni uqib soʻela, shoshib gapirma (keraksie, yaramas) soʻzlarni yashir,
Yaramas gaping tufayli keyin boshingni yashirib yurma.]

Amir Xisrav Dehlaviy (XIV asr; “” asari):

Soʻzlaringda boʻlsa fikru oʻy yoniq,

Boʻlsin har soʻzingda bir nuqta aniq.

Nazm aytsam, aytaman taʼb oʻlchovida oʻlchabon,

Ulchanib aytilsa nuqta, boʻlmas uchov besamar.

Alisher Navoiy (1441-1501 yillar; «Mahbubul-qulub» asari):

Saodatbaxsh ruhning tiniqligi manba ham til, baxtsizliklar yulduzining boshlanishiga sabab ham til. Tiliga kuchi yetadigan (kishi) aql podshosidir; soʻzga ahamiyat bermaydigan (kishi) laʼnatlangan, past (kishi) dir. Til goʻzal va dillarni olovlantiruvchi boʻlishi bilan birga, (soʻzlovchining) dilidagini aks ettirsa, yanada yaxshiroq boʻladi.

Til muncha sharaf bila nutqning olatidir va ham nutqdurki, agar nopisand zohir boʻlsa, boshning ofatidir.

Tilning shirin, yoqimli va yumshoqligi foydadir. Chuchuk til achchiqqa aylansa, ommaga (tinglovchiga) zarar yetadi. Qandni mast qnluvchi aroq qilsalar, harom boʻladi. Chuchuk soʻzni toza koʻngnllar simiradi... Soʻzni koʻnglingda pishitib olmaguncha soʻzlama, koʻnglingda boʻlgan har qanday fikrni ham ayta berma.

... soʻzlar va saboqlardin murod maʼnidur.

Har kimsaki nutqi farovon boʻlmas,

Til ranjiga tsilmoqligi imkon boʻlmas.

(Tilni azob chekib oʻrganmagan kishining nutqi ravon boʻlmaydi).

Gulshane keldi jismi insoniy,

Nutq oning bulbuli xush ilhoni.

Boʻlmasa soʻz, ajab balo boʻlgay,

Bulbuli nutq benavo boʻlgay.

Ham soʻz ila elga oʻlimdan najot,

Ham soʻz ila topib oʻlik tan hayot.


II. Uqituvchining oʻquvchilar bilan muloqoti va nutqiy faoliyati.

Oʻqituvchining oʻquvchilar bilan muloqoti va nutqiy faoliyati, jamiyatning yangi ijtimoiy kuchlarini yetish trishda oʻqituvchi masʼul hisoblanadi. Jamiyat oʻqituvchining qoʻliga yosh avlodni, yaʼni oʻz kelajagini ishonib topshiradi. Uning kamol topishida oʻqituvchining dunyoqarashi, ongi, madaniyati, nutqi belgilovchi vositalar sanaladi. Oʻqituvchilik kasbi yuksak madaniyatlilikni, insonparvarlikni, baynalmilallikni xohlaydi. Oʻquvchilarga taʼlim va tarbiya berishda muallimning nutqi ishi bilan teng ahamiyatga ega. Zotan, oʻqituvchi mutaxassislikka oid ishining yirik boʻlagini nutqi orqali amalga oshiradi. Shuning uchun uning nutqi hamma vaqt gʻoyaviy yuksak, ravon, yumshoq, dilkash boʻlishi lozim. Nutqda va ishda subutsizlik oʻqituvchi uchun noloyiqdir. Har bir nutq bolalarning yosh xususiyatlarinn, bilimi va tushunchasini nazarda tutib tuzilishi shart. Shu bilan birga, oʻqituvchining nutqi yosh anlod koʻz oldida uni oʻrab olgan mpddiy va maʼnaviy dunyoning yangi qirralarini ochib borishni maqsad qilib qoʻyadi.

O'qituvchining nutqi ta'lim va tarbiya berishning asosidir. O'qituvchining nutqi imkoni boricha sintaktik jihatdan sodda, jozibadpr, ta'sirchan tuyulishi lozim... Pedagogik nutqiy muloqotning o'ziga xosligi o'qituvchining hamma yerda, har qanday sharoitda ham tarbiyachi ekanligi bilan xarakterlanadi. Pedagog o'z tarbiyalanuvchilari bilan ko'proq auditoriyada, darsda nutqiy muloqotda bo'ladi. Uning nutqi ilmiy-pedagogik mazmun kasb etadn. Bunday nutqda ilmning turli sohalariga xos qoidalar, atamalar, xulosalar aks etadi. Bunday nutqda har bir narsa o'z o'rnida, me'yorida bo'ladi. Atamalarga, yangi so'zlarga berilgan izohlar sodda, o'qituvchi hazm qiladigan sintaktik qurilmalarda beriladi. Qoida na nazariyalar hayotiy, o'quvchiga yaqin misollar bilan tushuntiriladi.

III. Nutq texnikasi. Pedagogning talabalarga pedagogik ta'sir ko'rsatishida uning nutqi ham hal qiluvchi omillardan biri sanaladi. **Pedagog nutqi** – pedagogning ta'lim-tarbiya jarayonida til vositalaridan foydalanishi.

Ijtimoiy munosabatlarni tashkil etishda nutqning monolog, dialog, polilog shakllaridan foydalaniladi. Pedagog faoliyatida ham nutqning aynan mana shakllaridan foydalanish holatlari kuzatiladi (18-rasm):



18-rasm. Pedagog nutqining asosiy shakllari

Pedagog sinfda og'zaki nutqning turli shakllaridan foydalanadi. Quyi sinflarda ko'proq nutqning dialog va polilog shakli samaralidir, chunki bu bosqichda ta'lim suhbat usuli asoslanadi. Monologik nutqdan pedagog hikoya, tasvir, ta'rif, tavsif xarakteridagi mavzularni bayon etishda foydalanadi. Monologik nutq yuqori sinflarda ijtimoiy, gumanitar fanlar – falsafa, siyosatshunoslik, pedagogika, psixologiya, sotsiologiya, madaniyatshunoslik, “Milliy istiqlol g'oyasi”, “Ma'naviyat asoslari”, tarix, huquq va adabiyot fanlarini o'qitishda qo'llanilsa, dialog shaklidagi nutq ona tili, chet tili, matematika, fizika, biologiya, geografiya, informatika va axborot asoslari fanlari bo'yicha tashkil etiladigan darslarida qo'l keladi. O'rganilayotgan mavzuning mohiyatidan kelib chiqqan holda pedagog har bir darsda og'zaki nutqning barcha shakllaridan o'rinli foydalanishi mumkin.

Ta'lim-tarbiya jarayonida pedagog mutaxassislikka oid ishining yirik bo'lagini nutqi orqali amalga oshiradi. Shuning uchun uning nutqi hamma vaqt g'oyaviy yuksak, ravon, yumshoq, dilkash bo'lishi lozim. Nutqda subutsizlik pedagog uchun noloyiqdir. Har bir nutq bolalarning yosh xususiyatlarini, bilimi va tushunchasini nazarda tutib tuzilishi shart. Shu bilan birga, pedagogning nutqi yosh avlod ko'z oldida uni o'rab olgan moddiy va ma'naviy dunyoning yangi qirralarini ochib

borishni maqsad qilib qo'yadi. Pedagogning nutqi ta'lim va tarbiya berishning asosidir.

Pedagogning nutqi imkoni boricha sintaktik (yunon. "syntaxis" – tuzish, biriktirish; so'z birikmalari, gap turlari va ma'nolari) jihatdan sodda, jozibador, ta'sirchan tuzilishi lozim.

Pedagogik nutqiy muloqotning o'ziga xosligi pedagogning hamma yerda, har qanday sharoitda ham tarbiyachi ekanligi bilan tavsiflanadi. Pedagog o'z tarbiyalanuvchilari bilan ko'proq auditoriyada, darsda nutqiy muloqotda bo'ladi. Uning nutqi ilmiy-pedagogik mazmun kasb etadi. Bunday nutqda ilmning turli sohalariga xos qoidalar, atamalar, xulosalar aks etadi, har bir narsa o'z o'rnida, me'yorida bo'ladi. Atamalarga, yangi so'zlarga berilgan izohlar sodda, pedagog hazm qiladigan sintaktik qurilmalarda beriladi. Qoida va nazariyalar hayotiy, talabaga yaqin misollar bilan tushuntiriladi.

Pedagog mavzular bo'yicha materiallarni talabalarga yetkazib berishda ularning xulqlariga samarali ta'sir etish maqsadida ko'z, qosh, qo'l, yuz, bosh, kaftlari yordamida muayyan harakatlarni amalga oshiradi. Uning bunday harakatlari tasdiq yoki inkorni ifodalashi mumkin. Pedagog tomonidan sodir etilayotgan harakatlar o'rinli bo'lsa ular so'zsiz pedagogik ta'sir jarayonini kuchaytiradi. Biroq, harakatlarni o'rinsiz, tez-tez sodir etish talabalarning diqqatlarini susaytiradi, ularni zeriktirib qo'yadi.

II. Pedagogning ovozining asosiy xususiyatlari. Pedagogik jarayonda pedagogning ta'sirini kuchaytiradigan omillardan biri – **uning ovozi, unga xos bo'lgan xususiyatlar** sanaladi. Pedagog ovozi yuqimli va jarangdor bo'lishi talabalar e'tiborini o'ziga to'la qarata olishini ta'minlaydi. O'z ovozida ma'lum kamchiliklar borligini sezgan pedagog ularni bartaraf etishga harakat qilishi kerak. Buning uchun ovozdan foydalanish va uni yaxshilash texnikasi ustida izchil, doimiy mashq qilib borishi talab etiladi. Binobarin, bir yoki ikki marta qilingan mashq bilan ovoz xususiyatlarini yaxshilab bo'lmaydi.

Pedagogning ovozi quyidagi xususiyatlarni aks ettira olishi zarur:

- 1) jarangdorlik (tovushning tozaligi va tembrning yorqinligi);
- 2) keng diapazonlik (ovozning eng pastlikdan eng yuqorigacha bo'lgan darajasi);
- 3) havodorlik (erkin so'zlaganda yaxshi eshituvchanlikka ega bo'lishi);
- 4) ixchamlik, harakatchanlik;
- 5) chidamlilik (uzoq ishlash qobiliyatiga ega bo'lish);
- 6) moslashuvchanlik (dinamika, tembr, ohandorlikning turli sharoitga moslasha olishi);
- 7) qarshi shovqinlarga nisbatan barqarorlik (xalaqit beruvchi shovqinga tembr va tessituraning o'zgarib turishi);
- 8) suggetsivlik (ovozning hayajon ifodalashi va u orqali mazmunidan qat'iy nazar tinglovchining xulqiga ta'sir qilish xususiyati).

Pedagogik faoliyatda pedagog tomonidan nutqni tashkil etishda ayrim jihatlarga e'tibor qaratish talab qilinadi. Ya'ni:

- 1) adabiy (sheva so'zlarining qo'llanilmasligi) me'yorlariga (kadi – qovoq, pamildori – pomidor, kelutti – kelyapti, kartishka – kartoshka va h.k. tarzida) amal

qilish;

2) talaffuz (o, a, u ,o‘, f, v, p, d, t, x, h, s, ts, j, sh) me‘yorlariga (onor – anor, uxshash – o‘xshash, palakat – falokat, Hamit – Hamid, xam – ham, sentner – tsentner, ijtimoiy – ishtimoiy kabi shakllar) rioya etish;

3) kelishik me‘yorlariga (Sobirni ukasi – Sobirning ukasi, o‘quvchini daftari – o‘quvchining daftari, poezdga keldim – poezdda keldim va b. ko‘rinishida) amal qilish.


Pedagog nutqining takomillashgan bo‘lishi o‘quv materialining talabalar tomonidan puxta o‘zlashtirilishini ta‘minlash kafolati bo‘la oladi. Odatda, talabalar pedagogning nutqiga jiddiy e‘tibor beradilar.

Biror harf yoki tovushning noto‘g‘ri talaffuz qilinishi ularning kulgilariga sabab bo‘ladi. Monoton (bir ohangli) nutq, haddan tashqari baland ovoz tinglovchini tez charchatsa, past ovozda so‘zlash esa talabalar faoliyatining sustlashuviga olib keladi. Individual suhbat paytidagi baland ovozdan talaba o‘zini aldanayotgandek his etganligi sababli unga nisbatan ishonchsizlik bilan qaraydi. Bir guruh mutaxassislar tovush va uning tembri tug‘ma xususiyat deya e‘tirof etishadi. Lekin hozirgi eksperimental fiziologiya tovush sifatini o‘zgartirish mumkinligini tasdiqlaydi. Shu bois har bir pedagog nutq texnikasini puxta o‘zlashtira olishi kerak.

III. Nutq organlari, nutq apparati. Pedagog nutqi ham nutq tovushlarini hosil qiladigan nutq organlarining ishtirokida tashkil etiladi. Nutq ko‘plab organlar ishtiroki, ularning imkoniyati bilan hosil qilinadi.

Nutq hosil qiluvchi organlar – nutqni hosil qilish jarayonida ishtirok etuvchi organlar.

Nutqni hosil qilishda ishtirok etuvchi organlar umumiy holda **nutq apparati** deb yuritiladi. Nutq apparati (yoki nutq hosil qiluvchi organlar) quyidagilar hisoblanadi (19-rasm):



19-rasm. Nutq hosil qiluvchi organlar

IV. Nutq texnikasi: nafas olish, ovozni yo‘lga qo‘yish, uning tozalanishi, talaffuz, nutq sur‘ati. Bugungi kunda nutq texnikasi bo‘yicha bir qancha majmuaviy mashqlar asoslangan. Ular so‘zlashish paytida to‘g‘ri nafas olish, tovush hosil qilish, nutqni ma‘noli ifodalash malakalarini takomillashtirishga yordam beradi.

Nutq texnikasi – nutqni tinglovchi yoki o‘quvchiga etkazishda qo‘llaniladigan vositalar majmui.


Pedagogni nutqining hosil bo‘lishida nafas olish, nutqli nafas olish juda muhim. Nafas olish organizmga hayot bag‘ishlovchi fiziologik funktsiyani bajarish bilan

birga nutqning energiya bazasi ham hisoblanadi.

Nutqli (yoki tovushli) nafas olish (fonatsion, yun. “phono” – tovush) – nafasning nutq jarayonidagi olinishi.

Insonning kundalik hayotidagi nutq asosan dialog shaklida bo‘ladi. Shuning uchun ham nafas olish ortiqcha qiyinchilik tug‘dirmaydi. Kasbiy faoliyatda, ayniqsa, dars jarayonida pedagog uzoq so‘zlaydi. Bu esa yangi mavzuni tushuntirish, ma’ruza o‘qish bilan bog‘liq. Agar pedagog nafas olish texnikasini yaxshi egallamagan bo‘lsa, unda pedagogik faoliyat jarayonida uzoq so‘zlash oqibatida tomir urishining tezlashuvi, yuzning qizarib ketishi, nafas qisilishi ro‘y beradi.

Nafas olish texnikasi bir necha turga ajratiladi. Ular (20-rasm):



20-rasm. Nafas olish texnikasining asosiy turlari

Nutqning hosil bo‘lishida tovushlar ham muhim o‘rin tutadi.

Tovush – chiqarilgan havoni xiqildoqdan o‘tish paytida ovoz pardalarning tebranishi natijasida vujudga keladigan hodisa, sado, sas.

Tovush bir qator xususiyatlarni namoyon etadi. Ular quyidagilar (5-rasm):

Tovush kuchi – tovush apparati organlarining faol ishlashiga bog‘liq bo‘lib, chiqarilayotgan havo oqimining tovush tirqishiga bo‘lgan bosimi qanchalik katta bo‘lsa, tovush ham shuncha kuchli bo‘ladi.

Tovush pardozi – tovushning uzoq masofaga uzatilishi va qattiqligining ta’minlanganligini bildiradi.

Tovush ixchamligi va harakatchanligi – uning mazmuniga, tinglovchilarga moslab o‘zgartirilishini anglatadi.

Diapazon – tovush hajmi bo‘lib, uning chegarasi eng yuqori va quyi ohanglar bilan belgilanadi. Diapazonning qisqarishi nutqni bir ohangli (zerikarli) bo‘lib qolishiga sabab bo‘ladi. Bir ohangda gapirish axborotni idrok qilishni susaytiradi, uyquni keltiradi.

Tembr – tovush rangdorligi, yorqinligi, yumshoqligi va alohidaligini ifodalashga xizmat qiladi.

Pedagog nutqini tashkil etishda d i k t s i ya ham alohida o‘rin tutadi.


Diktsiya so‘zlarning aniq talaffuz qilinishidir.

Talaffuzning aniqligi pedagog nutqining tushunarli bo‘lishiga yordam beradi,

shuningdek, talabalar tomonidan tushunilishini ta'minlaydi. Talaffuz qanchalik aniq bo'lsa, aytilayotgan so'z, ifodalanayotgan bo'g'in va tovushlar shunchalik tiniq, yorqin ifodalanadi. Tovush nutq apparatining barcha a'zolari (lablar, jag', tishlar, yumshoq va qattiq tanglay, kichik til, kekirdak, tomoq orqa devori, tovush naychalari)ning birgalikda unumli ishlashiga bog'liq. Til, lablar, yumshoq tanglay, kichik til, va pastki jag' nutqda faol ishtirok etadi. Shu sababli ularni doimiy mashq qildirish turish muhim ahamiyatga ega.

Artikulyatsiya (lot. articulation < articulare – aniq talaffuz qilmoq) nutq organ (a'zo)larining tovush hosil qilishdagi harakatlari holati.

Tovushning aniq talaffuz qilinishini takomillashtirish artikulyatsiya gimnastikasi asosida amalga oshiriladi (21-rasm):



21-rasm. Artikulyatsiya gimnastikasi mashqlarining turlari

Pedagog nutqining tashkil etilishida ritmika muhim o'rin egallaydi.

Ritmika – ayrim so'z va bo'g'inlarning aytilish muddati va to'xtalishi, nutq va ifodalarning navbat bilan ifodalanishi.

Ritm (nutqning vazni) – nutqning hissiy holatini ifodalovchi muhim xususiyati.

V. Nutq madaniyati va o'qituvchining nutq mahoratini takomillashtirish yo'llari. Nutq madaniyati haqidagi ta'limot qadimgi Rim, Afinada shakllangan bo'lsa ham, unga qadar Misrda, Assuriyada, Vavilon, Hindiston kabi mamlakatlarda paydo bo'lganligi notiqlik san'ati tajribasidan ma'lum. Ushbu davrlarda jamiyatning rivojlanishi, savdo-sotiqning, sud ishlarining nihoyatda taraqqiy etishi notiqlikni san'at darajasiga ko'tardi. Chunki u paytlarda davlat arboblarning obro'-e'tibori va yuqori lavozimlarga ko'tarilishi, ularning notiqlik mahoratiga ham bog'liq bo'lgan. Notiqlik san'ati sarkardalik mahorati bilan barobar darajada ulug'langan. Mashhur notiq Sitseron: "Tarixda yo yaxshi harbiy sarkarda, yo yaxshi notiq bo'lish kerak", degan ekan. Bu gapda katta hikmat bor. Harbiy sarkardaning itoatida ko'p sonli lashkar bo'lishini tasavvur qilsak, bu so'z tasodifiy o'xshatish emasligiga amin bo'lamiz. Grek va Rim notiqdori Aristotel, Demosfen, Sitseron, Kvintilian kabi nazariyotchilarning hayotiy tajribalari ham bunga misoldir. Ular kishilik jamiyatida ritorika va notiqlik san'atining o'ziga xos maktabini yaratdi. Sitseronning "Notiqlik haqida", "Notiq", "Brut" asarlari, Mark Fabiy Kvintilianning "Notiq bilimi haqida", Aristotelning "Ritorika" kabi asarlari ham qadimgi Gretsiya va Rimda madaniy nutq,

notiqlik nazariyasi ancha rivojlanganligini ko'rsatadi⁷.

Nutq ohangi, to'xtamlar ham tinglovchilarga bevosita kuchli ta'sir ko'rsatadi. Nutqning ritmi (vazni)ga ko'ra talabaga uzatilayotgan bilimlar, o'quv materialining murakkab o'rinlari pedagog tomonidan asta-sekin bayon qilinadi, oson o'zlashtiriladigan qismlarini esa nutqni bir qadar tezlashtirib bayon etish mumkin. Pedagog o'z faoliyatida aniq, ravon, ma'noli, ifodali nutqni o'zlashtira olishi, bir so'z bilan aytganda nutq madaniyatini egallashi zarur.

Nutq madaniyati – o'z fikrini nutq yordamida mantiqli, to'g'ri, obrazli, aniq va ifodali yetkazib berish malakalarining o'zlashtirilganlik darajasi.

O'qituvchi nutqini rivojlantirishga bir qator omillar ta'sir ko'rsatadi. Xususan, pedagogik jarayonda ustuvorlik kasb etuvchi muloqot (rahbariyat, hamkasblar, o'quvchilar, ota-onalar va boshqalar bilan tashkil etiladigan suhbatlar), bugungi kunda tobora ommalashib borayotgan ijtimoiy tarmoqlarga xos leksikon, OAV, ilmiy va badiiy adabiyotlar, teatr va kino asarlar. O'qituvchining nutq madaniyatiga ega bo'lishi uchun u tomonidan doimiy, izchil ravishda o'z nutqi ustida ishlash talab etiladi. Bunda o'qituvchi nutq madaniyatini rivojlantirishda samarali bo'lgan yo'llardan foydalanishi mumkin.

Har bir shaxs, xususan, o'qituvchining nutq madaniyatini rivojlantirishning bir necha yo'llari mavjud. Ular:

1. Nutqni o'stirish ustida mustaqil ishlash (oyna yonida turgan holda bir-bir asardan monolog ijro qilish, kitob o'qitish).

2. Badiiy jihatdan mukammal bo'lgan she'rlar va qo'shiqlar yodlash (ham xotira mustahkamlanadi, nutq rivojlanadi, badiiy did o'sadi).

3. Badiiy asarlarni mutolaa qilish va o'qilgan asar yuzasidan hamkasblari, o'quvchilar bilan o'zaro fikr almashish.

4. Audio yozuvlar vositasida nutqni rivojlantirish (yozuvlarni tinglash va birgalikda takrorlash).

5. Badiiy-havaskorlik teatr jamoalari faoliyatida ishtirok etish.

6. Nutqdagi asosiy kamchiliklar (duduqlanish, ravon va erkin gapira olmaslik, hayajonlanish, mantiqiy fikrlash bilmaslik)ni bartaraf etish maqsadida mutaxassis maslahatini olish.

Shunday qilib, nutq tilning asosiy xususiyatlaridan biri bo'lib, u kishilar o'rtasida o'zaro axborot almashish uchun xizmat qiladi. Nutq nafaqat inson hayotida, shu bilan birga jamiyat taraqqiyotida ham muhim o'rin tutadi. Binobarin, milliy til rivoji, nutqning ravon, aniq, to'g'ri, turli qusurlardan holi tarzda ifodalanishi ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlashga yordam beradi. Pedagogning ovozi bir qator xususiyatlarni, xususan, jarangdorlik, keng diapazonga egalik, havodorli, ixchamlik, harakatchanlik, chidamlilik, moslashuvchanlik, qarshi shovqinlarga nisbatan barqarorlik hamda suggetsivlikni namoyon eta olishi zarur.

Nutqning hosil bo'lishida bir qator nutq organlari ishtirok etadi. Umumiy nom bilan nutq apparti deb nomlanuvchi ushbu organlarning nutq hosil qilishdagi muhim roli va o'rnini anglagan holda o'qituvchi o'z faoliyatini ularning gigienasiga, nutq texnikasiga, shu bilan birga nutq madaniyatiga ega bo'lishga e'tibor qaratishi zarur.

⁷ Нутқ маданияти / Ўқув-методик кўлл. – Тошкент: ТДПУ, 2004. – 4-бет.

Nazorat savollari:

1. Nutq inson hayoti va jamiyat taraqqiyotida qanday o‘rin tutadi?
2. Pedagogning ovozida qanday xususiyatlar namoyon bo‘ladi?
3. Qanday organlar nutq organlari deb ataladi?
4. Nutq apparati deganda nimani tushunasiz?
5. Nutq texnikasi nima?
6. Qanday holatlar nutq texnikasini ifodalaydi?
7. Nutq madaniyati deb nimaga aytiladi?
8. O‘qituvchining nutq mahoratini takomillashtirishning qanday yo‘llari mavjud?

Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. Bekmirzayev N. Notiqlik san’ati asoslari. – Toshkent: Yangi asr, 2008.
2. Mahmudov N. O‘qituvchi nutqi madaniyati. – Toshkent: A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.
3. Muhiddinov A.G. O‘quv jarayonida nutq faoliyati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995.
4. Основы педагогического мастерства / Под ред. А.Зыузина. – Москва: Просвещение, 1989.
5. Sulstonova G.A. Pedagogik mahorat / O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005.
6. Tarbiyaviy ishlar metodikasi / Pedagogika institutlari uchun o‘quv qo‘llanma. L.I.Ruvinskiy tahriri ostida. – Toshkent: O‘qituvchi, 1991.
7. Qudratov T. Nutq madaniyati asoslari / Oliy o‘quv yurtlari uchun o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1993.
8. Holiqov A. Pedagogik mahorat / O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: “Iqtisod-moliya”, 2010.
9. Husanov B., G‘ulomov V. Muomala madaniyati / Darslik. – Toshkent: “Iqtisod-moliya”, 2009.

O‘QITUVCHINING TA’LIM JARAYONIDAGI MAHORATI⁸

O‘quv rejasi:

1. O‘quvchilarning o‘quv-bilish faolligi.
2. O‘qituvchining o‘quvchilar o‘quv-bilish faolligini oshirishdagi mahorati.
3. Dars mazmuni va uning didaktik imkoniyatlari.
4. Optimistik kayfiyat va uning o‘qituvchi faoliyatida ahamiyati.

Tayanch tushunchalar: o‘qituvchi, o‘quvchilarning bilish (anglash) faoliyatini boshqarish, o‘qituvchining o‘quvchilar bilish (anglash) faoliyatini boshqarish mahorati, dars mazmuni, dars mazmuning didaktik imkoniyatlari, optimistik kayfiyat, optimistik kayfiyatning o‘qituvchi faoliyatidagi ahamiyati.

I. O‘quvchilarning o‘quv-bilish faolligi. Xalqaro hamjamiyatda global axborotlashuv zamonaviy jamiyatga xos xususiyat sanaladi, hamda ta’lim tizimining

⁸ Ушбу параграф педагогика бўйича фалс.фанл.докт. З.Т.Рахимов билан ҳамкорликда тайёрланди.

rivojiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shunga ko'ra, ilm-fan, texnika va texnologiyalarning tezkor rivojlanishi ta'lim mazmuniga ham izchil ravishda o'zgartirishlar kiritishni taqozo etmoqda. Qolaversa, zamonaviy bilimlarning ko'lami, ularni o'zlashtirishga bo'lgan ehtiyoj shaxsdan tez sur'atda yangi bilimlar bilan tanishish, ularni tezkor o'zlashtirishni talab etadi. Natijada, zamonaviy sharoitda yoshlar o'rtasida asosiy ta'limiy maqsadlar – o'quv-bilish faoliyatini rivojlanishi, malakali mutaxassis sifatida shakllanish, kasbiy takomillashuvga erishish, ta'lim oluvchilarda hayotiy va kasbiy faoliyatni tashkil etish uchun kerakli ma'lumotlarni izchil, uzluksiz, maqsadli, tizimli o'zlashtirish, ularning maqsadli shakllanishlariga erishish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Psixologlar – S.L.Rubinshteyn, A.A.Leonteva, L.S.Vygotskiylarning fikrlariga ko'ra, faoliyat shaxs rivojlanishining muhim asosi bo'lgan psixologik xususiyatlar hamda shaxs ijtimoiy shakllanishining asosiy sharti sanaladi. Shu sababli pedagogika uchun faoliyatdan tashqarida o'quv-bilish vazifalarini bajarish mumkin emas⁹. Yangi bilimlar va ko'nikmalarning qo'shilishi orqali shakllanadigan sub'ekt tajribasi ushbu faoliyat predmeti bo'lib xizmat qiladi. Ijtimoiy tajribaning o'zlashtirilishi va uning hisobiga talaba ega bo'lgan avvalgi tajribaning o'zgarishi o'quv-bilish faoliyatining mahsuli hisoblanadi.

O'quv-bilish faoliyati quyidagi harakat va operatsiyalarning bajarilishi hisobiga ta'minlanadi: 1) o'quv materialini bilish va uni o'zlashtirishga qaratilgan harakat; 2) o'quv materialini qayta ishlashga qaratilgan harakat¹⁰.

O'quv-bilish faoliyatini rivojlantirish – belgilangan mezonlarga muvofiq talabalarning past darajadagi bilim, ko'nikma va malakalarining o'rta va yuqori darajalarga o'sib o'tishini ifodalovchi jarayon sanaladi.

O'quv-bilish faoliyatining o'ziga xosligi uning o'quvchilar tomonidan ular uchun yangi bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga, ob'ektiv borliqni anglashga yo'naltirilganligi bilan belgilanadi. Biroq, bilimlarni o'zlashtirishning xarakterli turlicha bo'lishi mumkin. Bizning nazarimizda aynan mana shu o'quv-bilish faoliyatining turli ko'rinishlarining predmetini farqlab beradi.

Har bir o'quv predmetini o'rganishda quyidagi jihatlar ko'zga tashlanadi: 1) axborotli jihati – axborotni o'zlashtirish; 2) shaxsiy jihati – faoliyat usullarini egallash.

O'quv mashg'ulotlarida o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatining asosiy turlari quyidagilardir: kuzatish, tajriba, kitoblar, politexnik lug'atlar, ma'lumotnomalar bilan ishlash, bilimlarni tizimlashtirish va boshqalar. Ular bir-biri bilan o'zaro bog'langan.

O'quv-bilish faoliyatining quyidagi turlarini ilgari surish mumkin:

I. Og'zaki (belgili) xarakterga ega o'quv-bilish faoliyati: kuzatish; tajriba; kitoblar, politexnik lug'atlar, ma'lumotnomalar bilan ishlash, bilimlarni tizimlashtirish, bilishga oid masalalarni yechish (muammoli vaziyatlarni hal qilish), grafiklar qurish; o'qituvchining tushuntirishini tinglash; tengdoshlarining chiqishlarini tinglash va tahlil qilish; darsliklar bilan mustaqillik ishlash; lug'atlar, ma'lumotnomalar, ilmiy-ommabop adabiyotlar bilan ishlash; materialni bir necha

⁹ Рубинштейн С.Л. Принципы и пути развития психологии. – М.: Владос, 1999. – С. 38.

¹⁰ Булатова Ю.И. Активизация учебно-познавательной деятельности студентов вузов / Ж. Педагогика высшей школы и профессионального образования. – М.: 2012. – №3. – С. 9.

manbalar bo'yicha tanlash va solishtirish; referat va ma'ruzalar yozish; formulani keltirib chiqirish va isbotlash; formulani tahlil qilish; dasturlashtirish; miqdor va sifatga oid masalalarni yechish; tushunchalarni bir-biridan farqlash topshirig'ini bajarish; o'quv materialini tizimlashtirish; dasturni tahrir qilish.

II. Borliq elementlarini idrok qilishga asoslangan o'quv-bilish faoliyati: o'qituvchining namoyishini kuzatish; o'quv filmlarini tomosha qilish; grafik, jadval va sxemalarni tahlil qilish; kuzatilayotgan hodisani tushuntirish; muammoli vaziyatlarni tahlil qilish.

III. Amaliy (tajriba)ga asoslangan o'quv-bilish faoliyati: o'z sohasi bo'yicha amaliy tajribalar o'tkazish; tajribaviy masalalar bilan ishlash; tarqatma materiallar bilan ishlash; materiallar kolleksiyasini yig'ish va tasniflash; mavjud ma'lumotlarni tahlil qilish asosida ilmiy farazlarni ilgari surish; tajriba ishlari metodikasini ishlab chiqish va tekshirish; tadqiqot tajribasini olib borish; modellashtirish va loyihalash.

O'quv-bilish faoliyatining turlari shartli ravishda quyidagi tarzda ham o'zaro farqlanadi: 1) matn bilan ishlashga asoslangan o'quv-bilish faoliyat; 2) turli ob'ektlarni kuzatishga asoslangan o'quv-bilish faoliyati; 3) turli amaliy ishlarni bajarishga asoslangan o'quv-bilish faoliyati.

O'quv-bilish faoliyatining tarkiiy tuzilmasida quyidagi elementlar mavjud bo'ladi: o'quv-bilish faoliyatining o'zaro aloqador bo'lgan alohida turlari; faoliyatni yaxlit bajarilishini ta'minlovchi muayyan harakatlar jamlanmasi; harakatlarni bajarish usullari bo'lgan operatsiyalar.

O'quv-bilish faoliyati negizida bilim, ko'nikma, malaka va shaxs sifatleri aks etadi. Ular o'quvchilik yillarining birinchi sinfdan boshlab o'zlashtiriladi. Bu kabi elementlar qatorida tez o'qish, matnni o'qish, matn mazmunini o'zining so'zlari bilan tayta hikoya qilish, kuzatish, eng oddiy xulosalar chiqarishga o'rgatish.

Umumlashtirilgan o'quv-bilish ko'nikmalarining shakllantirish uchun faoliyatning yo'naltirilgan asosini topish zarur. Ko'plab tadqiqotchi-pedagoglar umumlashtirilgan o'quv-bilish faoliyati ko'nikmalari sifatida quyidagilarni e'tirof etadi: tajriba, kitob bilan ishlash, kuzatish va boshqalar (A.V.Usova); masalalarni yechish (N.N.Tulkiboeva), tajriba (A.A.Bobrov, E.T.Izergin), tizimlashtirish (A.N.Zvyagin, S.F.Shilova, L.Ya.Zorina), kitob bilan ishlash (V.K.Buryak), faoliyat metodlari (B.I.Korotyaev, P.I.Pidkasist, Z.F.Chexlova).

Yu.K.Babanskiy¹¹, I.Ya.Lerner¹², G.I.Shukina¹³lar tomonidan o'quv-bilish faoliyati darajasini aniqlashga qaratilgan yondashuv keng tarqalgan. Unga ko'ra o'quv-bilish faoliyati darajasi uning xarakteri, o'quvchilarning mustaqillik darajasiga muvofiq aniqlanadi: 1) reproduktiv (unumli, samarali); 2) izohli-ko'rgazmali; 3) muammoli; 4) qisman-izlanuvchan; 5) izlanuvchan.

D.B.Bogoyavlenskaya esa o'quvchilarning intellektual faolliklaridan kelib chiqqan holda o'quv-bilish faoliyati darajalarini o'ziga xos tarzda belgilaydi:

¹¹ Бабанский Ю.К. Оптимизация процесса обучения. – М.: Педагогика, 1977. – 257 с.

¹² Лернер П.С. Инновационные технологии повышение интерактивности профильного обучения // Ж. Школьные технологии. – М.: 2004. - № 6. – С. 155-168.

¹³ Щукина Г.И. Педагогические проблемы формирования познавательных интересов учащихся. – М.: Педагогика, 1988. – 208 с.

1) reproduktiv (unumli, samarali); 2) evristik; 3) kreativ¹⁴.

O'quv-bilish faoliyati darajalarini belgilash haqidagi D.B.Bogoyavlenskiy¹⁵ning yondashuviga qo'shilgan holda uni mazmunan yanada yanada rivojlantirish mumkin degan xulosaga kelindi. Shunga ko'ra, o'quv-bilish faoliyati darajalarini quyidagicha belgilash o'quvchilarning bu boradagi amaliy harakatlarini ularning mohiyatidan kelib chiqqan holda bir-biridan farqlash va yanada aniq baholash imkoniyatini ta'minlaydi: 1) reproduktiv (unumli, samarali); 2) evristik; 3) tadqiqot; 4) kreativ.

O'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini rivojlantirishda kichik tadqiqot xarakteridagi amaliy harakat ko'nikma, malakalariga ega bo'lishlari muhim ahamiyatiga ega. Chunki ular maktabda tahsil olish jarayonida bir qator ijodiy va kichik tadqiqot xarakteridagi o'quv faoliyati (loyihalar, ekspeditsiyalar)ni amalga oshiradi. Bu esa o'z navbatida o'quvchilarning tadqiqot ko'nikma va malakalariga ega bo'lishlarini taqozo etadi.

II. O'qituvchining o'quvchilarni o'quv-bilish (anglash) faoliyatini boshqarishdagi mahorati. Ta'lim muassasalarida o'qituvchining o'quvchilarni o'quv-bilish (anglash) faoliyatini boshqarishdagi mahorati o'quv jarayonini tashkil etish, o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyati yo'nalishlarini oqilona, aniq belgilash, ularning o'quv topshiriqlarini bajarishdagi harakatlarini nazorat qilish, to'g'ri yo'naltirish, zarur o'rinlarda maslahat berish, o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malakalarini tashxislash va baholashda namoyon bo'ladi.

Ta'limni tashkil etish jarayonida o'qituvchi V.P.Bespalkoning bilish nazariyasiga ko'ra psixologik nuqtai nazardan yondashgan holda o'quvchilar tomonidan o'quv-bilish materiallarini o'zlashtirishdagi faoliyati darajasini quyidagi guruhlashtirishi mumkin:

1-daraja: avval o'zlashtirilgan materialni ikkilamchi idrok etish (anglash) orqali ob'ektlarni bilish va ular asosida oddiy harakatlarni bajarish.

2-daraja: avval bajarilgan harakatlarni reproduktiv (unumli, samarali) harakatlarni mustaqil bajarish yo'li bilan qayta tiklash.

3-daraja: namuna asosida harakat qilish yo'li bilan produktiv (mahsuldor) harakatlarni tashkil etish orqali yangi bilimlarni egallash.

4-daraja: yangi bilimlarni mustaqil o'rganishga qaratilgan ijodiy harakatlarni tashkil etish¹⁶.

A.V.Usova esa o'quvchilarning bilish ko'nikmalari shakllanganlik darajasi quyidagi mezonlar asosida baholash mumkin degan g'oyani ilgari suradi: bajariladigan operatsiyalarning tarkibi va sifati; ularning anglanganligi; ularning to'liqligi va ixchamligi; murakkablik darajasi; ularni bajarishdagi amaliy izchillik¹⁷.

Bilish ko'nikmalarining shakllanganlik darajasi quyidagicha ham aniqlanadi:

¹⁴ Богоявленская Д.Б. Интеллектуальная активность как проблема творчества. – Ростов-на-Дону: Изд-во РГУ, 1983. – 176 с.

¹⁵ Тот источник. – 176 с.

¹⁶ Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии. – М.: Педагогика, 1989. – с. 70-71.

¹⁷ Усова А.В. Теория и практика развивающего обучения, индивидуально-личностного подхода в обучении. – Челябинск: ЧТУ, 1996. – С. 45.

I (past) – o‘quvchilar tomonidan atigi alohida operatsiyalar bajariladi (tartibsiz, anglanmagan);

II (o‘rtacha) – o‘quvchilar tomonidan talab etilgan barcha operatsiyalar bajariladi, biroq, ularning izchilligi yetarlicha o‘ylanmagan, harakatlar to‘liq anglab yetilmagan;

III (yuqori) – o‘quvchilar tomonidan barcha operatsiya va harakatlar amaliy izchillik asosida ongli ravishda bajariladi¹⁸.

N.A.Polovnikova o‘quvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirishdagi mustaqilliklari darajasini quyidagicha guruhlaydi: 1) tahlid qilish; 2) ijodiy ishlab chiqish; 3) ijodiy yaratuvchanlik¹⁹.

Faoliyat darajasini aniqlashga qaratilgan turli yondashuvlarni umumlashtirgan holda biz quyidagi yondashuvning bir qadar aniq va asoslangan ekanligiga ishonch hosil qildik:


1-daraja: reproduktiv (mahsuldor – qayta aks ettirish; unga muvofiq o‘quv-bilish faoliyati namuna bo‘yicha amalga oshiriladi);

2-daraja: evristik (ijodiy ishlab chiqarish; unga ko‘ra o‘quv-bilish faoliyati topshiriq va sharoitlarga bir qadar yaqin keladigan algortmning mustaqil tanlangan varianti bo‘yicha tashkil etiladi);

3-daraja: ijodiy (faoliyatni mustaqil rejalashtirish va erkin bajarish).

O‘quvchilarda o‘quv-bilish faoliyatini rivojlantirish ko‘plab ob‘ektiv va sub‘ektiv omillar ta‘sirida kechadigan yaxlit jarayon sanaladi. Har qanday jarayon muayyan bosqichlar asosida kechadi. O‘qituvchining ta‘lim jarayonidagi mahorati o‘quvchilarda o‘quv-bilish faoliyatini rivojlantirish jarayonini tashkiliy-metodik jihatdan to‘g‘ri uyushtirish, har bir bosqichda aniq maqsadga erishishda namoyon bo‘ladi.

Mohiyatiga ko‘ra o‘quvchilarda o‘quv-bilish faolligini rivojlantirish jarayonini quyidagi bosqichlarida kechadi (22-rasm):



22-rasm. O‘quvchilarda o‘quv-bilish faolligini rivojlantirish bosqichlari

1. Moslashtirish-yo‘naltirish bosqichi. Ushbu bosqichda o‘quvchilar gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar, matematik va tabiiy-ilmiy fanlar hamda umumkasbiy fanlar bo‘yicha o‘quv jarayonining tashkil etilishi asosida o‘quv-bilish jarayonining mohiyatini anglaydi. Turli xarakter, murakkablik va shakldagi o‘quv

¹⁸ Половникова А.В. Обществознание / Учебник для 10 -11 класса: Базовый уровень. – М.: Просвещение, 2017. – С. 208.

¹⁹ Тот источник. – С. 208.

topshiriqlarni bajarish orqali o'quv, kichik tadqiqot, loyiha, ishlab chiqarish faoliyatlarining mazmunidan xabardor bo'ladi. Ularning o'quv-bilish faoliyati bevosita fan o'qituvchisi yoki "Texnologiya" fani o'qituvchisi, tarbiyachilarning rahbarligida tashkil etiladi. Bunda o'qituvchilar tomonidan beriladigan metodik ko'rsatmalar o'quvchilarda barcha turdagi, xususan, mustaqil ta'lim bo'yicha o'quv-bilish faoliyatini samarali tashkil etish yo'li, shakl, metod va vositalari to'g'risidagi tasavvurning hosil bo'lishini ta'minlaydi, tushunchalarni qaror toptiradi. Bilimlarning o'zlashtirilishi reproduktivlik kasb etadi. Ya'ni o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyati ko'p holatlarda o'qituvchilar tomonidan berilgan ma'lumotlar, bilimlarni qayta bayon qilishga asoslanadi.

2. Shakllantirish bosqichi. Mazkur bosqichda o'quvchilar turli murakkablikdagi o'quv topshiriqlarini sifatli bajarish, mustaqil ta'limni samarali tashkil etishga doir ko'nikmalarni o'zlashtiradi. Ularning o'quv-bilish faoliyati asta-sekin produktivlik (mahsuldorlik) kasb eta boshlaydi. Endilikda ular turli murakkablikdagi o'quv, kichik tadqiqot, loyiha, ishlab chiqarish faoliyatlari mohiyatini ifodalovchi o'quv-bilish harakatlarini mustaqil bajarish boshlaydi. Zarur o'rinlardagina fan o'qituvchisi yoki "Texnologiya" fani o'qituvchisi, tarbiyachilarning metodik rahbarligiga ehtiyoj seziladi.

3. Rivojlantirish bosqichi. Bu bosqichning asosiy xususiyati o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatida mustaqillikning yorqin namoyon bo'lishi bilan belgilanadi. O'quvchilar har qanday murakkablikdagi o'quv-bilish harakatlarini maqsadli, izchil, uzluksiz ravishda o'qituvchi yoki ishlab chiqarish ustasining rahbarligisiz mustaqil amalga oshiradi. Ushbu bosqichda o'quvchilarning o'quv, kichik tadqiqot, loyiha, ishlab chiqarish faoliyatlariga oid ko'nikmalari sekin-asta malakalarga aylanadi. Buning natijasida o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyati qisman-izlanuvchanlik va ijodiylik kasb etadi.

III. Dars mazmuni va uning didaktik imkoniyatlari. Ta'lim mazmuni tizimlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalar, qarashlar, ishonchlar to'plami, o'quv-tarbiyaviy ishlarni tashkil etish natijasida erishilgan amaliy tayyorgarlikning ma'lum darajasi bilan belgilanadi.

Ta'lim mazmunining asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan bilimlar muhim ijtimoiy qadriyat ham sanaladi. U individning ijtimoiylashishi, odamning sotsium (ijtimoiy muhit)ga kirishiga yordam beradi. O'tgan asrda ta'lim mazmunini siyosiyashtirishga urinishga qaratilgan harakatlarning yuzaga kelganligi uning mazmunini belgilashda ekstensiv yondashish (miqdoriy – sonini ko'paytirish) yetakchi o'rin egalladi. Natijada ta'lim mazmuni o'quv fanlari sonining doimiy ortib borish hisobiga kengaytirildi, ta'lim jarayonida tayyor bilimlarni berish asosida o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishga e'tibor qaratilib, o'quvchi shaxsini rivojlantirish masalasi o'z yechimini topmadi.

So'nggi yillarda ta'limni insonparvarlashtirish yo'lida ta'lim mazmunini aniqlashda shaxsga-yo'naltirilgan yondashuv asosiy o'rinni egallay boshladi. Bunday yondashish V.V.Kraevskiy, I.Ya.Lerner, M.N.Skatkin (Rossiya); M.Ochilova, N.N.Azizxo'jaeva, N.Sayidahmedov, F.R.Yuzlikaev (O'zbekiston)larning ishlarida o'z aksini topdi. Masalan, V.V.Kraevskiy, I.Ya.Lernerlar ta'lim mazmuni deganda

shaxsni har tomonlama rivojlantirishni ta'minlovchi pedagogik bilim, ko'nikma va malakalar to'plami, ijodiy faoliyat tajribasi hamda emotsional-irodaviy munosabat tajribasini tushunadilar.

Demak, shaxsga yo'naltirilgan yondashishga muvofiq ta'lim mazmuni mohiyatini aniqlashda asosiy qadriyat bilim emas, balki odamning o'zi hisoblanadi. Bunday yondoshuv shaxsning ta'lim olish, ma'naviy, madaniy va hayotiy talab-ehtiyojlarini qondirish, rivojlanayotgan shaxsga nisbatan samimiy munosabatda bo'lishi ta'lim mazmunini erkin tanlash imkonini beradi.

An'anaviy pedagogika deyarli faqat odamning ijtimoiy mohiyatini tan olganligi bois, ta'limning maqsadi insonning jamiyat a'zosi sifatida rivojlanishi, unda ijtimoiy ahamiyatli sifatlarning shakllanishi hisoblanadi.

Darsning didaktik imkoniyatlari quyidagilardir: har bir darsning ta'limiy vazifalarini belgilash; darsni axborotlar bilan boyitish; o'quvchilarning ijtimoiy va shaxsiy ehtiyojlarini hisobga olish; dars mazmunini optimallashtirish; ta'lim jarayoniga ilg'or texnologiyalarni joriy etish; turli shakl, metod va vositalaridan o'rinli foydalanish; dars tuzilishiga ijodiy yondashish; ta'lim berishda o'qitishning jamoaviy, guruhli va individual shakllarini qo'llash; operativ qayta aloqani o'rnatish; nazorat va boshqaruvni tashkil etish; darsning samarali kechishini ta'minlash.

O'qituvchining pedagogik mahorati, shuningdek, darslarni quyidagi talablarga muvofiq tashkil etishda ham namoyon bo'ladi: fanning ilg'or yutuqlari, pedagogik texnologiyalardan foydalanish, darsni o'quv-tarbiyaviy jarayon qonuniyatlari asosida tashkil etish; darsda barcha didaktik tamoyil va qoidalarning optimal nisbatlarini ta'minlash; o'quvchilarning qiziqishlari, layoqati va talablarini hisobga olish asosida ular tomonidan bilimlarning puxta o'zlashtirilishi uchun zarur sharoitlarni yaratish; o'quvchilar anglab yetadigan fanlararo bog'liqliklarni o'rnatish; ilgari o'rganilgan bilim va malakalari, shuningdek, o'quvchilarning rivojlanish darajasiga tayanish; shaxsning har tomonlama rivojlantirishni motivatsiyalash va faollashtirish; o'quv-tarbiyaviy faoliyat barcha bosqichlarining mantiqiyliigi va emotsionalligi; pedagogik vositalardan samarali foydalanish; zarur bilim, ko'nikma va malakalar, fikrlash va faoliyat ratsional usullarini shakllantirish; mavjud bilimlarni doimo boyitib borish ehtiyojini yuzaga keltirish; har bir darsni puxta loyihalashtirish, rejalashtirish, tashxis va taxmin qilish.

IV. Optimistik kayfiyat va uning o'qituvchi faoliyatida ahamiyati.

O'qituvchi faoliyati uning optimistik ruhga ega bo'lishi va o'quvchilarni ham ruhlantira olishi muhim ahamiyatga ega. Lug'aviy jihatdan "optimizm" ("optimus") lotin tilidan tarjima qilinganda "juda yaxshi", "a'lo" degan ma'nolarni anglatadi.

O'qituvchining optimistik kayfiyati kasbiy faoliyatni ko'tarinki ruhda tashkil etishda, o'quvchilar bilan munosabatda samimiy va do'stona bo'lishda, ularning kamchiliklari va xatolarini emas, balki ko'proq yutuqlari, muvaffaqiyatlarini ko'ra olishda, turli pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish va baholashda ularning ijobiy tomonini ko'rish, ta'lim, ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonini tashkil etishda o'quvchilarga ishonch bildirish, ularning yutuq va muvaffaqiyatlari uchun rag'batlantirish, ota-onalar bilan muloqotda farzandlarining ijobiy sifatlariga ko'proq

urg'u berish, o'zi faoliyati va o'z xatti-harakatlarining to'g'riligiga, ijtimoiy ahamiyatli ekanligiga ishonish kabilarda ko'zga tashlanadi. O'quvchilarning bugun erishgan yutuqlarini avvalgilari bilan solishtirish, noo'rin tanqid qilish, muloqotda o'quvchi shaxsining xatti-harakatlariga emas, balki uning shaxsini baholash pedagogik muloqotning salbiylik kasb etishiga olib keladi.

Ta'lim va tarbiyaviy ishlar jarayonida ham o'quvchilardagi doimiy qo'rquv, xavotir, tushkunlik ham ular tomonidan o'quv materiallarining puxta o'zlashtirilmasligi, aksincha, qoloqlik, ijtimoiy foydali mehnat va jamoaviy ishlardan o'zini chetga olishga olib keladi. Bu esa pedagogik jarayon uchun salbiy holat bo'lib, shaxsni tarbiyalash, unga bilim berishda bir qator muammolarni keltirib chiqaradi. Shu sababli o'qituvchi mahoratida uning optimistik kayfiyatga ega bo'lishi, bunda barqarorlikka erishish muhim ahamiyatga ega.

Shunday qilib, o'quvchilarda o'quv-bilish faolligini rivojlantirish murakkab psixologik hodisa bo'lib, u o'ziga xos jihatlarni namoyon etadi. O'quvchilarning ta'lim jarayoniga xos fiziologik, ijtimoiy va psixologik jihatdan tayyor bo'lishlari ular tomonidan samarali ravishda o'quv-bilish faolligiga erishish uchun keng imkoniyatlarni yaratadi. Shu bois ta'lim jarayonini tashkil etishda masalaning bu jihatiga e'tibor qaratish lozim. Ta'lim jarayonida o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini rivojlantirish o'z-o'zidan ro'y bermaydi. Bunga bir qator omillar ta'sirida erishiladi. O'qituvchilar esa o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini rivojlantirishda ijobiy ta'sir kuchiga ega bo'lgan omillar mavjudligini ta'minlashga e'tibor qaratishlari zarur. Bunda, eng avvalo, o'qituvchining sub'ektiv ta'sirini inobatga olish zarur. Binobarin, o'qituvchining ta'lim jarayonini tashkil etishda optimistik kayfiyatga ega bo'lishi o'quvchilarda o'quv fanlarini o'zlashtirishga, bilim olishga bo'lgan rag'batini oshirishga xizmat qiladi.

Nazorat savollari:

1. O'quv-bilish faolligi deganda nimani tushunasiz?
2. O'quvchilarning o'quv-bilish faolligi nimalarda ko'rinadi?
3. O'quvchilar o'quv-bilish faolligini oshirishda o'qituvchining mahorati qanday ahamiyatga ega?
4. Dars mazmuni nimalar shakllantiradi?
5. Dars qanday didaktik imkoniyatlarga ega?
6. Qanday kayfiyat optimistik xarakterga ega bo'ladi?
7. Optimistik kayfiyatga ega bo'lish o'qituvchi faoliyatida qanday ahamiyatga ega?

Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. Бабанский Ю.К. Оптимизация процесса обучения. – М.: Педагогика, 1977. – 257 с.
2. Беспалко В.П. Слагаемые педагогической технологии. – М.: Педагогика, 1989. – с. 70-71.
3. Богоявленская Д.Б. Интеллектуальная активность как проблема творчества. – Ростов-на-Дону: Изд-во РГУ, 1983. – 176 с.

4. Булатова Ю.И. Активизация учебно-познавательной деятельности студентов вузов / Ж. Педагогика высшей школы и профессионального образования. – М.: 2012. – №3. – С. 9.

5. Лернер П.С. Инновационные технологии повышение интерактивности профильного обучения // Ж. Школьные технологии. – М.: 2004. - № 6. – С. 155-168.

6. Половникова А.В. Обществознание / Учебник для 10-11 класса: Базовый уровень. – М.: Просвещение, 2017. – С. 208.

7. Рубинштейн С.Л. Принципы и пути развития психологии. – М.: Владос, 1999. – С. 38.

8. Усова А.В. Теория и практика развивающего обучения, индивидуально-личностного подхода в обучении. – Челябинск: ЧТУ, 1996. – С. 45.

9. Щукина Г.И. Педагогические проблемы формирования познавательных интересов учащихся. – М.: Педагогика, 1988. – 208 с.

III BOB. O‘QITUVCHINING TARBIYA JARAYONIDAGI MAHORATI

O‘QITUVCHINING TARBIYACHI SIFATIDAGI MAHORATI

O‘quv rejasi:

1. Tarbiyachi mahorati.
2. O‘quvchilarni o‘rganish diagnostikasi.
3. Tarbiyachi tomonidan shaxs va jamoaning o‘rganilishi.
4. O‘quvchilar jamoasini o‘rganishning asosiy mezonlari.
5. Tarbiyachining tashkilotchilik faoliyati.

Tayanch tushunchalar: tarbiyachi, tarbiyachining mahorati, faoliyatni tashxislash, o‘quvchilarni o‘rganish diagnostikasi, o‘quvchilar jamoasini o‘rganish, o‘quvchilar jamoasini o‘rganishning asosiy mezonlari, o‘qituvchi faoliyatining tashxisi, tarbiyachi faoliyati, tarbiyachi faoliyatining tizimi, tarbiyachining asosiy ko‘nikmalari.

I. Tarbiyachi mahorati. Umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida o‘qituvchi tarbiyachi sifatida ham faoliyat olib boradi. **Tarbiyachi** ta‘lim muassasasida ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar tizimini tashkil etishga mas‘ul pedagog hamda ota-onalar bilan birgalikda sinf o‘quvchilarining bilim olishlari va ma‘naviy-axloqiy sifatlarni o‘zlashtirishlariga javobgar shaxs hisoblanadi. U o‘ziga biriktirilgan sinf o‘quvchilarining amalda belgilangan ta‘lim va tarbiya olishlarini tashkil etadi.

Tarbiyachi tomonidan tashkil etiladigan faoliyat maqsadi har tomonlama barkamol shaxs (fuqaro)ni sinf o‘quvchilarining qobiliyatlarini to‘liq namoyon etishlari uchun yetarli pedagogik sharoit yaratishdir. Bu borada ta‘lim muassasalari pedagogik va o‘quvchilar jamoasi hamkorligida tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda har bir o‘quvchining o‘ziga xos xususiyatlariga qarab yondoshishni yo‘lga qo‘yadi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari o‘ziga biriktirilgan sinfga rahbar hisoblanadilar. 5-9-sinflarda tarbiyachi tajribali o‘qituvchilar orasidan ta‘lim muassasasi ma‘muriyati tomonidan tanlab olinib tayinlanadi.

Bir o‘qituvchiga faqatgina bitta sinf rahbarligi topshiriladi. Tarbiyachilar faoliyatini ma‘naviy-ma‘rifiy tarbiya ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari nazorat qiladi va muvofiqlashtiradi.

Sinf o‘quvchilarining ma‘naviy va ma‘rifiy tarbiyasini tashkil etishda o‘qituvchilar, bolalar yetakchisi, psixolog, ota-onalar, shuningdek, ta‘lim muassasasi rahbariyati orqali voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha komissiyalar, mahalla, huquq-targ‘ibot idoralari, homiylik va vasiylik komissiyalari, tegishli davlat va nodavlat tashkilotlar, ijodiy uyushmalar bilan hamkorlikda ishni tashkil etadi.

Tarbiyachi o‘quvchilariga mehribon bo‘lishi, ularning o‘sib-o‘shishlarini pedagogik kuzatish asosida nazorat etishi, yordamga muhtoj o‘quvchilarga yakka holda yondosha olishi lozim. Shu asosda ular qalbida milliy g‘urur, vatanparvarlik, mehr-muruvvat, mas‘uliyat, tashabbuskorlik, ishbilarmonlik kabi hislatlarni uyg‘ota olishi zarur. Tarbiyachi izlanuvchan bo‘lishi, o‘zining g‘oyaviy-siyosiy bilimini oshirib borishi zarur. Tarbiyachining ahloqiy obro‘si ana shundagina tarbiyaviy ta‘sir

kuchiga ega bo'ladi. Tarbiyachining shaxsiy fazilatlari, ma'naviy qiyofasi o'quvchilar ongining va xulqining shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Pedagogik faoliyat nuqtai nazaridan tarbiyachi uchun kasbiy malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishning o'zi yetarli emas. U o'z tarbiyaviy faoliyatida yuksak darajadagi fuqarolik fazilatlari intizomi va odamiyligi, axloqiy sifatlari bilan hamta'sir o'tkazadi. Chunki tarbiyachilik talanti juda ko'p sifatlarni chuqur bilish, keng fikr doirasi, ishga jon dildan ko'ngil qo'yishi, bolalarga bo'lgan cheksiz o'z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, atrofida sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga mustaqil munosabat bilan yondoshadigan, har jihatdan barkamol insonni tarbiyalashga imkoniyat yaratadi. Tarbiyachi mehr-muhabbatli, muomalada nazokatli, serzavq, temperament, aqlli, axloqli, vazmin va kamtar bo'lishi talab etiladi. Bunga yana tarbiyachilik tajribasi qo'shilsa, ishda muvaffaqiyat ta'minlanishi tabiiydir. Tarbiyachilik mahorati tarbiyachining asosiy qurolidir.

Tarbiyachidan madaniyat darajasining kengligi, pedagogik odob talablariga rioya qilish, har bir o'quvchi shaxsini inson sifatida hurmat qilish bilan unga nisbatan talabchanlikni unutmastlik, tashkilotchilik malakalariga ega bo'lishi, o'z malakasini tinimsiz oshirib borishi bilan ishga ijodiy yondoshish talab qilinadi. Muhimi shundaki, tarbiyachining o'zi bolalarni tarbiyalamoqchi bo'lgan g'oyaviy-axloqiy g'oyaga mos bo'lishi kerak. Tarbiyadagi xatolarning ko'pchiligiga asosiy sabab, o'quvchining oldiga qo'yilayotgan talablar tarbiyachi xarakterida hamisha ham namoyon bo'lavermasligidadir.

Tarbiyachining faol tashkilotchi sifatida hamisha namuna ko'rsatishi muhim ahamiyatga ega. Ayni vaqtda u kommunikativ (kattalar bilan ham, kichiklar bilan ham tez aloqa o'rnatish olish) qobiliyatiga ega bo'lishi, ro'y berayotgan dalil va hodisalarni faqat pedagogik qoidalarga bog'lab baholashgina emas, balki ro'y berishi sababiga qarab, hukm ham chiqarishi pedagogik optimizm bilan ijod qilish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

Tarbiyachi maktabdagi eng universal pedagog hisoblanib, u bajaradigan mehnatning o'lchovi, chegarasi yo'q. Uning bilmagan ishi, uddasidan chiqa olmaydigan sohasi bo'lmaydi.

Shu bilan bir qatorda, u beg'araz, xolis va ta'masiz shaxs bo'lib, jamoatchilik asosida ishlaydi. Tarbiyachi, pedagoglar, ota-onalar va o'qituvchilarni o'zaro bog'lovchi shaxs sifatida barcha tomonlarning nuqtai-nazarini hisobga olishi, harakatlarni bir markazga birlashtirishi, o'zaro aloqalarning to'g'ri bo'lishiga ta'sir o'tkazishi va ayni vaqtda o'zining fikrini ta'minlay olishi kerak. Bu esa donolikdir.

Mana shu fazilatlar tarbiyachining tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishga va uning muvaffaqiyatini ta'minlashga garov bo'ladi.

Demak, tarbiyachi quyidagi shaxsiy sifatlarga ega bo'lishi zarur:

1. O'quvchilarga mehribon, hamkor, hamjihat va har bir o'quvchiga individual yondasha olishi lozim.

2. Izlanuvchan bo'lishi, o'zining g'oyaviy-siyosiy bilimini oshirib borishi zarur.

3. Kasbiy ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi lozim.

4. Tarbiyachi mehr-muhabbatli, muomalada nazokatli, serzavq, temperament, aqlli, axloqli, vazmin va kamtar bo'lishi talab etiladi.

5. Tolerant, tashkilotchi, izlanuvchan, ijodkor, g'oyaviy-axloqiy e'tiqodli bo'lishi zarur.

6. Kommunikativlik (kattalar va kichiklar bilan aloqa o'rnatish) qobiliyatiga, optimistik ruhga ega bo'lishi lozim.

7. Beg'araz, xolis va ta'masiz shaxs bo'lishi kerak.

II. O'quvchilarni o'rganish diagnostikasi. Tarbiyaga majmualiy yondashishda biror o'quvchini ham e'tibordan qochirish tarbiyachi uchun alohida masaladir. Tarbiyalash uchun tarbiyachi tarbiya ob'ekti bo'lgan o'quvchini yaxshi bilishi, uni yaxlit idrok etishi kerak. Ko'pchilik sinf rahbarlari o'quvchini darsda o'quvchi, musobaqada sportchi sifatida, ya'ni har bir aniq ish sharoitidan kelib chiqib idrok etadi va shunga ko'ra muomala qiladi, o'quvchi shaxsining boshqa tomonlari esa hozircha hisobga olinmaydi. Ammo har bir o'quvchi o'z tajribasi, o'z emotsional madaniyati darajasi, qadrlaydigan narsalari, ehtiyojlari, talablari, umidlari, aloqalari, munosabatlari kabi butun bir dunyosi bor. Tarbiyada ana shular hisobga olinishi kerak. Tarbiyachi o'z o'quvchisining ichki dunyosini, kechinmalarini, irodasini, qiziqishini, xarakter xususiyatlarini yaxshi bilsagina, uning qalbiga yo'l topa oladi va o'quvchiga ta'sir etishning to'g'ri yo'lini aniqlaydi. Ana shunday tarbiyachi tarbiyada yetakchi o'rinni egallaydi. Shuni ham unutmaslik kerakki, o'quvchiga tarbiyaviy ta'sir etuvchi omillar hozirgi davrda g'oyat darajada ko'paydi; oila keng jamoatchilik, radio, kompyuter, televidenie, kino, teatr, kitob, jurnal, musiqa va boshqalar.

Tarbiyachining o'quvchiga tarbiyaviy ta'sir etishidagi yetakchilik, birdamlik rolini tarbiyaviy ta'sirining bu qadar ko'p tarmoqlari orasida saqlab qolish g'oyat qiyinlashib borayapti. Ba'zan o'quvchi tarbiyachidan ko'ra, o'rtog'i, qo'shnisi, ko'chadagi do'stlari kuchliroq ta'sir etishi hollariga duch kelamiz. Ammo buning aksi bo'lgan taqdirdagina tarbiyada muvaffaqiyatga erishiladi. Bunga esa tarbiyachining nuqgai nazari ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Chunki har bir o'quvchida ma'lum kurtaklar, yaxshilik va poklik bilan bir qatorda salbiylik, faollik va **sustkashlik** mavjud. U munosabatga e'tibori jihatidan ham har xil sifatlarga ega. Agar tarbiyachi unga optimistik nuqgai nazardan yondoshsa, o'quvchi yaxshilikka intilib, uning ishonchini oqlaydi. Aksincha, o'quvchiga noumid, yalqov, tartibsiz, o'jar va ters deb hukm chiqarilsa, u holda o'zini xuddi shunday qilib ko'rsatadi, natijada u bu borada ham tarbiyachining ishonchini

Tarbiyachi o'quvchi shaxsini o'rganishga muntazam e'tibor berib borishi kerak. Biz tarbiya haqida gapirganimizda o'quvchini yaxshi bilishimiz kerak, chunki o'quvchilarni bilmay turib uni o'qitib ham, tarbiyalab ham bo'lmaydi.

Tarbiyachi o'quvchilarni yaxshi bilishi uchun ularni o'rganadi. Darsda, darsdan tashqarida, umuman o'quvchining hayoti o'tadigan barcha sharoitda amalga oshiriladi. O'quvchini o'rganish bilan tarbiyachi uning shaxsiy xususiyatlari haqida aniq malumotga ega bo'ladi. Tarbiyadagi bunday muhim tamoyil tarbiyaning eng asosiy qonuniyatidir.

Yoshlarning shaxsiy xususiyati uning o'zlashtirishiga, xulqiga, munosabatlariga, jamoadagi o'rniga ta'sir etadi. Shu boisdan ham jamoadagi shaxslar tarbiyalanayotganda alohida o'quvchini unutish yaramaydi. Chunki tarbiyachi ko'pgina tajjiliy ishlar uyushtirishda (anjumanlar, sayyohatlar, kitobxonlik kechalari,

munozara va bahs kechalari)ni kimga suyanish, kimga qanday vazifa yuklash, kimga mustaqillik berish va kimga muntazam yordamlashish kerakligini faqat ularning shaxsiy xususiyatlarini yaxshi bilish tufayligina bexato aniqlaydi. Shaxsiy munosabat bolaga tarbiyaviy ta'sir etishning eng samarali yo'lini topish imkonini beradi.

Tarbiyaviy ishlar jarayonida tarbiyachi butun sinf jamoasini ham o'rganishi kerak. Shuning uchun u jamoani va alohida o'huvchini o'rganishning dasturiga ega bo'lishi lozim.

Tarbiyachi o'ziga berilgan sinfni qabul qilib olish bilan o'quvchilar haqida ko'pgina ma'lumotlarni aniqlaydi. Bu ma'lumotlar o'quvchining oilasidan, o'qituvchilaridan, o'rtoqlaridan olinadi va tarbiyada yagona ta'sir birligi ham shu asosda vujudga keladi.

Mana shu o'rinda biz o'quvchilar, ota-onalar va o'qituvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar masalasiga alohida to'xtalmoqchimiz. Bu uchlik (o'quvchi, oila, maktab) markazida yoshlar, ya'ni o'quvchi turadi, maktab va oila esa unga ikki tomondan ta'sir etadi.

Ayni vaqtda o'quvchi maktab bilan oila o'rtasidagi aloqani ta'minlovchi vosita rolini ham bajaradi. Lekin uning maktab haqidagi oilaga yetkazadigan ma'lumotlari hamisha ham haqiqatga to'g'ri kelavermaydi va u hatto kundalik orqali beriladigan axborotlarni ham o'zicha talqin etib boradi. Ko'pgina oila bilan maktab o'rtasidagi vujudga keladigan anglashilmovchilik ham mana shunday ro'y beradi. O'quvchi kattalarning o'zi bilan muomala qilayotgan vaqtda fikrini solishtirib ko'rish orqali ma'lum xulosaga keladi va o'ziga hukm chiqaradi. Xuddi shu hol xulqida o'z aksini topadi va u bir gal o'qituvchining, boshqa vaqg ota-onasining yonini oladi. Hatgo eng vijdonli o'quvchida ham bu holning ro'y berishi tabiiydir. Ko'pchilik ota-onalar o'quvchining so'ziga qarab, uning axborotlarini mutloqlashtirib maktab haqida hukm chiqarishadi: «mening bolam sira yolg'on gapirmaydi» deyishadi. Bu xil ota-onalarda, «bunday taqdirda o'qituvchi aldayotgan ekanda!?» - degan savol tug'iladi.

III. Tarbiyachi tomonidan shaxs va jamoaning o'rganilishi. Tarbiyachi nihoyatda mas'uliyatli va murakkab vazifani bajaradi. U sinfdagi tarbiyaviy ishlar tashkilotchisi, o'quvchilarning murabbiysi, sinfni tashkil etadi, hamda «Kamolot» tashkiloti, o'qituvchilar, oila, keng jamoatchilik ahli bilan birga ish olib boradi.

So'nggi yillarda tarbiyachining faoliyati turli shakl va metodlar bilan boyitildi. Tarbiyaviy ishlarni tashkil etish va o'tkazishda maktab jamoat tashkilotlarining roli tobora oshirildi.

Ushbu ishni tayyorlashdan maqsad maktabning sinf rahbarlariga hozirgi vaqtda mamlakatda uzluksiz ta'limning yagona tizimini yaratish borasidagi ish uslublarini har tomonlama keng joriy etish va metodik yordam ko'rsatishdan iboratdir. Ideologik muassasalar sifatida maktab oldiga muhim tarbiyaviy vazifalar qo'yilgan, bu esa ayni vaqtda har bir tarbiyachining asosiy vazifasi hisoblanadi.

O'qituvchi tomonidan shaxs va jamoani o'rganishda pedagogik faoliyatning tartibli, rejali amalga oshirilishi muhim ahamiyatga ega. Shu sababli o'qituvchi shaxs va jamoani o'rganishda pedagogik faoliyatni oqilona, puxta rejalashtirishi maqsadga muvofiqdir. O'qituvchi tomonidan bu borada ishlab chiqiladigan reja (namuna)da quyidagilar aks etadi (1-жадвал):

1-jadval. Tarbiyaviy ishlarning taxminiy rejasi

Muddati	Tarbiyaviy ishning asosiy mazmuni	Kundalik ishlar	Ish rejasi va kuzatishlar tahlili
1 -21 mart	Shanbalikda qatnashish va chorak yakunlariga bag'ishlangan majlisda ishtirok etish	1. O'z-o'ziga xizmat qilishni tekshirish 2. Siyosiy axborotlar bilan tanishuv 3. Siyosiy axborotda qatnashish 4. Sinf yig'ilishida qatnashish 5. Sinf bilan shanbalik haqida maslahatlashish	Axborot sust, siyosiy axborotchilar dalillarni sharxlashga qiynalishdi. Majlis faol va jonli o'tdi, faollarda mas'uliyat hissi ortib borayapti.

Alohida sinf jamoalari qo'lga kiritgan ta'lim va tarbiya borasidagi muvaffaqiyatlar butun maktab jamoasining muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Shu nuqtai nazardan qaraganda tarbiyachining mas'uliyati jamiyat oldidagi rahbarlik mas'uliyatidan kam emas. Shuning uchun maktab direktorlari tarbiyachi vazifasiga tajribali, tashkilotchi, mehnatsevar, mahoratli, yosh avlodni sevadigan o'qituvchilarni tayinlab, ular bilan muntazam ish olib boradilar.

Tarbiyachining muhim vazifalaridan biri – bu o'quvchining o'qishga bo'lgan havasi, e'tiqodi va bilim qobiliyatini rivojlantirish, kasb-hunarga bo'lgan layoqatini, yosh va ruhiy xususiyatlari, o'quvchining bo'lg'usi hayoti rejalarini amalga oshirish, o'quvchilarning salomatligini muhofaza qilishdan iborat. Faollarga ishonish, ularni sinf jamoasi orasida obro'sini ko'tarish, o'z vaqtida ularga tegishli yordam ko'rsatish tarbiyachining bevosita asosiy vazifasidir.

IV. O'quvchilar jamoasini o'rganishning asosiy mezonlari. Tarbiyachi tarbiyaviy ishlarga doir masalalarni har tomonlama hal qilish maqsadida tarbiyachi o'quvchilarning ta'lim olishlari, sinfni uyushtirishning taxminiy rejasini tuzadi-ki, bu reja o'quvchilar bilan tizimli ish olib borishda katta imkoniyatlar yaratib beradi.

O'quvchini o'rganishning taxminiy dasturida quyidagi ma'lumotlar o'z aksini topadi:

I. O'quvchilar to'g'risida umumiy ma'lumot:

1. O'quvchining manzili.
2. Ota-onasining kasbi va ish joyi;
3. Oila a'zolari va ularning moddiy ta'minlanganlik darajasi.
4. Oilada ota-onasining o'zaro munosabati mazmuni.
5. Oilaqiy tarbiya xarakteri.
6. O'quvchining kundalik rejimi.
7. O'quvchining oila xo'jalik ishlaridagi ishtiroki.
8. O'quvchi hayotidagi muhim voqealar.
9. O'quvchi sog'ligi to'g'risida ma'lumot.

II. Shaxs sifatida o'quvchi taraqqiyotining umumiy holati:

1. Umumiy taraqqiyoti (nutq madaniyati, dunyoqarashi, xarakteri, kino, teatr, muzey, stadionlarga borishi).

2. O'qishga bo'lgan munosabati.
3. O'quvchining davomati.
4. O'quvchining jismoniy mehnatga munosabati.
5. O'quvchining intizomi, xulqi, tirishqoqligi.
- 6.. O'quvchining qiziqishi (o'qishga, sportga).

III. O'quvchining jamoat ishlarida ishtiroki.

1. Sinfning jamoat hayotida ishtirok qilishi.
2. Jamoat ishlarining bajarilish xarakteri.
- Z. O'quvchining sinfda obro'yi va mavqei.

IV. O'quvchi shaxsining asosiy xususiyatlari:

1. Dunyoqarashi, jamoada bo'lishga intilishi.
2. O'quvchining ma'naviy sifatleri, Vatanni sevish, do'stlik, insoniylik, baynalminallik.
3. Irodalilik xarakteri va xususiyatlari (maqsadli bo'lish, faollik, botirlik, tashkilotchilik, mustaqillik, intizomlilik, mardlik, kamtarlik va hokazo).
4. O'quvchi mijozining xususiyatlari va uning ruhiy jarayoni (nutq, diqqat, xotira, xayol, ruhiy holatlar).

V. O'quvchini o'rganish asosida ko'riladigan chora-tadbirlar:

1. O'quvchida qaysi sifatlarni tarbiyalab, rivojlantirish lozim?
2. O'quvchi axloqidagi kamchilikdarni bartaraf qilish uchun nimalar qilish kerak?

Sinfni o'rganishning namunaviy dasturida esa quyidagi ma'lumotlar o'z aksini topishi lozim:

I. Sinf hayotiga oid:

1. Sinfdagi o'quvchilarning yoshi, ruhiy, fiziologik va gigienik holatlari.
2. O'quvchilarning shaxsiy taraqqiyoti, ma'rifatlilik jihatlari.
3. Sinfdagi jamoatchilik ishlari.

II. Sinfning hamjihatligi va uyushqoqligi:

1. O'quvchilarning o'zaro munosabati.
2. O'quvchilarning birgalikda mehnat qilishlari va uning vaqqi.
3. Qizlar va o'g'il bolalarning do'stligi hamda hamkorligi.
4. Jamoa a'zolarini himoya qilish.
5. Yutuq va muvaffaqiyatsizligini angalay bilishi.
6. Maktab tomonidan ko'rilgan chora-tadbirlarda sinf o'quvchilarining ishtiroki.

III. Sinfning tashkilotchiligini ifodalovchi ma'lumotlar:

1. Jamoa bo'lib qiladigan ishlarni o'quvchilar o'zlari mustaqil qila oladilarmi?
2. Vazifa, topshiriqlarni o'quvchilar o'zaro taqsimlay oladilarmi, yo'qmi?
3. O'quvchilar sinf majlisida qabul qilingan qarorlarga itoat qiladilarmi yoki yo'qmi?

IV. Sinfda hamkorlikni ifodalovchi ma'lumotlar:

1. O'quvchilar o'z o'rtoqlarining qaysi odatlarini ma'qul ko'radilar va qaysisini noma'qul hisoblaydilar?
2. Rag'batlantirish va chora ko'rishni o'quvchilar qanday tushunadilar?
3. Sinfda tanqid va o'zini-o'zi tanqid qilish mavjudmi?

V. Sinfdagi do'stlik aloqalarining xarakterini yorituvchi ma'lumotlar:

1. O'quvchilarning maktab va undan tashqarida o'zaro do'stlik munosabatlari qanday?
2. O'quvchilar bir-biriga nisbatan sezgirlik, kuzatuvchanlik xususiyatlariga egami?
3. O'rtoqlariga nisbatan talabchanligi;
4. O'rtoqlarining kamchiliklarini ko'ra biladimi, yo'qmi?
5. Sinf a'lochilari, zukko, ishbilarmon o'quvchilarning darsdan ketib qoladigan o'zlashtirmovchi o'quvchilarga munosabatlari qanday?
7. Jismoniy jihatdan zaif bo'lgan bolalarga qanday yordamlar beriladi?

VI. Sinf faollari to'g'risidagi ma'lumotlar:

1. Faollar hayoti.
2. Ularning sinfdagi obro'lari.
3. Faollarning o'rtoqlariga nisbatan munosabatlari.
4. Faollar sinfdan ajralib turadilarmi, sinfdagilar ularni hurmat qiladilarmi yoki yo'qmi?

VII. Sinfning maktab bilan aloqasi:

1. Maktabda bo'lgan hodisalardan, boshqa sinfdagi voqeadan sinfning xabari bormi?
2. Tadbirlar to'g'ri yo'lga qo'yilishi uchun sinf o'quvchilari takliflar kiritib turadilarmi yoki yo'qmi?
3. Maktab o'quvchilariga biriktirilgan ishni sinf qanday bajaradi?
4. Sinfning boshqa sinf o'quvchilari bilan aloqalari qanday?
5. Maktab tadbiriy choralari rejalarini rejalashtirishda sinf o'quvchilari qanday ishtirok etadilar?

O'quvchilar jamoasining yuqorida ko'rsatilgan usullar bilan holatini o'rganish o'qituvchiga ko'p imkoniyatlar beradi.

Tajribali o'qituvchilar hamma vaqt biror sinfning rahbarligini olishdan avval, sinfni batafsil o'rganadilar, bu esa keyinchalik tarbiyachiga vaqtni tejashda, aniq ish rejalarini tuzishda va o'z faoliyatini o'quv yili davomida belgilangan tarzda amalga oshirishda yordam beradilar.

VIII. Tarbiyachi ishini rejalashtirish.

Maktabning tarbiyaviy ish rejasini o'quv yilining boshida pedagogik jamoa majlisida tasdiqlanib olinadi. Har bir tarbiyachi o'z sinfi tarbiyaviy ish rejasini tuzishda maktab tarbiyaviy ish rejasida ko'rsatilgan chora-tadbirlarni o'z sinfiga taalluqli bo'lgan qismlarini kiritib reja tuzadi.

O'quvchilarni tarbiyaviy ishi maktabning tahminiy tarbiyaviy ishlar mazmuniga muvofiq bir sinf yoki parallel sinfning rahbarlari majlislarida o'quvchilarning yoshiga, ruhiy-fiziologik xususiyatlariga mos keladigan tarbiyaviy chora-tadbirlar bajarilishi rejaga kiritilib, tasdiqlanib olinadi.

V. Tarbiyachining tashkilotchilik faoliyati. «Tashkilotchilik» tushunchasining o'zi keng ma'noga ega. Maxsus bir maqsadni ko'zlab u yoki bu ishni, tadbiriy choralarni tashkil etish tarbiyachidan katta malaka va maxsus mahoratni talab qiladi.

Tarbiyachining tashkilotchilik faoliyati bir qator elementlardan tarikh topadi. Jumladan:

a) o'tgan ishlarni tahlil qilish, uning muvaffaqiyati yoki muvaffaqiyatsizligi sabablarini belgilab olish.

b) sinfdagi o'tkaziladigan barcha ishlar tarbiyaviy xarakterga ega bo'lib, ma'lum maqsadni ko'zlab o'tkazishni va tarbiyachi turli tarbiyaviy ishlarni o'tkazishdan oldin shu ishning modelini tuza bilishi lozim.

v) tarbiyachi oldiga qo'yilgan maqsadga erishish uchun o'z oldiga aniq vazifa qo'ya bilishi lozim.

g) tarbiyachi har bir tarbiyaviy choralarni amalga oshirishda o'qituvchi va o'quvchilarning qobiliyatlariga qarab vazifalarni taqsimlash, ma'lum reja asosida tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazish o'rni, vaqti, soati, javobgar shaxslar va tizimligini aniqlash lozim.

d) ma'lum tarbiyaviy ish bajarishda bajaruvchi kishilarni ish joylarida joy-joyiga qo'yishi, vazifalarni to'g'ri taqsimlash, ishga boshqa o'qituvchilarni, ota-onalar, o'quvchilar, otaliq tashkilotlari va ish ob'ektini aniqlash lozim.

Tarbiyachi faoliyatining **asosiy yo'nalishlari** quyidagilardan iborat:

1. Har bir o'quvchini shaxs sifatida o'rganish.

2. O'quvchilarni sinfda tarbiyalashni tashkil etish.

3. O'quvchilarning bilim saviyasini oshirish, tartib-intizomini mustahkamlash.

4. Sinfdagi darsdan tashqari ishlarni tashkil etish va o'tkazish.

5. Fan o'qituvchilarining tarbiyaviy ishlarini (koordinatsiyalash) birlashtirish.

6. Ota-onalar bilan ishlash.

7. Tarbiyachi fanni o'qitish ishlariga nisbatan tarbiyaning ko'p qirrali muhim vazifalarini bajaradi. Shuning uchun uning oldiga juda katta pedagogik va psixologik talablar qo'ygan, shu talablar tarbiyaviy ishlarni yuqori darajaga ko'tarishi muhim rol o'ynaydi.

Tarbiyachi faoliyatiga nisbatan quyidagi **talablar** qo'yiladi: yuqori g'oyaviylik va onglilik; obro'-e'tiborga va hurmatta ega bo'lishi; pedagogik mahorat, pedagogik odobga ega bo'lish; madaniy qobiliyatning mavjudligi; yosh avlodga nisbatan hurmat va ehtiromli bo'lish; tashkilotchilik malakasi va mahoratiga ega bo'lish; tarbiya ishlariga nisbatan ijodiy munosabatda bo'lish; tarbiyachi kasbini yuqoriga ko'tarish va mustaqil bilim olish qobiliyatiga ega bo'lish.

Shunday qilib, ta'lim muassasalarida o'qituvchi tegishli fan bo'yicha kasbiy malakaga ega bo'lgan mutaxassis sifatidagina faoliyat olib bormay, tarbiyachi sifatida ham ma'naviy-ma'rifiy ishlarni amalga oshiradi. Tarbiyachining mahorati sinf o'quvchilarini uyushtirishda, ular o'rtasida o'zaro hamjihatlik, hamkorlik, o'zaro yordamni qaror toptirishda, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni maqsadli, samarali tashkil etishda ko'zga tashlanadi. O'z faoliyatida tarbiyachi o'quvchilarni o'rganishga alohida ahamiyat qaratishi zarur, zero, shundagina sinfda uyushqoqlikni ta'minlay oladi. Bu borada tarbiyachining tashkilotchilik qobiliyatiga egaligi qo'l keladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Tarbiyachi ishini rejalashtirish deganda nimani tushanasiz?

2. Tarbiyachi ish rejasini tuzishda qanday talablarni inobatga olishi lozim?

3. Tarbiyachilar tomonidan ishlab chiqiladigan rejada asosan qanday

yoʻnalishlar aks etadi?

4. Tarbiyachining ish rejasida qanday muddatlarga moʻljallangan vazifalar aks etadi?

5. Tarbiyachi ish rejalarining qanday turlari mavjud?

6. Taqvim reja nima va u qanday tuziladi?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Temirova S. Sinf rahbari faoliyati. – Toshkent: “Oʻqituvchi”, 1983.

2. Usmonov R. Odobnoma. – Toshkent, “Oʻqituvchi”, 1985.

3. Qosimov O. Giyohvandlik oqibati. – Toshkent: “Meditsina”, 1989.

9. Sinf rahbari / Mualliflar jamoasi. – Samarqand: Samarqand Davlat universiteti, 1989.

OʻQITUVCHINING TARBIYA TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA FAOLIYAT OLIB BORISHI

Oʻquv rejasi:

1. Tarbiya qonunlari, qonuniyatlari va tamoyillari.

2. Tarbiya metodlari va vositalari.

3. Tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish.

4. Tarbiya texnologiyalari.

5. Tarbiyaviy vaziyatlar, ularni loyihalashtirish va modellashtirish.

6. Shaxsning tarbiyalanganlik darajasini aniqlash (diagnostika).

Tayanch tushunchalar: tarbiya, tarbiya texnologiyalari, tarbiya texnologiyalarini modellashtirish, tarbiya qonuniyatlari, tarbiya tamoyillari, pedagogik vositalar, shaxsning tarbiyalanganlik darajasi, shaxsning tarbiyalanganlik darajasini tashxislash.


I. Tarbiya qonunlari, qonuniyatlari va tamoyillari. Jamiyatdagi ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlar muayyan qonunlar asosida kechadi. “Qonun” tushunchasi oʻzida obʻektiv, mavjud, bir-biri bilan chambarchas bogʻliq hodisalarni; “obʻektiv borliqda turli hodisalar oʻrtasida kishi ongidan va ixtiyoridan tashqari hamisha mavjud boʻlgan muhim, zaruriy, barqaror bogʻlanish”²⁰ aks ettiradi. Boshqacha aytganda, qonun oʻzaro bogʻlangan va bir-birini taqozo qiluvchi hodisalar majmuidir.

Shaxs tarbiyasi umumiy ijtimoiy-falsafiy va pedagogik qonunlar bilan birga xususiy jihatlarga koʻra oʻzaro farqlanuvchi taʼlim qonunlari va tarbiya qonunlariga muvofiq tashkil etiladi.

Tarbiya qonunlari²¹ni quyidagilar tashkil etadi (23-rasm):

²⁰ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Шукрона – Ҳ / 5 жилдли. Бешинчи жилд. А.Мадвалиев таҳрири остида. Таҳрир хайъати: Э.Бегматов ва бошқ. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2008. – 331-бет.

²¹ Законы воспитания // https://studref.com/360549/pedagogika/zakony_vospitaniya.



23-rasm. Tarbiyaning muhim qonunlari

1. Tarbiyaning hayotiy faoliyat bilan bog'liqligi qonuni (shaxsning tarbiyasi ijtimoiy sub'ektning aniq maqsad asosida tashkil etiladigan va aniq maqsadga yo'naltirilgan pedagogik jarayonda kechadi).

2. Munosabatlar qonuni (shaxs tarbiyasi bir necha yo'nalish – oilaviy, mehnat, ta'limiy, ishlab chiqarish hamda mavjud moddiy va ma'naviy ehtiyojlarni qondirishga yo'naltirilgan munosabatlar jarayonida tashkil etiladi; munosabatlarning ijobiy va salbiy bo'lishi shaxs rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatadi).

3. Yaqin ijtimoiy muhitni modellashtirish qonuni (tarbiya jarayonining natijasi tarbiyalanuvchi – o'quvchining ijtimoiy-madaniy xarakterdagi hayotiy tajribaga, ya'ni, axloqiy, intellektual, jismoniy, estetik sifatlarga, iqtisodiy, huquqiy, ekologik va jinsiy munosabat to'g'risidagi bilimlarga, mehnat malakalariga, kasbiy ko'nikmalarga, egaligi bilan belgilanadi).

4. Ijobiy faoliyat motivatsiyasi qonuni (tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchi – o'quvchining muayyan faoliyatga yo'naltirishda uni rag'batlantirish xato va kamchiliklarini topib, koyishdan ko'ra ko'proq samara beradi; shu sababli tarbiya jarayonini o'quvchining sifatlariga tayangan holda yutuqlarini e'tirof etib, unga ishonch bildirish asosida tashkil etish har qanday pandu nasihatdan ko'ra ko'proq samara beradi).

5. Tarbiya vositalarini moslashtirish qonuni (muayyan tarbiya vositasi turli yosh, jismoniy, aqliy imkoniyatlarga ega, axloqi, yurish-turishi, xatti-harakatlari bilan o'zaro bir-biridan farqlanuvchi shaxslarga nisbatan bir xil ta'sir ko'rsatmaydi; shu sababli tarbiya vositalarini tanlashda shaxsning yosh, psixologik, fiziologik imkoniyatlari, aqliy salohiyati, axloqiy va estetik yetukligi inobatga olinishi zarur; bu esa turli ijtimoiy muhitda – oilada, mikro muhitda, ta'lim muassasalarida, ishlab chiqarish tashkilotlarida tarbiya vositalarining to'g'ri, oqilona tanlash, shuningdek, tabaqalashtirilgan va individual yondashuv asosida shaxs tarbiyasini tashkil etish zarurligini ko'rsatadi).

6. Shaxsga nisbatan individual tarbiyaviy ta'sirning o'ziga xosligi qonuni (shaxs tarbiyasiga atrof-muhit bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi; agarda atrofdagi kishilar qanchalik ko'p bo'lsa, ularning ta'siri shunchalik yuqori bo'ladi; atrofdagilarning shaxsga ta'siri har bir individning o'z ehtiyojlarini qondirishga

qaratilgan harakatlari asosida kechadi; ota-onalar, oilaning katta yoshli a'zolari, o'qituvchilarning yoki boshqa shaxsga nisbatan ijtimoiy ta'sirning yuqori bo'lishi ularning yoshi, hayotiy tajribasi, ijtimoiy mavqei, jamiyatdagi o'rni bilan bog'liqdir).

Tarbiya bir qator umumiy belgilar²²ga ham ega. Ular: tarbiyalanuvchiga maqsadga yo'naltirilgan ta'sir ko'rsatish; ushbu ta'sirning ijtimoiy yo'naltirilganligi; bola tomonidan muayyan munosabatlar me'yorlarini o'zlashtirilishi uchun sharoit yaratish; shaxs tomonidan ma'lum ijtimoiy rollarning o'zlashtirilishi.

Dialektik rivojlanish nuqtai nazardan voqelik, hodisalar va jarayonlarning ro'y berishi nafaqat qonunlarga, shu bilan birga qonuniyatlarga ham tayanadi.

Qonuniyat – ob'ektiv hodisalar o'rtasidagi bog'lanishlar va ularning qonunlari²³ni ifodalaydi. **Tarbiya qonuniyatlari** – tarbiya jarayonining alohida tomonlari va hodisalari o'rtasidagi ob'ektiv mavjud, takrorlanuvchi, barqaror xarakterga ega ahamiyatli aloqalar²⁴ sanaladi.

Umumiy tarbiya qonuniyatlari quyidagilardan iboratdir:

- tarbiya – natijasi oldindan bashoratlanmaydigan, bir xil natijaga erishish mumkin bo'lmagan maqsadga yo'naltirilgan jarayon;

- tarbiya – ehtiyojlar qayta shakllanadigan, doimiy ravishda o'zgarib turadigan jarayon;

- tarbiya – o'zaro suhbatga asoslanadigan va muallifi noma'lum bo'lgan jarayon;

- tarbiya – to'xtab-to'xtab, ammo uzluksiz davom etadigan jarayon;

- tarbiya doimo madaniy muhim bilan o'zaro aloqador, biroq, bu aloqadorlik to'g'ridan to'g'ri emas, balki vosita – boshqa bir ahamiyatli omil orqali kechadi²⁵;

- tarbiya jarayoni faqatgina bolaning faolligi va unga atrof muhitning ta'siri asosida kechadi;

- tarbiya jarayonida xayrixoh, xavfsiz sharoida bolaning o'z hissiy kechinmalari va munosabatlarini erkin bildirish huquqi ta'minlansagina, uning rivojlanishi samarali kechadi;

- har bir tarbiyaviy faoliyat o'qituvchi tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan bolaning vaziyat ustidan g'olib kelishi bilan yakunlanishi zarur²⁶.

Tarbiya jarayonining muvaffaqiyatli kechishida, shuningdek, tarbiya tamoyillari va ularning to'g'ri tanlanishi muhim ahamiyatga ega. Umumiy holatda tarbiya tamoyillari quyidagi mezonlar asosida tanlanadi:

1. Majburiylik (tarbiya tamoyillarini to'la holda va majburiy tarzda amaliyotga tatbiq etish zarurligini ifodalaydi).

2. Majmuaviylik (tarbiyaviy faoliyatning barcha bosqichlarida barcha tarbiya tamoyillari bir vaqtning o'zida qo'llanishi zarur).

²² Основные признаки воспитания // <http://novogrudokedu.by/index.php/2013-04-18-10-09-00/2013-04-18-12-36-18/101-2013-06-19-08-03-11>.

²³ Ўша манба. – 332-бет.


²⁴ Закономерности воспитания // <https://studfile.net/preview/5373553/page:3>.

²⁵ Законы, закономерности, принципы воспитания. Понятие, сущность методов, приемов, средств и форм воспитания // <https://studfile.net/preview/6175846/page:3>.

²⁶ Закономерности воспитания // <https://zaochnik.com/spravochnik/pedagogika/vvedenie-v-pedagogicheskuyu-professiju/zakonomernosti-i-printsipy-vospitaniya>.

3. *Teng ahamiyatga egalik* (tarbiya jarayonida muhim va bir qadar muhim hisoblanadigan tamoyillar bo‘lmaydi; barcha tamoyillar ahamiyatlilik darajasiga ko‘ra tengdir; tarbiya tamoyillarining teng e’tirof etilmasligi tarbiya maqsadlariga erishmaslikka olib keladi)²⁷.

Tarbiya tamoyillari. Tarbiya mazmunida oldinga qo‘yilgan maqsad va vazifalarga muvofiq o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar, shaxs xulq-atvori hamda sifatlari mohiyati aks etadi. **Tarbiya mazmuni** shaxsning shakllanishiga qo‘yiluvchi ijtimoiy talablar mohiyatidan iborat bo‘lib, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot, kishilik munosabatlari mohiyati va darajasi, jamiyat mafkurasi g‘oyalari asosda belgilanadi. Zamonaviy tarbiya quyidagi tamoyillarga asoslanadi (24-rasm):



24-rasm. Tarbiyaning asosiy tamoyillari

1. **Tarbiya maqsadining aniqligi.** O‘zR mustaqilligining dastlabki yillaridayoq respublikada amalga oshirilishi ko‘zda tutilayotgan tarbiya maqsadi aniq belgilab olindi. O‘zRning “Ta’lim to‘qrisida”gi Qonuni va “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” g‘oyalariga ko‘ra ijtimoiy tarbiyaning asosiy maqsadi – erkin, ijodkor, mustaqil fikr egasi bo‘lgan komil inson va malakali mutaxassisni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iborat.

2. **Bolalar va kattalarning birgalikdagi faoliyati.** O‘qituvchi (tarbiyachi)ning tomonidan milliy va umuminsoniy qadriyatlarning to‘g‘ri anglanishi tarbiya jarayonida o‘quvchi faolligini ta’minlashga yordam beradi.

3. **O‘z-o‘zini anglash.** Tarbiya insonda e’tiqod, demokratik qarashlar va hayotiy pozitsiyaning shakllanishiga olib keladi. Tarbiya mazmunining eng muhim unsurlaridan biri – bu insonning hayotiy o‘z-o‘zini anglashi, uning o‘z shaxsiy hayoti va faoliyatining sub’ekti sifatida e’tirof etilishi bilan tavsiflanadi.

4. **Shaxsga yo‘naltirilganlik.** Mazkur g‘oya ta’lim muassasasi amaliyotining markaziy nuqtasida tarbiyaviy ishlar dasturi, tadbirlar, ularning shakl, metod va vositalari emas, balki o‘quvchi turganligini anglatishga xizmat qiladi.

5. **Ixtiyoriylik.** Tarbiyalanuvchilarning iroda erkinligisiz tarbiya g‘oyalari mohiyatini qaror toptirish mumkin emas. Tarbiya jarayoni oqilona tashkil etilsa, bir

²⁷ Закономерности воспитания // <https://zaochnik.com/spravochnik/pedagogika/vvedenie-v-pedagogicheskuyu-professiyu/zakonomernosti-i-printsipy-vospitaniya>.

vaqtning o'zida o'quvchi va o'qituvchi ma'naviyatini boyitishga xizmat qiladi.

6. Jamoaviylik. Tarbiyaviy ishlar mazmunida jamoaga nisbatan ijobiy munosabatni qaror toptirish yotadi. Jamoa yordamida shaxs kamoloti ta'minlanadi, unda moddiy borliqni anglash, insonparvarlik va o'zaro hamkorlik tuyg'ulariga ega bo'lishi uchun zarur sharoit yaratiladi.

II. Tarbiya metodlari va vositalari. Shaxs tarbiyasi murakkab va jiddiy yondashuvni talab etadigan jarayon sanaladi. Shu sababli uni tashkil etish ota-ona, tarbiyachi va o'qituvchilardan bu jarayonga nisbatan mas'uliyatli yondashishni taqozo etadi. Tarbiya jarayonini tashkil etishda uning mazmuni, shakli va vositalar alohida ahamiyatli sanaladi. Zero, ularning o'zaro birligi asosida tarbiya jarayonida kutilgan natijaga erishiladi. Biroq, tarbiya mohiyatini yoritishda o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lgan yana bir tushuncha mavjud. U tarbiya metodlari tushunchasi sanaladi. Ayni o'rinda ana shu tushuncha, uning mohiyati va tarbiyaviy ahamiyati to'g'risida so'z yuritiladi.

Tarbiya metodi (yunon. "metodos" – yo'l) – 1) tarbiya maqsadiga erishishning yo'li; 2) tarbiyalanuvchilarning ongi, irodasi, tuyg'ulari va xulqiga ta'sir etish usullari sanaladi.

Mohiyatiga ko'ra tarbiya maqsadi va mazmuni metodlarni to'g'ri tanlashga imkon beradi. Maqsad qanday bo'lsa, unga erishish metodlari unga muvofiq bo'lishi zarur.

Ijtimoiy taraqqiyot jarayonida tarbiya metodlarini takomillashtirish muammosi har doim o'ziga xos dolzarblik kasb etib kelgan. Biroq, hech bir tarbiyachi tarbiyaning mutlaqo yangi metodlarini yaratishga qodir emas. Har bir tarbiyachi o'zining imkoniyatiga ko'ra uni hal qiladi, tarbiya jarayonining aniq shart-sharoitlariga mos ravishda o'zining xususiy qarashlarini ifoda etish asosida umumiy metodikani boyitadi.

Tarbiya metodlarining ijobiy va salbiysi bo'lmaydi, tarbiya jarayonida ma'lum yo'lni yuqori darajadagi samarali va samarasiz deya baholash mumkin emas. Ma'lum metodning samaradorligini u qo'llanilayotgan sharoit nuqtai nazaridan baholash mumkin.

Tarbiya metodlarini maqsadli tanlash bir qator omillarga bog'liq. Ular:

1. Tarbiyaning mazmuni shaxsning shakllanishiga qo'yiluvchi ijtimoiy talablar mohiyatidan iborat. Unutmaslik kerakki, aynan bitta vazifa turli xil fikrlar bilan to'ldirilgan bo'lishi mumkin. Shuning uchun metodlarni umuman mazmun bilan emas, balki aniq fikr bilan bog'lash g'oyat muhimdir.


2. O'quvchilarning yosh xususiyatlari. Tarbiyada o'quvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olish maqsadga muvofiqdir.

Yosh xususiyatlari muayyan bir yosh davriga xos bo'lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlar sanaladi.

Aytaylik, mas'uliyat tuyg'usini boshlang'ich ta'lim, o'rta ta'lim va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida ta'lim olayotgan o'quvchilarda ham shakllantirish mumkin. Biroq, har bir bosqichda mazkur sifatni shakllantirish borasida turli metodlar qo'llaniladi.

3. Tarbiyachining ish tajribasi, pedagogik mahorati va tarbiya jarayoniga mas'uliyatli yondashuvi. Ayni bir tarbiya metodi ish tajribasi, mahorati va kasbiy kompetentligi turlicha bo'lgan ota-onalar yoki o'qituvchilar tomonidan qo'lanilganda turlicha samaradorlikka erishiladi.

Tarbiya metodlari bir nechta turga bo'linadi. Ular (25-rasm):




25-rasm. Tarbiya metodlarining asosiy turlari

Shaxsni tarbiyalashda tarbiya metodlari bilan birga usullar ham qo'llaniladi. **Tarbiya usullari** – tarbiyalash, pedagogik ta'sir ko'rsatish xususiyatga ega xatti-harakatlar majmui bo'lib, ular yordamida shaxsning qarashlari, motivlari, harakatlarini o'zgartirish maqsadida uning xulqiga va pozitsiyasiga tashqi ta'sir ko'rsatiladi.

Ayni o'rinda shuni alohida qayd etib o'tish lozimki, har qanday tashqi ta'sir ham tarbiya jarayonida ijodiy o'zgarishlarni hosil qilishga xizmat qilmaydi. Qachonki, tarbiyaviy xarakterga ega tashqi ta'sir tarbiyalanuvchi shaxsining ichki intilishlari bilan o'zaro mos kelsagina, uning uchun ahamiyat kasb etadi.

Tarbiya usullarining bir necha turlari mavjud. Biroq, ular orasida keng ommalashgan va tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi tarbiya usullari ham mavjud (26-rasm):



26-rasm. Tarbiya usullarining asosiy turlari

Ijobiy vaziyatni yanada mustahkamlovchi tarbiya usullari tarbiyalanuvchi va tarbiyachi (ota-ona, o'qituvchi, mas'ul shaxs)lar o'rtasidagi munosabatning yaxshilanishini ta'minlaydi. Bu turdagi tarbiya usullari sifatida tarbiyalanuvchi bilan birgalikda ma'lum faoliyatni tashkil etish (o'yinchoqlarni birga yig'ishtirish, bolaga uning uchun murakkab sanalgan ishni bajarishda ko'maklashish, bolani o'ylantirayotgan muammolar bilan qiziqish, unga katta ishonch bildirib, muayyan topshiriq berish kabilarni aytish mumkin. Bu jarayonda bolaning ko'nglini ko'taradigan, unda o'ziga nisbatan ishonchni hosil qildiradigan jumlar ("Balli!", "Barakalla!", "Yashavor!", "Juda zo'r! Menga senga ishongandim!", "Bilaman, sen buni uddalaysan!", "O'ylaymanki, bu sen uchun qiyin emas!", "Bu ishni birgalikda bajarishimizga nima deysan!") kabilarni ham qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Bola tomonidan biror-bir ishning muvaffaqiyatli bajarilgani uchun uni rag'batlantirish, mas., kichik yoshdagi bolalar uchun shirinliklar va o'yinchoqlar, o'rta maktab yoshidagi bolalar uchun o'quv qurollari yoki o'yinchoqlar, katta yoshdagi bolalar uchun qimmatbaho bo'lmagan, ular yoqtirgan rangdagi, rusumdagi kiyimlarni, qiziqarli kitoblarni, ularning qiziqishlaridan kelib chiqqan holda maishiy buyumlar, sovg'a qilish tarbiya jarayoni ishtirokchilari o'rtasidagi samimiy munosabatni yanada mustahkamlaydi. Bolalarda ijobiy his-tuyg'ularni shakllanishiga yordam beradi, ularni bundanda yaxshi bo'lishga undaydi.

Salbiy vaziyatni yanada kuchaytiruvchi tarbiya usullari tarbiyalanuvchi va tarbiyachilar o'rtasidagi shunday ham yomon, salbiy munosabatni yanada yomonlashtiradi. Bu kabi tarbiya usullari sirasida tarbiyalanuvchining salbiy xatti-harakatlari uchun unga koyish, do'q-po'pisa qilish, jazolash keng qo'llaniladi. Ko'pchilik ota-onalar ijobiy va salbiy vaziyatlarni kuchaytiruvchi tarbiya usullaridan ketma-ket foydalanadi.

Tarbiya usullarini samarali qo'llashda eng muhimi – vaziyatni to'g'ri baholay olish, bola holatini tushunishga harakat qilish sanaladi. Umuman, imkon qadar salbiy vaziyatni yanada kuchaytiradigan tarbiya usullaridan foydalanilmagan ma'qul. Chunki, bu kabi usullar bolani ota-ona, o'qituvchilardan ko'ngli sovishiga olib keladi. Bordi-yu, bola salbiy harakatlarni sodir etganda ham unga o'z xatolarini anglashga imkon berish, ulardan to'g'ri xulosa chiqarib olishini ta'minlash pedagogik jihatdan to'g'ri yondashish hisoblanadi.

Ayrim ota-onalar bolalarni tarbiyalashda salbiy vaziyatni kuchaytiruvchi tarbiya usullarini qo'llashda jazolovchi aniq bir vositalarni: xona burchagi, "jazolovchi stul" yoki bola yolg'iz qoldiriladigan (yo'lakdagi yoki hovlidagi) joyni belgilab oladilar. Bu yerda bola yolg'iz qolib o'z xatolari, kamchiliklari to'g'risida o'ylab oladi. Jazo "joyi"dan ozod qilingach, bola o'z kamchiliklarini, salbiy xatti-harakatlarini to'g'rilashga va'da beradi.

Yana bir boshqa guruhda ota-onalar esa bolaning salbiy xatti-harakatlari uchun jazo maqsadida jarimalardan foydalanadi. Bolaning noto'g'ri xatti-harakatlari uchun qo'llaniladigan jarimalar – multfilmlarni ko'rish, shirinliklarni iste'mol qilish, kompyuter o'yinlarini o'ynamaslik uchun ta'qiq bo'lishi mumkin.

Uchinchi turdagi tarbiya usullari bola, tarbiyalanuvchini ishontiradigan suhbatlar sanaladi. Ushbu usulni qo'llash uchun tarbiyalanuvchilarning yoshlarini chegaralab bo'lmaydi, aksincha, bu kabi suhbatlar barcha yoshdagi balog'atga yetmaganlar

uchun birdek samarali bo‘ladi. Ishonch hosil qiladigan suhbatlarning bolani o‘z xatti-harakatlarini tushuntirishga, ular yuzasidan izoh berishga undashga xizmat qilishi muhim ahamiyatga ega. Qolaversa, ota-onalar, o‘qituvchilarning kichik yoshdagi bolalar bilan suhbatlashishda “Mening o‘ylashimcha, bu ishing to‘g‘ri emas, o‘zing bu haqida nima deysan?”, “Ayt-chi, seningcha shu ishing to‘g‘rimi?”, “Agar bordiyu, shu ishni men qilgan bo‘lsam, sen nima degan bo‘larding?”, “Agar Komil bunday qilganida sen xafa bo‘lmagan bo‘larmiding?” kabi savollar asosida bolani o‘z xatti-harakatlari yuzasidan o‘ylab ko‘rishga undash maqsadga muvofiqdir. Bu o‘rinda bolaga uning harakatlari mazmunini anglatish bilan birga, to‘g‘ri xatti-harakat qanday bo‘lishini tushuntirish, buning natijasida atrofdagilarning qanchalik xursand bo‘lishlarini aytib o‘tish maqsadga muvofiqdir. Bunday suhbatlar hech qachon samarasiz bo‘lmaydi. Biroq. suhbatlashish chog‘ida bolaga zo‘rlik qilinsa, bosim o‘tkazilsa, bu haqidagi ma‘lumotlar bolaning miyasida uzoq vaqt saqlanib qoladi. Hatto bir necha yillar o‘tgandan keyin ham bola bu haqida o‘ylaydi.

K.D.Ushinskiyning fikriga ko‘ra, o‘quvchilarda shaxsiy sifatlarni hosil qilishda pedagogik faoliyatni quyidagicha tashkil etish tarbiyalovchi xarakterga ega usullardan samarali foydalanish imkoniyatini yaratadi:

1) tarbiya vazifalarini aniqlashtirish va o‘quvchilarda u yoki bu faoliyat turiga nisbatan ehtiyojni yuzaga keltirish;

2) faoliyat usullarini yoritish va ularni tegishli bilimlar bilan qurollantirish (ongni rivojlantirish);

3) qo‘yilgan vazifalarni ham qilish bo‘yicha amaliy harakatlarni tashkil etish;

4) namoyish qilingan harakatlarning o‘quvchilar tomonidan dastlabki qabul qilinishini tashkillashtirish (harakatlar namunasi orqali);

5) faoliyat va xulq-atvor usullarining takomillashtirish va mustahkamlash bo‘yicha mashqlarning izchil bajarilishini ta‘minlash;

6) o‘quvchilarga mashqlarni takomillashtirish yuzasidan talablar qo‘yish;

7) o‘quvchilarni ogohlantirish va ularning xulq-atvorlarini nazorat qilish.

Pedagogik jarayonda tarbiyani samarali tashkil etishda muayyan vositalardan ham foydalaniladi.

Vosita (arab. chora, tadbir, usul, o‘rta, o‘rtadagi) – “biror maqsadga erishish yoki biror ishni amalga oshirish uchun dastak bo‘lib xizmat qiladigan narsa, qurol”, “biror narsani amalga oshirish uchun xizmat qiladigan, foydalaniladigan narsa, omil.

Manbalarda pedagogik jarayonda qo‘llaniladigan vosita: 1) faoliyatning turli ko‘rinishlari; 2) pedagogik faoliyatda qo‘llaniladigan moddiy va ma‘naviy madaniyatga oid barcha predmetlar majmui ekanligi; 3) ko‘p holatlarda metodik usullar va hatto metodlarning o‘zini ham ta‘lim va tarbiya vositalari bilan bir deb qabul qilinishi aytib o‘tiladi.

Pedagogik manbalarda kishlik faoliyatini ham tarbiya sifatida qabul qilish zarurligi e‘tirof etilgan. K.D.Ushinskiy o‘qish va mehnatni shaxs ongi, his-tuyg‘ulari va xulq-atvoriga ta‘sir etuvchi vosita sifatida e‘tirof etadi. Pedagogning qayd etishicha, o‘yin, o‘quvchining ishi, o‘qishidan tashqari, uning hayoti, o‘rtoqlariga va tarbiyachilari (o‘qituvchilar, ota-onasi)ga bo‘lgan munosabatini ham vosita deb qabul qilish mumkin.

Mehnat shaxsni tarbiyalashning eng ta'sirchan vositasidir. Zero, mehnat yordamida shaxsda ma'naviy-axloqiy, estetik his-tuyg'ular shakllantiriladi, bilim va ishonch, e'tiqod, g'oyalar hosil qilinadi, xarakter, iroda va boshqa sifatlar tarbiyalanadi.

Tarbiya vositalari – tarbiya jarayonining ta'sirchanligini oshirish maqsadida qo'llaniladigan moddiy buyumlar, narsalar, ma'naviy omillar, faoliyat (o'yin, o'qish, mehnat, muloqot) hamda hissiy yondashuv ko'rinishi.

Tarbiyaning **rag'batlantiruvchi vositalari**: maqto'v so'zlarini bayon qilish, rahmatnoma bildirish, mukofotlash kabilar bo'lsa, jazolovchi vositalari – koyish, tanqid qilish, tanbeh berishda ishlatiladigan so'zlar, og'zaki hayfsan berish, yig'ilishda muhokama qilish, boshqa sinfga yoki maktabga o'tkazish, mas'ul organ qaroriga ko'ra ta'lim muassasasidan haydash, axloq tuzatish muassasalariga yuborish kabilardir.

III. Tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish. Ta'lim jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish o'quvchilar tomonidan mavjud ilmiy bilimlarni puxta o'zlashtirilishini kafolatlovchi yondoshuv hisoblanadi. Bizga yaxshi ma'lumki, «ta'lim texnologiyasi» tushunchasi ta'lim jarayonining mohiyati, uning bosqichlari, o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida kechadigan ta'limiy munosabatlarning mazmunini anglatishga xizmat qiladi.

«Pedagogik texnologiya» tushunchasi esa o'z mohiyatiga ko'ra pedagogik faoliyatning eng muhim ikki jihati, ya'ni, ta'lim hamda tarbiya jarayonining texnologiyalashtirilishini ifoda etishi zarur. Biroq so'nggi besh yil mobaynida yangi pedagogik texnologiyalar va pedagogik faoliyatni uyushtirish jarayonida ulardan foydalanish mavzusida yaratilgan manbalarning deyarli barchasida ta'lim jarayonining texnologiyalashtirish muammosi uchun asosiy ob'ekt tarzida qabul qilinganligining guvohi bo'ldik.

Holbuki, barkamol shaxsni shakllantirish muammosining ijtimoiy zaruriyat sifatida e'tirof etilayotganligini nazarda tutadigan bo'lsak, tarbiya jarayonini tashkil etishga nisbatan yangicha yondashuvni qaror toptirish, mazkur jarayonni texnologiyalashtirishga erishish muhim pedagogik vazifalardan biri ekanligini yanada chuqurroq anglaymiz.

Tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish aniq maqsadga va ijtimoiy g'oyaga asoslangan hamda o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatning tashkiliy-texnik jihatdan uyushtirilishi demakdir.

Ta'lim jarayonidan farqli ravishda, tarbiya jarayonini texnologiyalashtirishda mazkur jarayonning samarasini qisqa muddat oralig'ida ko'ra olish imkoniyati yo'q. Tarbiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlari, o'quvchi va o'qituvchi o'rtasida yuzaga kelish ehtimoli bo'lgan ziddiyatlar tarbiyaviy jarayonni texnologiyalashtirishga nisbatan ijodiy va mas'uliyatli yondoshish zarurligini taqozo etadi.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalari amaliyotidan ma'lumki, uzoq yillar davomida mazkur muassasada faoliyat olib borayotgan o'qituvchilarning ko'pchiligi tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etishga nisbatan «tarbiyaviy ishlar rejasida belgilangan

tadbirlarni o'tkazishga majburman» qabilida yondoshib kelganlar. Ularning asosiy e'tibori o'zlari raqbarlik qilayotgan sinf o'quvchilarini avvaldan tayyorlangan stsenariyni yod olish va unga qat'iy amal qilishga majburlash, shuningdek, «maktab ma'muriyati hamda jamoasi oldida izza bo'lib holishga yo'l qo'ymaslik» tamoyiliga muvofiq tarbiyaviy tadbirni uyushtirishga qaratilgan edi. Endilikda tarbiyaviy tadbirlarning o'tkazilishiga nisbatan bunday yondoshuvlardan voz kechish maqsadga muvofiq. Zero, tayyor stsenariy asosida muayyan tadbirni tashkil etish jarayonida uning asosiy sub'ektlari bo'lgan o'quvchilar faol ishtirokchi va tadbir natijasini belgilovchi shaxs sifatida emas, balki oddiy ijrochi sifatida qatnashadilar. Bu holat esa bir qator salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Xususan:

1) o'quvchilarda tarbiyaviy tadbirlarning o'tkazilishiga nisbatan salbiy munosabat shakllanadi;

2) o'quvchilarda mustaqil fikrlash hamda ijodkorlik qobiliyatining tarbiyalanishi uchun imkoniyat yaratilmaydi;

3) o'quvchilarda tarbiyaviy tadbirlarning o'tkazilishi ularning shaxs sifatida kamol topishlarini ta'minlashga yo'naltirilganligi haqida emas, balki sinfning ta'lim muassasasi jamoasi oldida «soxta obro'» orttirishi uchun xizmat qiluvchi vosita ekanligi to'g'risidagi xulosaning shakllanishi uchun sharoit yuzaga keladi.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida tashkil etiluvchi tarbiyaviy tadbirlarga nisbatan texnologik yondoshuv quyidagi holatlarning namoyon bo'lishi bilan tavsiflanadi: tarbiyaviy tadbir mavzusi va g'oyasini o'quvchilar tomonidan bildirilgan shaxsiy tashabbuslar, ularning hohish-istaklariga ko'ra belgilash; tarbiyaviy tadbir stsenariysini ishlab chiqishda o'quvchilarning mustaqil faoliyat yuritishlari uchun shart-sharoitlarni yaratish; tarbiyaviy tadbir mazmunida o'z ifodasini topgan rollarning majburiy tarzda emas, balki o'quvchilarning layoqati, qobiliyati, shuningdek, qiziqishlarini inobatga olish asosida taqsimlanishiga erishish; tarbiyaviy tadbirning tashkil etilishi va o'tkazilishida o'qituvchining roli buyruq berishdan iborat bo'lmay, aksincha, o'quvchilarga yo'l-yo'riq ko'rsatish, ularning faoliyatini yo'naltirib turish hamda zarur o'rinlarda maslahat berish sifatida aks etishiga erishish; tarbiyaviy tadbir maqsadining natijalanganligini sinf, guruh o'quvchilarining faol ishtirokiga tayangan holda muhokama qilish. Muhokama jarayonida o'qituvchi tomonidan turli tanbehlarining berilishiga yo'l qo'ymaslik, aksincha yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarning o'quvchilarning o'zlari tomonidan aniqlanib, ularni bartaraf etish (keyingi tadbirni o'tkazish jarayonida ularning takrorlanishini oldini olish) yo'lida chora-tadbirlarni belgilash muhim ahamiyatga ega.

IV. Tarbiya texnologiyalari. Zamonaviy sharoitda ta'lim amaliyotida o'nlab tarbiya texnologiyalari qo'llanilmoqda. Ayni o'rinda shuni ham aytib o'tish joizki, ta'lim texnologiyalari ham, tarbiya texnologiyalari ham pedagogik vaziyatga individual yondashishni taqozo qiladi. Zero, mavjud vaziyatning o'zigaxos jihatlari qo'llanilayotgan texnologiyalarning samaradorligini belgilab beradi.

Aksariyat adabiyotlarda tarbiya texnologiyalari quyidagi guruhlarga ajratiladi:

1) doimiy qo'llaniladigan texnologiyalar (tarbiya jarayoniga xos tipik masalalarni hal qilishga yordam beradi);

2) vaziyatli texnologiyalar (mavjud vaziyatning o'zigagina xos jihatlarni inobatga olgan holda qo'llaniladigan texnologiyalar);

3) istiqbolli texnologiya (uzoq muddat davomida samarali natijalarni beradigan texnologiyalar)²⁸.

Bugungi kunda tarbiya jarayonida quyidagi texnologiyalar faol qo'llanilmoqda:

1. Rivojlantiruvchi texnologiyalar. Bu turdagi texnologiyalar shaxsning individual xususiyatlarini rivojlantirishga yo'naltiriladi, ularni rag'batlantiradi va tezlashtiradi. Ushbu texnologiyalarni qo'llashda o'quvchi faoliyatning barcha bosqichlarida to'laqonli sub'ekt sanaladi. Har bir tarbiyaviy jarayon shaxsning rivojlanishiga muayyan hissa qo'shadi. Rivojlantiruvchi texnologiyalarni maqsadga muvofiq qo'llash orqali talabada mustaqillik, shaxs sifatida rivojlanishi uchun javobgarlik, sabr-toqat, qat'iyatlilik, tartiblilik, bosiqlik, tashabbuskorlik, ijodkorlik, tashkilotchilik, mustaqillik, iroda kabi sifatlar shakllantiriladi. Natijada u o'z maqsadini amalga oshirishda mehnatsevar, intizomli, faol va mahoratli ekanliginamoyon qila oladi. O'z faoliyati natijalarini tahlil qilishga ijobiy yondashsa, o'z-o'zini baholashga nisbatan talabchan, qat'iyatli bo'ladi.

Treninglar; ijodiy topshiriqlar; keyslar; testlar, boshqotirmalar, mantiqiy masalalar, maxsus mashqlar, tez aytishlar, topishmoqlar, krossvordlar, rebuslar, skanvordlar, chaynvordlar, loyihalar, bellashuvlar, didaktik o'yinlar, "Zakovat" o'yini, lego o'yinlari, mozaikalar, stol o'yinlari ("Birja", "Bank", "Monopoliya" va b.), konstruktsiyalar va boshqalar²⁹ rivojlantiruvchi texnologiyalar sanaladi.

2. Tabaqalashtirilgan texnologiyalar. Uzluksiz ta'lim tizimida tabaqalashtirilgan texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarning shaxsiy layoqatlari, qiziqishlari, qobiliyatlarini aniqlash asosida ularni turli faoliyat turlariga, xususan, ijtimoiy-foydali mehnat, ishlab chiqarish mehnati, ma'lum ijtimoiy rollarni bajarish (gidlik, bolalar va o'smirlar yetakchiligi, keksalarga yordam ko'rsatish jamoasining a'zosi)ga jalb etilishini anglatadi.

3. Loyiha texnologiyalari. Tarbiya jarayonida samarali qo'llanilib kelinayotgan tarbiya texnologiyalaridan yana biri – loyiha texnologiyalari hisoblanadi.

Loyiha ta'limining ilmiy asoslari bundan 300 yil avval asoslana boshlangan. Nemis pedagogi M.Knollning tadqiqotlarida ko'rsatilishicha, "loyiha" tushunchasi XVI asrda italiyalik me'morlar tomonidan arxitektura sohasining ilmiy asoslarini tizimlashtirgan holda uni fan sifatida e'tirof etilgan vaqtda shakllangan. XVIII asrning oxirida muhandislik sohasining tezkor rivojlanishi dastlab Frantsiya, so'ngra Germaniya, Avstriya, Shveysariyadagi, XIX asr o'rtalarida esa AQShdagi o'quv loyihalarining texnika va sanoat oliy maktablarida keng qo'llanilishi uchun imkoniyat yaratdi.

1911 yilda AQSh ta'lim tizimida "loyiha" tushunchasi ta'limiy kategoriya deya e'tirof etilgan bo'lsa, loyiha metodi didaktik usul sifatida XIX asr boshlarida

²⁸ Виды технологий воспитания // https://studme.org/297924/pedagogika/vidy_tehnologiy_vospitaniya.

²⁹ Инновацион таълим технологиялари / Муслимов Н.А., Усмонбоева М.Х., Сайфуров Д.М., Тўраев А.Б. – Тошкент: "Сано-стандарт" нашриёти, 2015. – 105-106-бетлар.

shakllangan. Ushbu usul amerikalik pedagoglar – V.Kilpatrik, Ye.Kollings va Ye.Parxerstning tadqiqotlarida yanada rivojlantirildi³⁰.

4. O‘yin texnologiyalari. Bu turdagi texnologiyalar “ijtimoiy tajribalarni o‘zlashtirishning barcha ko‘rinishlari: bilim, ko‘nikma, malaka hamda hissiy-baholovchi faoliyat jarayonini hosil qilishga yo‘naltirilgan shartli o‘quv vaziyatlarini ifodalovchi shaxsga yo‘naltirilgan”³¹ligi bilan xarakterlanadi.

O‘z mohiyatiga ko‘ra, o‘yin texnologiyalari ta’lim oluvchilarni muayyan jarayonga tayyorlash, ularda ma’lum hayotiy voqelik, hodisalar jarayonida bevosita ishtirok etish uchun dastlabki ko‘nikma, malakalarni hosil qilishga xizmat qiladi. O‘quvchilar, ota-onalar, pedagogik jamoa a’zolari, ta’lim muassasalarining rahbarlari, jamoatchilik tashkilotlarining vakili va boshqalar sifatida turli rollarni bajarish ularga pedagogik faoliyat mazmuni bilan yaqindan tanishish imkoniyatini yaratish asosida ma’lum faoliyatni samarali tashkil etishga nazariy, amaliy va ruhiy tayyorgarlikka erishish nuqtai nazaridan yordam beradi.

V. Tarbiyaviy vaziyatlar, ularni loyihalashtirish va modellashtirish. Tarbiya jarayonini texnologiyalashtirishda bu jarayonni loyihalashtirish hamda uning asoslarini belgilash muhim ahamiyatga ega. Tarbiya jarayonini loyihalash quyidagi bosqichlarda kechadi:

Tarbiya jarayonini loyihalash bosqichlari:

- 1) tarbiyaviy tadbir mavzusiga doir materiallarni yig‘ish;
- 2) tarbiyaviy tadbir maqsadi va vazifalarini belgilash;
- 3) tarbiyaviy tadbirning mazmunini ishlab chiqish;
- 4) tarbiyaviy tadbir shakli, metodlari va vositalarini tanlash;
- 5) tarbiyaviy tadbirni tashkil etish va o‘tkazish (davomiyligi) vaqtini belgilash;
- 6) tarbiyaviy tadbir stsenariysini ishlab chiqish;
- 7) o‘quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ularning faollik darajalarini norasmiy (o‘quvchilarni bu haqida xabardor qilmasdan) baholash;
- 8) loyihani amaliy faoliyatda qo‘llash;
- 9) tarbiyaviy tadbirni tashkil etish jarayoni;
- 10) tarbiyaviy tadbirning o‘tkazilish holati (samarali, samarasiz, muvaffaqiyatli, muvaffaqiyatsiz kechganligi)ni muhokama qilish va yakuniy xulosa chiqarish.

Bu jarayonda tarbiyaviy tadbirlarning tashkil etilishiga nisbatan texnologik yondoshuv mohiyati o‘quvchilar mustaqilligini ta’minlashda quyidagi omillarning mavjudligiga e’tiborni qaratishni ham taqozo etadi: o‘quvchilarda tarbiyaviy tadbirlarning o‘tkazilishiga nisbatan ichki ehtiyoj, qiziqish va rag‘batning mavjudligi; o‘quvchilarning tarbiyaviy tadbirlarni mustaqil tashkil etish borasida muayyan tajribalarga ega ekanliklari; tarbiyaviy tadbir g‘oyasining o‘quvchilar ichki ehtiyojlariga mos kelishi.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari amaliyotida yuqorida bayon etilgan omillarni inobatga olish va shu asosida tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish ularning muvaffaqiyatli tashkil etilishini ta’minlab qolmay, balki o‘quvchilarda ularning

³⁰ Ўша маһба. – 90-бет.

³¹ Ўша маһба. – 112-бет.

o'tkazilishiga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantiradi, ma'naviy-axloqiy sifatlarning tarbiyalanishi uchun qulay sharoitni hosil qiladi.

Ta'lim jarayonni loyihalashda odatda modellashtirishdan ham foydalaniladi.

Model – real, haqiqatda mavjud bo'lgan ob'ektning soddalashtirilgan, kichraytirilgan (kattalashtirilgan) yoki unga o'xshagan nusxasi.

Modellashtirish hodisa, jarayon yoki tizimning umumiy mohiyatini to'la yorituvchi modelni yaratishdir.

O'quv jarayonida o'quv, tajriba, ilmiy-texnik, o'yin hamda imitatsion modellar qo'llanilsa, tarbiya jarayonida ko'proq o'yin va imitatsion modellardan foydalaniladi.

O'yin modellari (turli vaziyatlarda ob'ekt tomonidan turli harakatlarni bajarish orqali ko'nikma, malakalarni hosil qilish maqsadida qo'llaniladi; kompyuter, sport, iqtisodiy, harbiy, ishchanlik o'yinlari va boshqalar).

Imitatsion modellar (real voqelikni u yoki bu darajada shunchaki aniq aks ettirish uchun emas, balki aynan unga o'xshatish maqsadida qo'llaniladi; amaliy harakatlarni bajarishga xizmat qiluvchi turli trenajyor va mexanizmlar).

VI. Shaxsning tarbiyalanganlik darajasini aniqlash (diagnostika).

Tarbiyalanganlik shaxsning jamiyatda o'zini tuta bilishi, yaxshi tarbiya ko'rganligi, xushaxloqliligidir. Pedagogik nuqtai nazardan tarbiyalanganlik negizida shaxsning axloqliligi, xushmuomalaligi, yaxshi xulq-atvori, to'g'ri ifodalanadigan nutqi, atroqdagi kishilar bilan turli vaziyatlarda muloqot qila olishi e'tirof qilinadi³².

Tarbiyalanganlik negizida shaxsga xos xususiyatlar to'la namoyon bo'ladi.

O'quvchining tarbiyalanganlik darajasi unda shaxsiy sifatlari o'z yoshiga mos kelishi bilan belgilanadi. Quyidagi baholovchi ko'rsatkichlar o'quvchilarning tarbiyalanganlik darajasini baholashni ta'minlaydi:

1. O'quvchining oiladagi xalq-atvori:

- oilaviy ishlar va muammolarga bo'lgan qiziqish darajasi;
- oila a'zolariga nisbatan xushmuomalada bo'lish;
- oila a'zolarining tanbehlariga munosabat bildirish;
- oilaning katta yoshli a'zolarini hurmat qilish;
- oilaning kichik yoshli a'zolari to'g'risida qayg'urish;
- oilada zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish va o'zining oiladagi majburiyatini bilishi.

2. O'quvchining maktabdagi xulq-atvori:

- o'quv faoliyatiga mas'uliyat bilan yondashish;
- uy vazifalarini o'z vaqtida bajarish;
- mehnatsevarlik, o'quvchi sifatidagi majburiyatlariga mas'uliyatli yondashishi, o'quv faoliyatida tartibli bo'lishi;
- ijtimoiy vazifalarni bajarishda mas'uliyatni his qilishi;
- ta'limning moddiy vositalariga nisbatan ehtiyotkorona yondashishi;
- o'qishdagi yutuq va kamchiliklariga bir xilda yondashishi;
- tanaffus vaqtida tartib-intizomga rioya qilishi.

3. O'quvchining kattalarga munosabati:

³² Оценка уровня воспитанности школьников // https://studme.org/49846/pedagogika/otsenka_urovnya_vospitannosti_shkolnikov.

- kattalarni hurmat qilish va ularga g'amxo'rlik ko'rsatishi;
- kattalarning topshiriq va iltimoslarini o'z vaqtida bajarishi;
- yordamga muhtoj keksalarga yordam ko'rsatishi.

4. O'quvchining tengdoshlariga munosabati:

- jamoaviy faoliyatda faol ishtirok etishi;
- xolis yordam ko'rsatishga tayyorligi;
- jamoa a'zolarini uyaltirib qo'ymaslikka intilishi;
- o'z kechinmalarini jamoa a'zolari bo'lgan tengdoshlari bilan o'rtoqlashishga tayyorligi.

5. O'quvchining jamoa joylaridagi xulq-atvori:

- jamoa joylarida tartib-intizom va tozalikka rioya qilishi;
- tabiatga nisbatan ehtiyotkorona yondashishi.

6. O'quvchining o'ziga nisbatan yondashuvi:

- shaxsiy gigienaga rioya qilishi;
- shaxsiy buyumlariga nisbatan tartibli va ehtiyotkorona munosabatda bo'lishi;
- o'ziga nisbatan tanqidiy yondasha olishi;
- kun tartibiga rioya qilishi;
- rostgo'yligi, haiqqatgo'yligi, qat'iyatliligi³³.

Ushbu mezonlar asosida shaxsning tarbiyalanganlik darajasini baholash mumkin. Tarbiya jarayonida o'qituvchilar o'quvchilarning tarbiyalanganlik darajasini baho berishda ushbu mezonlarga tayanib ish ko'radi.

Shunday qilib, tarbiya jarayonida muayyan qonun, qonuniyat va tamoyillar asosida tashkil etiladi. O'quvchiga nisbatan samarali tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishda tarbiya metodlari va vositalarining to'g'ri tanlanishi muhim ahamiyatga ega. Tarbiya jarayoniga nisbatan texnologik yondashish uning muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Bugungi kunda ta'lim muassasalarida rivojlantiruvchi, talabqalashtirilgan, loyiha va o'yin texnologiyalari faol qo'llanilmoqda. Tarbiyaviy vaziyatlarda kutilgan pedagogik natijaga erishish uchun ularni loyihalash va modellashtirish taqozo etiladi. Shaxsning tarbiyalanganlik darajasi uning jamiyatda o'zini tuta bilishi, yurish-turishi, axloqi va muomalasi bilan belgilanadi.

Nazorat savollari:

1. Tarbiya qonunlari, qonuniyatlari va tamoyillari.
2. Tarbiya metodlari va vositalari.
3. Tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish.
4. Tarbiya texnologiyalari.
5. Tarbiyaviy vaziyatlar, ularni loyihalashtirish va modellashtirish.
6. Shaxsning tarbiyalanganlik darajasini aniqlash (diagnostika).

Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. Виды технологий воспитания // [хттпс://студме.орг/297924/педагогика/виды_технологий_воспитания](https://studme.org/297924/педагогика/виды_технологий_воспитания).

³³ Оценка уровня воспитанности школьников // https://spravochnick.ru/pedagogika/teoriya_vospitaniya/ocenka_urovnya_vospitannosti_shkolnikov.

2. Закономерности воспитания // [хттпс://студфиле.нет/превиев/ 5373553/паге:3](http://studfile.net/preview/5373553/паге:3).
3. Закономерности воспитания // [хттпс://заочник.ком/справочник/педагогика/введение-в-педагогическую-профессию/закономерности-и-принципы-воспитания](http://заочник.ком/справочник/педагогика/введение-в-педагогическую-профессию/закономерности-и-принципы-воспитания).
4. Законы воспитания // [хттпс://студреф.ком/360549/педагогика/закон_воспитания](http://студреф.ком/360549/педагогика/закон_воспитания).
5. Законы, закономерности, принципы воспитания. Понятие, сущность методов, приемов, средств и форм воспитания // [хттпс://студфиле.нет/превиев/6175846/паге:3](http://studfile.net/preview/6175846/паге:3).
6. Инновационные технологии / Муслимов Н.А., Усмонбоева М.Х., Сайфуров Д.М., Тўраев А.Б. – Тошкент: “Сано-стандарт” нашриёти, 2015. – 90-112-б.
7. Основные признаки воспитания // [хттп://новогрудокеду.бй/индекс.пхп/2013-04-18-10-09-00/2013-04-18-12-36-18/101-2013-06-19-08-03-11](http://новогрудокеду.бй/индекс.пхп/2013-04-18-10-09-00/2013-04-18-12-36-18/101-2013-06-19-08-03-11).
8. Оценка уровня воспитанности школьников // [хттпс://студме.орг/49846/педагогика/отценка_уровня_воспитанности_школьников](http://студме.орг/49846/педагогика/отценка_уровня_воспитанности_школьников).
9. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Шукрона – Ҳ / 5 жилдли. Бешинчи жилд. А.Мадвалиев таҳрири остида. Таҳрир хайъати: Э.Бегматов ва бошқ. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2008. – 331-бет.

О‘QITUVCHI PEDAGOGIK FAOLIYATIDA KOMPYUTYER TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHI

О‘quv rejasi:

1. Pedagogik mahoratni oshirishda zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalarning ahamiyati.
2. Ta’lim-tarbiya jarayonida kompyuter imkoniyatlaridan foydalanish.
3. O‘qituvchining kompyuter texnologiyalari asosida o‘quvchilar bilimini nazorat qilishi.
4. O‘qituvchining kasbiy rivojlanishida zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish.

Tayanch tushunchalar: zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalar (AKT), ta’lim-tarbiya jarayoni, kompyuter texnologiyalari, o‘quvchilar bilimini kompyuter texnologiyalari yordamida nazorat qilish, o‘qituvchining zamonaviy AKTdan foydalanish malakasi.

I. Pedagogik mahoratni oshirishda zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalarning ahamiyati. Ta’lim tizimini isloh qilishning muhim yo‘nalishlaridan biri axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan o‘quv jarayonini tizimli integratsiyalash hisoblanadi. Bunda o‘quv jarayonini tashkil etish va uning mazmunini tubdan yangilash, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari muhitida

o'qituvchining pedagogik faoliyati va o'quvchining ta'lim olish jarayonini tashkil etish strategik masala sifatida namoyon bo'ladi.

Ilmiy-texnik taraqqiyotning rivojlanayotgan bosqichida axborotlarning keskin ko'payib borayotganligi va ulardan o'qitish jarayonida foydalanish uchun vaqtning chegaralanganligi ta'lim tizimiga yangi texnologiyalarni joriy etishni taqozo etmoqda. Ta'lim mazmunini takomillashtirishning yo'nalishlaridan biri ta'lim oluvchilar uchun mustaqil ta'lim olish imkoniyatlari, ta'limning axborot manbalarini shakllantirish va rivojlantirish uchun zarur sharoitlarni yaratishdan iboratdir. Ta'lim-tarbiya jarayonlarining asosini yuqori sifatli va yuqori texnologiyali muhit tashkil etadi. Uning yaratilishi va rivojlanishi texnik jihatdan murakkab sanalsada, ammo bunday muhit ta'lim tizimini takomillashtirishga, ta'limda axborot texnologiyalarini tub ma'noda joriy etishga xizmat qiladi.

Zamonaviy axborot texnologiyalari o'quvchilar uchun ma'lumotlarni yetkazish, saqlash, qidirish kabi jarayonlarda katta imkoniyatga ega. Hozirda ta'lim muassasalarida elektron shaklda ko'plab axborot-ta'lim resurslari yaratilgan.

Ta'lim-tarbiya jarayonlarini axborotlashtirishni rivojlantirish yo'nalishi turli ta'lim axborot resurslarining birlashtirilishi orqali axborot-ta'lim muhitlarini yaratish bilan bevosita bog'liq. Bunday muhitni tashkil etishda, avvalom bor, ta'lim muassasalarida axborotlashtirishni tashkil etish, ya'ni barcha o'quv, ma'muriy va xo'jalik xizmatlarni, kutubxona va boshqaruv (rektorat, dekanat, o'quv bo'limi va b.) bo'limlarini yagona tarmoqqa birlashtirish, ularni Internet tizimiga chiqish imkoniyatlarini yaratish, ta'lim muassasida o'quv jarayonini nazorat qilish, hujjatlar elektron almanishuvini tashkil etish, axborot texnologiyalari negizida maxsus o'quv-metodik majmualarni yaratish orqali o'quvchilarning mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etish kabi vazifalarni amalga oshirish zarur bo'ladi. Hozirda bunday vazifalarni bajarishda portal texnologiyalarini yaratish orqali axborot-ta'lim resurslaridan foydalanishni tashkil etish mumkin. Ta'lim muassasining yagona axborot-ta'lim muhitini rivojlantirishning muhim yo'nalishi sifatida o'quv jarayonida axborot va telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish hisoblanadi. Axborotlarni tizimlashtirish axborot-ta'lim resurslaridan foydalanishni yengillashtiradi. Axborot-ta'lim portallarining yaratilishi axborotlarni mantiqiy tartiblash va tizimlashtirishga yordam beradi.

Axborot-ta'lim portallarini yaratish va uni rivojlantirishda tizimli yondashuv zarur hisoblanadi. Chunki kompyuter texnologiyalari asosida ta'lim muhitini yaratishda tahliliy tayyorgarlikning yaxshi darajada bo'lishi, mazmunning maqsadga muvofiqligi, axborotlarning tizimlashtirilishini ta'minlash muhim sanaladi.

Portal – foydalanuvchiga axborotlarni oddiy navigatsiya va keng ko'lamli qulay interfeys orqali yetkazish uchun turli axborot resurslarini birlashtiruvchi tarmoq telekommunikatsiya tuguni hisoblanadi. Bundan kelib chiqib portallarga quyidagi talablarni qo'yish mumkin:

- ko'p sonli foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatishi;
- axborotlar ko'lamining kengligi;
- asosiy tarmoq formatlarni qo'llashi;
- oson va samarali qidirish tizimini joriy etishi;
- axborot resurslarining integratsiyasi;

- axborot xavfsizligini ta'minlashi;
- axborotlarni tabaqalashtirishi;
- bilimlarni boshqarish-tahlil etishi.

Portallarning ko'rsatkichi unda mujassamlashgan axborotlarning ko'lami, ya'ni axborot resurslari hajmi bilan aniqlanadi.

Har qanday portalning maqsadi – foydalanuvchiga unga zarur axborotlarni qisqa vaqtda va turli interfeyslar orasidagi o'tishlarni ortiqcha xatti-harakatlarsiz taqdim etishdan iborat bo'ladi.

Portalning foydalanuvchi interfeysi unda joylashtirilgan resurslarning tarkibini ko'rgazmali namoyish etishi, bir bo'limdan boshqa sahifalarga mantiqiy va tezkor o'tishni ta'minlashi lozim.

Taqdim etilayotgan axborot-ta'lim resurslari mustaqil ta'lim uchun topshiriqlarni, o'zlashtirilgan bilimlarni tekshirish uchun test sinovlarini, ijodiy tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlarni, bilimlarni mustahkamlashga qaratilgan mashqlarni o'zida mujassamlashtirgan bo'ladi.

Portal uchun multimedia materiallarini tanlashda ularning axborot-mazmuni, tuzilma tarkibi, uzviyligi va axborotlarni taqdim etish shakllariga e'tibor qaratish kerak. Multimedia materiallari axborotlarni oson o'zlashtirish uchun xizmat qilishi: ularning mazmunini ochib berishi, ya'ni, axborotlarning mustaqil manbai sifatida foydalanish imkonini berishi lozim.

Texnologik jihatdan axborot-ta'lim portallariga quyidagi talablar qo'yiladi: ilovalarni bajarish; hamkorlikdagi faoliyatni ta'minlash; o'zida mavjud resurslarni boshqarish; foydalanuvchilarni boshqarish; nazorat olib borish; bilimlarni boshqarish; kommunikatsiyani ta'minlash; qidiruvni ta'minlash; barcha resurslarni ruxsat etilmagan kirishlardan himoyalashi, ya'ni, axborot xavfsizligini ta'minlash; tizimga ruxsat berish, ya'ni qayddan o'tishni tashkil etishi zarur.

Bilim sohalari yoki fanlar bo'yicha axborot-ta'lim portali faqat ta'lim muassasalari bilan chegaralanib qolmaydi. An'anaviy va elektron shakldagi o'quv materiallari yagona ta'lim muhitining tarkibiy qismi sifatida bir-birlarini to'ldirishi muhim. Yangi axborot texnologiyalarining imkoniyatlaridan foydalanish ayrim pedagogik muammolarni yechishdagi qiyinchiliklarni bartaraf etishga xizmat qiladi.

Axborot-ta'lim portallarini fan-ta'lim-ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta'minlovchi, uning rivojlanishini, ilmiy-pedagogik salohiyatdan samarali foydalanishni tashkil etish sharoitini yaratuvchi sifatida qarash mumkin. U ta'lim muassasalarning bitiruvchilariga ehtiyojlari bo'lgan buyurtmachilar uchun ham foydalidir. Portal bitiruvchilar bo'yicha axborot manbai bo'lib xizmat qiladi. Qolaversa, ta'lim xizmatlarini taqdim etuvchilar va uning iste'molchilari bilan yangi shakldagi o'zaro aloqani yo'lga qo'yadi.

Bunday portalni yaratish, uni rivojlantirish uchun, avvalo, ta'lim muassasalarini kompyuterlashtirishni takomillashtirish, telekommunikatsiya tarmoqlarini yanada rivojlantirish, axborotlarni tizimlashtirish va ularni portalda joylashtirish talab etiladi. Shu bilan bir qatorda, pedagogik kadrlarni yangi axborot texnologiyalaridan ta'lim tizimida foydalanish bo'yicha malakalarini shakllantirish, ularni muntazam tarzda oshirib borishni rivojlantirish muhimdir. Yagona axborot-ta'lim muhitini

rivojlantirishning muhim sharti portalning o'quv-metodik ta'minotini rivojlantirish, elektron o'quv nashrlarni yaratishni takomillashtirish sanaladi.

Axborotlashtirish jarayonini samarali rivojlanishini ta'minlash uchun axborot infratuzilmasini mukammal shakllantirishga e'tibor qaratmoq zarur bo'ladi.

II. Ta'lim-tarbiya jarayonida kompyuter imkoniyatlaridan foydalanish.

O'quv jarayonlarida Web-saytlardan foydalanishning ko'pgina yutuqlari mavjud. Shu bois bunday saytlarni yaratish va mazmunan yangilab borish ta'lim muassasasi faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan o'quv muassasalari uchun bag'ishlangan saytlarni yaratish har bir ta'lim muassasasi oldida turgan birlamchi vazifalar qatoriga kiradi. Bunday saytlarni yararish uni o'rganish mobaynida internet tizimi bilan bog'liq omillarni hisobga olish lozim. Bunday omillar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- dunyo bo'yicha internet xizmati imkoniyatlarining kengligi;
- Veb-saytlar xizmatidan foydalanishning oddiyligi;
- Web-texnologiyalarni tarqatishdagi qulaylik;
- real vaqt masshtabida axborotlarga bo'lgan talablar;
- muassasa va xususiy shaxslarning o'zlari to'g'risidagi axborotlarni internetga joylashtirishga intilishi;
- tarmoq ma'lumotlar bazasida global mashstabdagi ixtiyoriy ma'lumotlarni to'plash.

Bugungi kunda internetga joylashtirilgan Web-saytlarning quyidagi turlari mavjud:

1. Reklama sayti – ixtiyoriy reklama singari internet informatsion muxitidagi aniq mahsulot va xizmat yoki brendni reklama qilish uchun xizmat qiladi. Katta miqdordagi grafik element va multimedia vositalari (Flash) sahifalarida qo'llanilishi bilan farqlanadi.

2. Informatsion sayt – mijozlarning virtual uyushmasini tuzish to'g'risidagi qarorni qabul qilishda "informatsion to'siq" ni olib tashlash uchun tashrif buyuruvchilarni mahsulot va xizmat turlari to'g'risidagi ma'lumotlar bilan to'la-to'kis boxabar etish uchun xizmat qiladi. Saxifalar tashqi ko'rinishining ko'rkamligi (ixchamligi) bilan ajratib turadi, chunki bu Web-saytdagi barcha elementlar kerakligi axborotlarni tez va qulay usulda qidirib topit uchun xizmat qiladi.

3. Biznes-sayt – kompaniyaning alohida tashqi biznes-jarayonlarni tashkil qilish uchun xizmat qiladi (m: ta'minotchi va dilerlarning ombordagi mahsulotlar; mahsulot yoki xizmatlarga ega bo'lishdagi buyurtmalari, xizmatchi va dilerlarni o'qitish; suhbatlar olib borish jarayonlari to'g'risida). Biznes-jarayonlarni tashkil etish uchun dasturiy modullar (internet-ilova) mavjudligi bilan farqlanadi.

4. Korporativ portal kompaniya ichki va tashqi biznes jarayonlarining servislarini o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, korporativ portal tarkibiga kompaniyaning turli xil bo'limlari o'rtasida axborot almashuvi, buxgalteriya ilovalari, ombor, kadrlar bo'limi, statistik va analitik axborotlar, spravochnik, o'quv axborotlari; ta'minotlar, dilerlar, iste'molchilar bilan ishlash uchun avtomatlashtirilgan vositalar va b.q. kiradi. Biznes-jarayonlarni tashkil etish uchun internet- ilova, kompaniya (buxgalteriyasi, ombor, rejalashtiruvchilar va b.q.) da

foydalaniladigan amaliy dasturlarga kirish uchun interfeyslar mavjudligi bilan farqlanadi.

5. Ta'lim va tarbiyaga bag'ishlangan saytlar. Bunday saytlar asosan ta'lim muassasasi xaqida ma'lumotlar keng ommaga tanishtirish, ta'lim muassasasida faoliyat olib boruvchilar hamda o'quvchilarni ta'lim muassasasi bilan doimiy aloqasini ta'minlab turish maqsadida yaratiladi. Shuningdek ta'lim va tarbiyaga bag'ishlangan bir necha saytlar mazmunan va mantiqan birlashtirilib **ta'limiy portalni** tashkil qilishi mumkin.

Yuqoridagidan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, o'quv muassasalarida faoliyat yuritayotgan professor-o'qituvchilar ayniqsa, informatika o'qituvchilari hamda o'quv muassasasi o'quvchilari orasida qiziqishi katta bo'lgan o'quvchilar birgalikda ushbu o'quv muassasasining saytini yaratish, mazmunini yangilab borishda muhim ishtirokchilar hisoblanadi.

III. O'qituvchining kompyuter texnologiyalari asosida o'quvchilar bilimni nazorat qilishi. Internet texnologiyalarining imkoniyatlari kengligi va sodda ekanligi internetdan foydalanuvchilarning daqiqa sayin ortib borishiga olib kelmoqda. Bu foydalanuvchilar orasida ko'pchilik qismini albatta, o'quvchilar, o'quvchilar, ilmiy izlanish bilan band bo'lgan xodimlar tashkil qiladi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, ta'lim jarayonida Internet texnologiyalaridan, xususan o'quv muassasalariga bag'ishlangan veb- saytlardan foydalanish ta'lim sifati va samaradorligini sezilarli darajada yuqori bosqichga olib chiqishga yordam beradi.

Yangi axborot texnologiyalar vositalari takomillashib va rivojlanib borayotgan hozirgi sharoitda o'quv muassasasida tahsil olayotgan o'quvchi yoshlarning (umuman har qanday sohada faoliyat ko'rsatuvchilarning) zarur axborotlarni Internet tizimidan mustaqil ravishda topa olishi, ular duch keladigan mavjud mutaxassisligiga oid muammolarni to'la va to'g'ri hal qila olishidagi muhim sharoitlardan biriga aylanib bormoqda.

Ta'lim jarayonida Internet saytlaridan foydalanish imkoniyatlarini, uning samaradorligini aniklashda avval Internet xizmatining turlari va ularning harakterini aniqlab olish nihoyatda muhimdir. Aynan ana shu aniqlangan ma'lumotlar Internet tarmog'ida ishlashning tashkiliy jihatdan shakli va usullarini ajratib olishga yordam beradi. Klassifikatsiyalashga asos qilib internetning ishlash uslubini olish mumkin. Bu holda Internet server xizmatlarini ikkiga: axborotli va kommunikatsion xizmat turlariga ajratish kerak.

Axborotli xizmatga WWW (ma'lumotlar majmuasi) va G'TR (dasturlar majmuasi) lar kiritiladi.

Kommunikatsion xizmatni esa ikkiga: **bevosita** (PC, chat) va **bilvosita** muloqot (elektron pochta, forum, telekonferensiya) turlariga ajratish mumkin.

Internetdagi barcha "o'quv muassasa uchun yaratilgan sayt" larni o'z navbatida bir necha turga ajratish mumkin:

- o'rgatuvchi internet manbalari;
- maslahat beruvchi internet manbalari;
- axborotli internet manbalari;
- baholovchi internet manbalari;

- taqdimotli internet manbalari;

Quyida ularning har biriga alohida to'xtalib o'tiladi.

O'rgatuvchi internet manbalariga masofaviy ta'lim, virtual maktablar, laboratoriyalar va veb sinflarni misol sifatida keltirish mumkin.

Maslahat beruvchi internet manbalariga turli telekonferentsiyalar, virtual pedagogik kengashlar, virtual uslubiy, birlashmalar muammoviy kengashlar, virtual kafelar va hokazolarni misol keltirish mumkin.

Axborotli internet manbalariga elektron o'quv qo'llanmalar, ma'lumotnomalar, elektron kutubxonalar, lug'atlar, kataloglar, virtual muzeylarni keltirish mumkin.

Baholovchi internet manbalarga teletesting, masofaviy konkurslar, turli viktorinalar, olimpiadalarni misol keltirish mumkin.

Taqdimotli internet manbalariga ta'lim muassasalarining ta'lim yo'nalishlari haqida atroflicha ma'lumotlar yoritilgan alohida sahifalarni keltirish mumkin.

O'quv muassasalari uchun yaratilgan saytlar yordamida o'qituvchilar ta'lim oluvchilarga masofadan turgan holda bilim olishlariga imkon yaratadi. O'quv muassasalari uchun yaratilgan saytlar ayniqsa o'qitish joylariga qatnashi qiyin bo'lgan ta'lim oluvchilarga qulaydir. Bulardan tashqari ta'lim oluvchilar axborot texnologiyalari bilan ishlash madaniyati, ko'nikma va malakalariga ega bo'ladi. O'quv muassasalari uchun yaratilgan saytlardan dars jarayonida foydalanish juda katta imkoniyatlar yaratadi.

O'quv muassasalari uchun yaratilgan saytlar yordamida o'qitish, o'quv jarayonini a'naviy tashkil etishning asosiy shakllarini o'z ichiga oladi. Ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya amaliyoti, nazorat tizimi, tinglovchilarning ilmiy tadqiqot va mustaqil ishlari shular jumlasidandir. O'quv jarayonini tashkil etishning ushbu barcha shakllari amaliyotda tinglovchilarni mustaqil bilish faoliyati turli axborot manbalari bilan osongina birlashtirishni, kurs olib borayotgan o'qituvchi yoki tyutor bilan tezkor va tizimli aloqa qilish hamda tinglovchilarning guruh bo'lib ishlarni amalga oshirish imkoniyatini beradi.

O'quv jarayonida o'quv muassasalari uchun yaratilgan saytlardan foydalanish o'qituvchilarga:

- Internet tarmog'i yordamida u yoki bu o'quv fanlardan to'plangan tajriba va uslublarni boshqa kasbdoshlari bilan almashish;

- bir vaqtning o'zida turli toifadagi o'quvchilar uchun har xil o'qitish uslublarini amalga oshirish orqali o'quv jarayonini individuallashtirish;

- o'quv muassasalari uchun yaratilgan saytlardagi nazorat topshiriqlaridan mashq sifatida foydalanish natijasida o'quvchilarda fan bo'yicha egallangan bilimlarni ko'nikma va malaka darajasiga yetkazish;

- qo'lda bajariladigan ishlarni kamaytirish hisobidan o'quvchilarga yakka tartibda ishlash va o'z qobiliyatlarini namoyon qilish imkoniyatini yaratish;

- o'quvchilarni mustaqil bilim olish jarayonini samarali tashkil etishkabi imkoniyatlarni yaratadi.

Yoqitishda o'quv muassasalari uchun yaratilgan saytlardan foydalanish o'quvchilarda: o'z xohishlariga qarab o'qish holatlarini tanlash; tayyorgarliklar va psixofizik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o'zlariga mos o'qish metodlari va

bayon etish usullarini tanlash; oldin o'rganilgan materiallarga qaytish, o'qish jarayonini to'xtatib qo'yish va unga ixtiyoriy vaqtda murojaat qilish; turli jarayonlarning dinamikasini va mexanizmlarni o'zaro ta'sirini kuzatish; o'rganilayotgan ob'ektlarni boshqarish va ularning mos natijalarini ko'rib borish; kompyuterda muloqot qilish psixologik xarakterdagi to'siqlardan holi bo'lishga (kulgu bo'lmaslik, jur'at etmaslik, uyalmaslik kabilar) olib kelishi; tayyorgarlik darajalari yetarli bo'lgunga qadar kompyuterdan sabr bilan foydalanish kabi imkoniyatlarga ega bo'ladi.

O'quv muassasalari uchun yaratilgan saytlarning ta'lim sohasidagi quyidagi afzalliklarini sanab o'tish mumkin: fanlarni o'zlashtirilishni yaxshilanishi; tarmoq savodxonligini ortishi (kompyuter va Internet bilan muloqot qilishdagi yangiliklar); o'rganishga bo'lgan munosabatni yaxshilanishi; mustaqil ta'lim va tadqiqotlar malakasini takomillashishi; amaliy malaka samaradorligini oshirish.

IV. O'qituvchining kasbiy rivojlanishida zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish. Bugungi kunda taraqqiyot juda tez rivojlanmoqda va juda tez o'zgarmoqda. Deyarli har daqiqada sayyoramizning turli burchaklarida o'zgarishlar, yangilanishlar va kutilmagan voqea-hodisalar sodir bo'lmoqda. Har bir kunimiz kuchli axborot oqimi ostida kechmoqda. Axborot oqimi bizni uyda, ishxona va ta'tilda ta'qib etadi. Inson informatsiya ta'siridan xoli normal faoliyat yurita olmaydi. Hayotni anglash, uni o'rganish informatsiyalarni yig'ish va o'zlashtirish orqali kechadi. Insonning bilimlilik darajasi ham ma'lum davr ichida shaxs tomonidan o'zlashtirilgan informatsiyalarning ko'p yoki ozligi bilan belgilanadi.

Shuning uchun zamonaviy bilimlar sari keng yo'l ochish, ta'limotni takomillashtirishda yangi axborot texnologiyalardan unumli foydalanish - bugungi kunning talabiga aylandi. Vaholanki, ta'lim tizimida sezilarli o'zgarishlar ro'y bermoqda. Ta'lim tizimida o'quv muassasalari uchun yaratilgan saytlardan foydalanish o'qitish qo'llanilmoqda.

O'quv muassasalari uchun yaratilgan saytlarning yana bir afzalligi shundaki, unda o'quvchi o'ziga qulay vaqtda va hattoki ishdan ajralmagan holda o'qishi mumkin.

O'quv muassasalari uchun yaratilgan saytlarning yana bir afzallik tomoni unda o'qish muddatini o'quvchi o'zi belgilaydi, ya'ni o'quvchi ixtiyoriy paytda o'qishni boshlaydi, materiallarni o'qituvchi nazoratida o'zlashtiradi. Yozlashtirish topshiriqlarni, testlarni bajarishiga qarab aniqlanadi. O'quvchi berilgan programmani qanchalik tez o'zlashtirsa, shunchalik tez o'qishni tugatadi va guvohnoma oladi. Dasturni o'zlashtira olmasa, unga mustaqil ishlab, o'qishni davom ettirishga imkoniyat beriladi.

O'quv muassasalari uchun yaratilgan saytlardagi berilgan materiallari asosan quyidagilardan iborat bo'ladi: darslik; audio va video darsliklar; onlayn darslar (internet sahifa); elektron kutubxonalar; testlar; multimedia – elektron darsliklar.

Respublika Oliy va Yorta Maxsus bilim yurtlarida o'quv muassasalari uchun yaratilgan saytlar kataloglashtirish, respublika ta'lim muassasalarida tayyorlanayotgan elektron o'quv adabiyotlarini barcha ta'lim muassasalari orasida

targ'ib qilish muhim va murakkab vazifa hisoblanadi. Davlatimiz rahbariyati tomonidan ushbu masalani ijobiy yechimini topish hamda ta'lim muassasalari uchun yaratilgan elektron o'quv resurslari va ta'lim muassasalari saytlarini ta'lim jarayoniga tatbiq etishga jiddiy e'tibor berilmoqda. Buning natijasi sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga binoan tashkil qilingan Ziyonet axborot- ta'lim portali ishga tuzirildi va bu portalda barcha ta'lim muassasalari uchun ta'lim resurslari joylaturilganligi ahamiyatga molikdir.

Ziyonet jamoat axborot ta'lim tarmog'i 2005 yil 28 sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning "O'zbekiston Respublikasining jamoat ta'lim axborot tarmog'ini tashkil etish to'g'risida"gi 2005 yil 28 sentyabrdagi 191-sonli qaroriga muvofiq tashkil topgan.

Ziyonet axborot ta'lim tarmog'i yoshlarni, murabbiylarni, shuningdek aholining turli qatlamini kerakli axborot bilan ta'minlash, AT sohasida kerakli ma'lumotlarni berish, muloqat qilish va tajriba almashinishlari uchun zarur imkoniyatlarni yaratib berishni o'z zimmasiga oladi.

ID.UZ tizimidan ro'yxatdan o'tgan foydalanuvchilarga Ziyonet portali o'z imkoniyatlarini namoyon qilishlari uchun barcha sharoitlarni yaratib beradi. Jumladan:

1. Ziyonet portalining kutubxonasiga axborot-ta'limiy ma'lumotlarni joylashtirish.
2. Uchinchi darajali «zn.uz» domenida sayt-satelitlarni yaratish.
3. Ziyonet portalining yopiq bo'limlariga kirish va u erdan ma'lumot olish.
4. Ziyonet axborot resurs tarmog'ining turli tanlovlarida qatnashish.

Hukumat qaroriga muvofiq barcha ta'lim muassasalari (ulanish ob'ektlari) Ziyonet axborot ta'limiy tarmog'i negizida birlashishlari kerak.

Provayder tizimi orqali ta'lim muassasalarini ulanish b'oyicha g'oliblarga Ziyonet tarmog'i resurslariga kirish imkoni beriladi. Bugungi kunda maktab, kolledj, litsey, muzey, "Kamolot" YoIHning Internetga ulanishi bilan OOO «East Telecom», qishloq joylaridagi maktablarning internetga ulanishi bilan «RWC» QK hamda UzNYeTning «Uzbektelekom» AK filiali shug'ullanadi.

Ziyonet tarmog'ining asosiy maqsadi ta'lim tizimida respublika yoshlari hamda ta'lim oluvchilarni bilim olish jarayonida axborot-kommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatishdan iborat.

Ta'lim muassasalarining internetga ulanishlarida OYO MTV, UMKTM, XTV, «Kamolot» YOIH mas'ul va moliyaviy jihatdan ta'minlovchi hisoblanadilar.

Ziyonet tarmog'ining resurs markazi tanlov hay'atining ishlovchisi sifatida internet tarmog'iga ulanishga oid barcha tanlovlarni va ulanish jarayoni monitoringini o'tkazib kelmoqda. Ta'lim muassasalarini internet tarmog'iga ulanishlariga oid barcha savollar bilan mas'ul Vazirlik va boshqarmalarga, Ziyonet tarmoqining provayderlariga murojaat etishingiz, shuningdek, forumda qoldirishingiz mumkin.

Ziyonet ta'limiy tarmog'iga ulanuvchi muassasa tanlov g'olib-provayderining quyidagi bepul xizmatlaridan foydalanishi mumkin:

- Internet(TAS-IX orqali) tarmog'ining O'zbek segmentidan 128 kbit/sek tezligida istalgan miqdorda foydalanish;

- ichki Internetning ajratilgan limit trafikidan foydalanish (Ichki Internetdan foydalanayotgan ulanish ob'ektiga trafikda belgilangan ustki limit bo'yicha haq to'lash;

- qo'shimcha xizmatlar.

ZiyoNet tarmog'iga ta'lim muassasalarini ulanishlarini moliyalashtirish O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

Shunday qilib, zamonaviy axborot texnologiyalari o'quvchilar uchun ma'lumotlarni yetkazish, saqlash, qidirish kabi jarayonlarda katta imkoniyatga ega. Hozirda ta'lim muassasalarida elektron shaklda ko'plab axborot-ta'lim resurslari yaratilgan. Axborot-ta'lim portallarini yaratish va uni rivojlantirishda tizimli yondashuv zarur hisoblanadi. Chunki portal texnologiyalari asosida ta'lim muhitini yaratishda tahliliy tayyorgarlikning yaxshi darajada bo'lishi, mazmunning maqsadga muvofiqligi, axborotlarning tizimlashtirilishini ta'minlash muhim sanaladi. Taqdim etilayotgan axborot-ta'lim resurslari mustaqil ta'lim uchun topshiriqlarni, o'zlashtirilgan bilimlarni tekshirish uchun test sinovlarini, ijodiy tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlarni, bilimlarni mustahkamlashga qaratilgan mashqlarni o'zida mujassamlashtirgan bo'ladi. Yangi axborot texnologiyalarining imkoniyatlaridan foydalanish ayrim pedagogik muammolarni yechishdagi qiyinchiliklarni bartaraf etishga xizmat qiladi. Yagona axborot-ta'lim muhitini rivojlantirishning muhim sharti portalning o'quv-metodik ta'minotini rivojlantirish, elektron o'quv nashrlarni yaratishni takomillashtirish sanaladi.

Nazorat savollari:

1. Pedagogik mahoratni oshirishda zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalarning ahamiyatini Siz qanday baholaysiz?

2. Ta'lim-tarbiya jarayonida kompyuter imkoniyatlaridan qanday maqsadlarda foydalanish mumkin?

3. O'qituvchining kompyuter texnologiyalari asosida o'quvchilar bilimni nazorat qilishida nimalarga e'tibor qaratiladi?

4. O'qituvchining kasbiy rivojlanishida zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish qanday kechadi?

Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O'zbekiston, 2017. – 14-b.

2. Axborot tizimlari va texnologiyalari / OYoYu uchun darslik. S.S.G'uumov va b. – T.: Fan va texnologiyalar, 2013.

3. Begimkulov U.Sh. Pedagogik ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari / Monografiya. – T.: Fan, 2007.

4. Mamatov A.Z. Texnologik jarayonlarni matematik modellashtirish / Met. qo'll. – T.: "Sano-stanart", 2012.

5. Oripov M. Informatika va hisoblash texnikasi asoslari. – T.: O'qituvchi, 2001.

O'QITUVCHI PEDAGOGIK FAOLIYATIDA KASBIY REFLYEKSIYANING O'RNI

O'quv rejasi:

1. Kasbiy refleksiya va oqituvchining kasbiy refleksiyasi.
2. Pedagogik tashxis va o'qituvchi faoliyatini tashxislash.
3. Oqituvchining o'z-o'zini rivojlantirishi.
4. Individual rivojlanish dasturi – o'qituvchining kasbiy rivojlanishining muhim omili.
5. O'qituvchining o'z ustida ishlashi.

Tanyach tushunchalar: refleksiya, kasbiy refleksiya, tashxis, pedagogik tashxis, o'qituvchi faoliyatini tashxislash, oqituvchining o'z-o'zini rivojlantirishi, individual rivojlanish dasturi, o'qituvchining o'z ustida ishlashi.

I. Kasbiy refleksiya va oqituvchining kasbiy refleksiyasi. Lug'aviy jihatdan "refleksiya" tushunchasi (lot. "reflexio" – "ortga nazar solish") – sub'ekt tomonidan o'zining ichki psixologik harakati va holati anglashi sanaladi.

Refleksiyaning maqsadi – yodga olish, faoliyatning asosiy tarkibiy qismlari: uning mazmunini, turlarini vositalarini, muammolarini, hal qilish yo'llarini, olingan natijalarni aniqlash va anglashdan iborat. Shunga ko'ra, refleksiya istiqboldagi ish maqsadini aniqlash, o'zi tanlangan yo'lni tahlil asosida qayta ko'rib chiqishga imkoniyat yaratadi. Boshqacha aytganda, refleksiya mutaxassisning tajribasi, o'z-o'zini anglashi hamda kasbiy tafakkur vositasi³⁴.

Falsafa, psixologiya, pedagogika hamda boshqaruv nazariyasining predmeti bo'lgan refleksiya tushunchasi umumiy jihatdan olganda – shaxsning o'z xatti-harakatlari, faoliyati yuzasidan mushohada qilishi, o'z-o'zini kuzatishi, o'z-o'zini anglashi demakdir. Shunga ko'ra har bir shaxs, har bir mutaxassisning o'z-o'ziga beradigan bahosi asosini refleksiya tashkil etadi.

Tushuncha sifatida "refleksiya" atamasi dastlab 1910 yilda amerikalik psixolog va pedagog Jon Dyui tomonidan til iste'moliga kiritilgan. Uning "Biz qanday o'ylaymiz?" ("Как мы думаем?") nomli asarida ilk marta "refleksiv tafakkur" tushunchasiga quyidagicha izoh berilgan: qanday bo'lishidan qat'i nazar fikrga yoki taklif etilayotgan bilim shakliga uni asoslashda hamda u keltirib chiqaradigan istiqboldagi xulosalarga faol, chuqur va diqqat bilan e'tiborning qaratilishi³⁵.

Pedagogik faoliyatda refleksiya qandaydir kasbiy muammoni fikriy tahlil qilish jarayoni sifatida e'tirof etiladi. Buning natijasida anglangan muammoning mohiyatini shaxsan talqin qilish va uni hal qilishning yangi istiqbollari ochish ko'zga tashlanadi³⁶.

³⁴ Коржуев А.В., Попков В.А., Рязанова Е.Л. Рефлексия и критическое мышление в контексте задач высшего образования // Ж. Педагогика. – М.: 2002. – №1. – С. 18.

³⁵ Дьюи Дж. Психология и педагогика мышления / Пер. с англ. – М.: Педагогика, 1997. – С.15.

³⁶ Бизяева А.А. Психология думающего учителя: педагогическая рефлексия. – Псков: ПГПИ им. С.М.Кирова, 2004. – 216 с.

A.A.Bizyaevaning qayd etishicha, pedagogik refleksiya deganda pedagogning o'z faoliyatiga nisbatan munosabatdagi tahliliy pozitsiyasini ifoda etuvchi murakkab psixologik holat tushuniladi. Muallif pedagogik refleksiyaning ikki darajani o'zida aks ettiruvchi kontseptual modelni ajratib ko'rsatadi:


1) umumiy daraja (ongda aks etuvchi konstruktorlik-irodaviy; motivatsion, bashoratlovchi jihatlar);

2) xususiy shaxsiy (o'qituvchining refleksiv vaziyatlarda o'z faoliyatidagi kasbiy-shaxsiy hamda shaxsiy-sub'ektiv sub'ektiv yo'nalishi)³⁷.

Ko'p holatlarda kasbiy refleksiya o'z-o'zini tahlil sifatida qo'llaniladi. Zamonaviy pedagogikada esa refleksiya faoliyat va uning natijalarini tahlil qilish ekanligiga e'tibor qaratiladi. Shunga ko'ra refleksiya jarayonida muayyan xulosaga kelish, umumlashtirish, muqobillarini topish, taqqoslash va baholash; qayg'urish, yodga olish; muammoni hal qilish ko'zga tashlanadi.


I.N. Semenovning fikriga ko'ra, refleksiya – tajriba stereotiplari, innovatsion faoliyatga kirishishdagi ichki sharoitlar (yangi g'oyalarning tug'ilishi, yangi tajribaning orttirilishida ko'zga tashlanadigan holatlar)ning o'zgarish jarayoni sanaladi.

Falsafiy, psixologik va pedagogik adabiyotlarda refleksiya u tomonidan hal qilinadigan vazifalarga ko'ra quyidagicha guruhlanadi (27-rasm):



27-rasm. Vazifasiga ko'ra refleksiyaning asosiy turlari

Sohaga oid adabiyotlarda esa o'qituvchining kasbiy faoliyatida refleksiyaning quyidagi turlari ko'zga tashlanashiga e'tibor qaratilgan (28-rasm):



28-rasm. Pedagogik refleksiyaning asosiy turlari

1. Intellektual refleksiya kasbiy faoliyatda faol ravishda tadqiqotlarni olib borish, bu jarayonda tadqiqot faoliyatining mazmunini, bosqichlari va natijalarini

³⁷ Тот источник.

tahlil qilish, muayyan xulosaga kelish va ularning samaradorligini baholashni ifodalaydi (A.A.Bodalev)³⁸;

2. Koorporativ refleksiya pedagogik hamkorlikka asoslangan faoliyatni tashkil etish, jamoaviy faoliyatni loyihalashtirish, pedagogik muhit ishtirokchilarining birgalikdagi harakatlari yuzasidan kelishib olish kabi holatlarni tavsiflaydi (I.N. Semenov)³⁹;

3. Sotsial-pertseptiv refleksiya o'qituvchilar tomonidan pedagogik va kasbiy hamkorlik sub'ektlari faoliyati mohiyatini anglashdan iborat bo'lib, uning yordamida o'qituvchilar tegishli yo'nalishdagi faoliyat yuzasidan muayyan xulosalarga kelish, birgalikdagi faoliyat jarayonida shakllangan bolalar, hamkasblar to'g'risidagi o'z qarashlari va fikrlarini qayta ko'rib chiqishni anglatadi (S.V. Kondrateva)⁴⁰;

4. Shaxsiy refleksiya o'zining ong darajasini, faoliyatini, atrofdagilar bilan muloqoti mazmunini, o'ziga hamda boshqalarga bo'lgan munosabatini, shuningdek, o'zi tomonidan bajariladigan faoliyat mazmunini tahlil qilish anglashni ifodalaydi (V.A.Krivosheev)⁴¹;

5. Kommunikativ refleksiya o'qituvchi tomonidan uning atrofdagilar tomonidan qabul qilinishi, baholanishi va unga boshqalarning munosabati yuzasidan xulosa chiqarish imkonini beradi (B.P.Kovalev)⁴².

II. Pedagogik tashxis va o'qituvchi faoliyatini tashxislash. Tushuncha sifatida tashxislash (diagnostika) "ilk marotaba tibbiyotda qadimgi Yunonistonda qo'llanilgan. Qadimgi yunonlar muvaffaqiyatli davolash uchun kasallik va uning sabablarini to'g'ri anglash, bemor organizmi xususiyatlari, kasallikning kechishi tavsifidan xabardor bo'lish, turli davo vositalarining ta'sirini bilish va shu sababli kasallikni davolashdan ko'ra unga to'g'ri tashxis qo'yish muhim ekanligini anglashgan... Ijtimoiy taraqqiyotning keyingi bosqichlarida iqtisodiy, madaniy o'zgarishlar, sub'ektlarning hayot tarzidan kelib chiqqan holda "diagnostika" tushunchasi turli (texnika, iqtisodiyot, psixologiya) sohalarda ham qo'llanila boshlangan (I.M.Rasulov).

"Psixologik diagnostika" tushunchasi G.Rorshax tomonidan til iste'moliga kiritilgan. Mazkur tushuncha dastlab G.Rorshaxning 1921 yilda chop etilgan "Psixologik diagnostika: idrokka asoslangan tashxislovchi test" nomli asarida tilga olingan⁴³.

³⁸ Бодалев А.А. Психология общения. – М.: Изд-во «Институт практической психологии», 1996. – 256 с.

³⁹ Семенов И.Н., Степанов С.Ю. Типы взаимодействия наук и методологические ориентации в психологии творчества рефлексии. – М., 1989.

⁴⁰ Кондратьева С.В. Профессионализм в педагогическом общении. – Гродно: Изд-во ГрГУ, 2003. – 330 с.

⁴¹ Карнелович М.М. Рефлексия учителей на этапе послевузовского образования. – Гродно: ГрГУ, 2009. – 67 с.

⁴² Тот источник.

⁴³ Предмет педагогической диагностики и ее историческое развитие // <http://lib4all.ru/base/B2590/B2590Part2-5.php>.

“Педагогик диагностика” tushunchasi esa Karlxaynts Ingenkamp tomonidan 1968 yilda ilk marta qo‘llanilgan. Muallif pedagogik tashxis yordamida o‘qituvchilar tomonidan o‘quvchilar faoliyatini o‘rganish orqali ularga nisbatan yondashuv yo‘nalishi va mohiyatini belgilash mumkinligiga e‘tiborni qaratgan. Muallifning fikriga ko‘ra, pedagogik tashxis pedagogik kuzatish, nazorat topshiriqlari va ijtimoiy, maxsus kabi so‘rovlarning natijalarini qayta ishlash asosida qo‘yilishini aytib o‘tgan⁴⁴.

M.A.Innazarov tomonidan «pedagogik tashxis» tushunchasi shunday ta’riflanadi: **pedagogik tashxis** – aniq maqsaddan kelib chiqqan holda muayyan holat (fazilat, bilimlarni o‘zlashtirish) bo‘yicha o‘rganiluvchi shaxs faoliyatini kuzatish, tekshirish va baholashga oid statistik ma’lumotlarni yig‘ish, ularni tahlil qilish, dinamik rivojlanishni aniqlashga qaratilgan nazorat yoki monitoringning tarkibiy qismi. O‘z mohiyatiga ko‘ra ma’lum jarayon, hodisa yoki ob’ekt bo‘yicha pedagogik tashxis qo‘yishga qaratilgan faoliyat esa pedagogik tashxislash sanaladi. Chunki tashxislash negizida shaxs yoki avtomatik qurilma tomonidan amalga oshiriladigan real harakat yotadi⁴⁵.

V.Uruskoy esa pedagogik tashxislash o‘z mohiyatiga ko‘ra ikki maqsadga erishishga xizmat qiladi, deb hisoblaydi. Ular: 1) o‘qituvchining kasbiy darajasini o‘rganuvchi metod, vositalarning tizimi sifatida kasbiy faoliyatdagi qiyinchiliklarni o‘rganish, ularni barataf etishning samarali yo‘llarini izlash zaruriyatini anglash; 2) pedagogik faoliyatni tashkil etishning individual uslubiga ko‘ra o‘qituvchining kuchli tomonlarini aniqlash, ularni mustahkamlash hamda rivojlantirishning aniq yo‘llari va vositalarini aniqlash⁴⁶.

N.V.Kuzmina talabalar misolida pedagogik tashxisni quyidagi izchillikka muvofiq amalga oshirishni maqsadga muvofiq deb topadi: 1) tashxislash maqsadining aniqlash; 2) vaziyatli modelning tahlili; 3) tashxislashning shakl, metod va vositalarini tanlash; 4) o‘qituvchi va talabaning tashxislash jarayonidagi o‘zaro aloqasining aniqlash; 5) talabalar faoliyatini nazorat va baholash; 6) o‘qituvchi pedagogik faoliyatining tashxisli tadqiqot natijalar bo‘yicha tahlil qilish; 7) talabalar bilish faoliyatini izlanish natijalari bo‘yicha tahlil qilish; 8) etalon (me‘yoriy ko‘rsatkichlar)dan og‘ish sabablari va darajasini aniqlash; 9) korrektsiyalovchi faoliyatning belgilash⁴⁷.

Pedagoglar mehnatini tashxislashda quyidagi yo‘nalishlar ustuvorlik qiladi: 1) an’anaviy metodlarni qo‘llagan holda mavjud kasbiy tajribadan oqilona foydalanish; 2) o‘quv faoliyatining ilg‘or metod va usullarni o‘zlashtirish; 3) ularni o‘z vaqtida

⁴⁴ Дудина М.М, Хаматнуров Ф.Т. Основы психолого-педагогической диагностики / Учеб.пособие. – Екатеринбург: Изд-во РГПУ, 2016. – С. 16-17.

⁴⁵ Инназаров М.А. Малака ошириш тизимида педагог кадрлар касбий компетентлигини ташхислаш ва баҳолаш технологиялари: пед.фанл.бўйича фалс.докт.(PhD) ...дис. – Тошкент: 2020. – 37-бет.

⁴⁶ Шапран Ю.П. Диагностика профессиональной компетентности будущих учителей биологии // <https://sibac.info/conf/pedagog/xxii/30254>.

⁴⁷ Кузьмина Н.В. Профессионализм личности преподавателя и мастера производственного обучения. – М.: Педагогика, 1990. – С. 29.

o'quv materialining mazmuni bilan bog'lay olish; 4) o'z-o'zini tahlil va baholash orqali tegishli o'quv fanini samarali o'qitishda qayta aloqani ta'minlash⁴⁸.

L.V.Grebennikovaning ishlarida pedagoglar faoliyatini baholash mezonlari sifatida quyidagilar e'tirof etilgan: tegishli o'quv fani bo'yicha chuqur bilimga egalik; pedagogika, psixologiya, bolalar va yosh fiziologiyasi asoslarini bilish; o'qitish metodikasini o'zlashtirganlik darajasi; kasbiy va ilg'or tajribalar, metodik navatorlik, shaxsiy innovatsion ishlanmalardan foydalanish malakasiga egalik; shaxsiy kasbiy sifatlar (ijodkorlik, improvizatsiya qila olish, individual ijodiy izlanish, favqulodda topqirlik, kommunikativlik, insoniylik, demokratizm, tashkilotchilik kabi qobiliyatlarga egalik); ta'limning natijasi uchun mas'ullik; hamkasblarga nisbatan ijobiy munosabatda bo'lish⁴⁹.

III. Oqituvchining o'z-o'zini rivojlantirishi. O'qituvchi mehnatini tashkil etishda o'z-o'zini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

O'z-o'zini rivojlantirish – 1) shaxsning mustaqil mashq qilish, shug'ullanishi orqali o'zini-o'zi aqliy va jismoniy jihatdan rivojlantirishi; 2) shaxsning hech bir tashqi ta'sirlarsiz o'z kuchi bilan o'zini o'zi rivojlantirishi; o'z-o'zini takomillashtirishi bo'lib, unda shaxs o'z oldiga hayotini yaxshilash, qulay yashash sharoitini yaratish uchun muayyan vazifalarni qo'yadi.

Kasbiy faoliyatni tashkil etishda o'qituvchining o'z-o'zini rivojlantirishi uning o'zida kasbiy tajriba, malaka va mahoratni takomillashtirish yo'lida aniq maqsad va puxta o'ylangan vazifalar asosida mustaqil ravishda amaliy harakatlarni tashkil etishi sanaladi.

Pedagoglarning kasbiy nuqtai nazardan rivojlanishida uning o'zini o'zi tahlil qilishi ham ahamiyatli sanaladi.

O'zini o'zi tahlil qilish – pedagog tomonidan kasbiy faoliyatda tashkil etayotgan o'z amaliy harakatlari mohiyatining o'rganilishi.

O'zini o'zi tahlil qilish orqali pedagog o'zini o'zi ob'ektiv baholash imkoniyatiga ega bo'ladi. Zero, pedagoglarning kompetentlik sifatlariga ega bo'lishida ularning o'z-o'zini baholash malakalariga egaligi ham muhimdir.

O'zini o'zi baholash (O'O'B) – shaxsning o'z-o'zini tahlil qilishi orqali o'ziga baho berishi.

O'zini o'zi baholash sub'ekt uchun shaxsiy imkoniyatlarini hisob-kitob qilish, o'ziga ob'ektiv baho berish, o'zidan qoniqishni ta'minlaydi. Qolaversa, o'z-o'zini baholash shaxsning qobiliyatini o'z kuchi bilan yuzaga chiqishiga yordamlashishi zarur. O'z-o'zini baholash qiyin, lekin shaxsni bunga bevosita tayyorlash mumkin. Har qanday mutaxassisda bo'lgani kabi pedagogning ham o'zini o'zi samarali baholay olishiga bir qator omillar ta'sir ko'rsatadi (29-rasm).


O'z-o'zini baholash darajasi shaxsning o'z-o'zidan qoniqishi yoki qoniqmasligini belgilab beradi. Bunda o'z-o'zini baholash ko'rsatkichlari shaxs

⁴⁸ Гребенникова Л.В. Диагностика профессиональной компетентности учителя // <https://kopilkaurokov.ru/zavuchu/planirovanie/diagnostika-professional-noi-kompietientnosti-uchitelia>

⁴⁹ Тот источник.

imkoniyatlariga mos kelishi lozim. O'zini o'zi oshirib yoki pasaytirib ko'rsatish o'z-o'zini baholash ko'rsatkichlarining noto'g'ri bo'lishiga olib keladi.

IV. Individual rivojlanish dasturi - o'qituvchining kasbiy rivojlanishining muhim omili. O'qituvchining kasbiy nuqtai nazardan rivojlanishida individual rivojlantirish dasturiga ega bo'lishi muhimdir.



29-rasm. O'zini o'zi samarali baholash omillari

Individual rivojlanish dasturi – har bir shaxs yoki mutaxassisning o'zida u yoki bu sifat, ko'nikma, malakalarni shakllantirish, takomillashtirish ehtiyojlariga tayangan holda ishlab chiqilgan shaxsiy dasturi.

O'qituvchining individual rivojlanish dasturi – mutaxassis sifatida o'qituvchining individual ravishda o'zida u yoki bu kasbiy-pedagogik sifat, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, takomillashtirish ehtiyojlariga tayangan holda ishlab chiqilgan dasturi.

Mutaxassis sifatida o'qituvchining individual ravishda o'zida u yoki bu kasbiy-pedagogik sifat, ko'nikma, malakalarni shakllantirish, takomillashtirish ehtiyojlariga tayangan holda shaxsiy rivojlantirish dasturini ishlab chiqadi. Bu dasturda o'qituvchining o'zida shakllantirishi, takomillashtirishi zarur bo'lgan sifat, BKMni shakllantirish, amaliy faoliyat turlarini tashkil etish, tanlangan metodlar bo'yicha o'z ustida ishlash uchun belgilangan muddat aks etadi. Shaxsning mustaqil mashq qilish, shug'ullanishi orqali o'zini-o'zi aqliy va jismoniy jihatdan rivojlantirishini, shaxsning hech bir tashqi ta'sirlarsiz o'z kuchi bilan o'zini o'zi rivojlantirishini hamda o'z-o'zini takomillashtirishini ta'minlovchi metod, vositalardan samarali, maqsadli foydalana olishi, qolaversa, o'z-o'zini kuchli mutaxassis ekanligiga, faoliyatiga ijodiy yondasha olishiga ishontira bilishi o'qituvchi mehnatining samarali kechishini ta'minlaydi. Bu o'rinda o'qituvchi o'z-o'zini ishontirish shaxsning o'z shaxsiy sabab, rag'bat (motiv)lariga aoslangan holda shaxsiy yo'riqlariga ongli ta'sir ko'rsatishi ekanligini anglay olishi zarur. O'z-o'zini ishontirish usuli negizini u yoki bu pozitsiyaning to'g'riligini tasdiqlovchi takomillashgan aqliy harakatlar tashkil etadi.

Barcha kasbiy faoliyatlarda bo'lgani kabi pedagogik mehnatni tashkil etishda ham o'qituvchi oldida uning mustaqil mashq qilish, shug'ullanishi orqali o'zini-o'zi aqliy va jismoniy jihatdan rivojlantirish, shaxsning hech bir tashqi ta'sirlarsiz o'z kuchi bilan o'zini o'zi rivojlantirish hamda o'z-o'zini takomillashtirish yo'lida

muayyan harakatlarni amalga oshirishiga to‘sqinlik qiladigan ichki va tashqi omillarni o‘zida mujassamlashtirgan psixologik to‘siqlar mavjud bo‘ladi. O‘qituvchi ana shu to‘siqlarni yengib o‘ta olishi zarur. Buning uchun u mustaqil mashq qilishi, shug‘ullanishi orqali o‘zini-o‘zi aqliy va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, bunda hech bir tashqi ta’sirlarsiz o‘z kuchidan foydalangan holda o‘z-o‘zini takomillashtirish yo‘lida muayyan harakatlarni amalga oshirishiga to‘sqinlik qiladigan ichki va tashqi omillarni bartaraf etishga harakat qilishi zarur.


Mazkur jarayonda o‘qituvchi bir qator o‘z-o‘zini rivojlantirish jarayonidagi psixologik to‘siqlarni yengib o‘tish yo‘llaridan foydalanadi. O‘qituvchining o‘z-o‘zini rivojlantirishida o‘z-o‘zini ishonitirish, ruhiy barqarorlikka erishishga doir psixologik mashqlar va treninglardan samarali, o‘rinli foydalana olishi muhimdir.

V. O‘qituvchining o‘z ustida ishlashi. O‘qituvchi mehnatini tashkil etishda o‘z ustida ishlash ham alohida ahamiyat kasb etadi. Mutaxassis sifatida o‘qituvchining mahorati, qobiliyati doimiy ravishda pedagogik bilimlarni oshirib borish, yangiliklardan xabardor bo‘lish, ilg‘or texnologiyalarni o‘zlashtirish asosida tarkib topadi. Bu esa o‘z navbatida o‘qituvchidan o‘z ustida ishlashni taqozo etadi.

O‘z ustida ishlash – shaxsning aniq maqsad, intilish asosida doimiy, izchil ravishda o‘z kamchiliklarini bartaraf etish, yutuqlarini yanada boyitib borish, kasbiy ko‘nikma va malakalarni takomillashtirish yo‘lida olib boradigan amaliy harakati.

O‘qituvchining o‘z ustida ishlashi – uning aniq maqsad asosida pedagogik jarayonni takomillashtirish, uning samaradorligini va o‘zining ishchanlik faolligini oshirish, zamonaviy pedagogik bilimlarni o‘zlashtirish, ilg‘or texnologiyalardan xabardor bo‘lish, faoliyatiga innovatsion yangiliklarini tadbqiq etish, kasbiy BKMni takomillashtirish, salbiy pedagogik nizolarning oldini olish va bartaraf etish choralarini izlash yo‘lida olib boradigan amaliy harakati.

O‘qituvchining o‘z ustida ishlashi bir necha bosqichda kechadi. Ular (30-rasm):



30-rasm. Pedagogning o‘z ustida ishlash bosqichlari

O‘qituvchi o‘z xato va kamchiliklarini aniqlashda ularning haqiqata mavjudligini tan olishi muhim ahamiyatga ega. Bunda o‘qituvchining yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklarning o‘zi, boshqalar va atrof-muhit uchun zararini tushuna olishi

ham muhim sanaladi. Zero, xato va kamchiliklar (nojo‘ya xatti-harakatlar va ularning oqibatlarini) ijtimoiy munosabatlarning buzilishi, vazifa, muammolarning hal etilmaganligi kabi holatlarni yodga olish, salbiy oqiba – pedagogik nizo yoki janjallarni keltirib chiqarishi, jamoa a‘zolari o‘rtasida o‘zaro ishonchsizlikning qaror toptirishi mumkin.

O‘qituvchi xato va kamchiliklarni takrorlamaslik yuzasidan qaror qabul qilishda o‘z iqrori va qarorini baralla ovoz bilan ayta olishi ham muhim sanaladi.

O‘z ustida ishlashda o‘qituvchi ayrim psixologik-pedagogik jihatlarni inobatga ola bilishi zarur. Ular: o‘z ustida ishlash jarayonida shaxsning aqliy, jismoniy, hissiy va ruhiy tayyorgarligi, imkoniyatlarining namoyon bo‘lishi. Binobarin, o‘z ustida ishlashda shaxs xotirasini chiniqtiradi, kechirimli bo‘lishni o‘rganadi, dunyoqarashi o‘zgaradi, tanasini chiniqtiradi, muloqot uslublarini o‘zlashtirish orqali atrofdagilar bilan samimiy, samarali munosabatda bo‘lishni, chiroyli so‘zlashishni o‘rganadi, shuningdek, o‘qituvchi tomonidan pedagogik tajribaning to‘planib borishi zamin yaratadi.

O‘qituvchilarning o‘z ustilarida izchil, samarali ishlashlarida faoliyatga loyihali yondasha olishlari qo‘l keladi. Ularning loyihali yondashuv asosida quyidagi modelni shakllantira olishlari maqsadga muvofiqdir (1-jadval):

2-jadval. Pedagogning o‘z ustida ishlash modeli

Bosqichlar	Ularda amalga oshiriladigan vazifalar	Qaydlar
1-bosqich		
2-bosqich		
3-bosqich		
4-bosqich		
5-bosqich		

Modelda o‘z ustida ishlash bosqichlari va har bir bosqichda amalga oshiriladigan vazifalar qayd etiladi. Har bir bosqich uchun belgilangan vazifalarning samarali hal etilishi navbatdagi bosqichga o‘tish imkonini beradi. Ma‘lum bosqich vazifalari hal etilgach, pedagog bu holatni alohida bandda qayd etadi.

O‘qituvchining mutaxassis sifatida:

- aniq maqsad, intilish asosida pedagogik jarayonni takomillashtirish;
- pedagogik jarayon samaradorligini, o‘zining ishchanlik faolligini oshirish;
- izchil ravishda yangilanib borayotgan pedagogik bilimlarni o‘zlashtirish;
- ilg‘or texnologiya, metod hamda vositalardan xabardor bo‘lish;
- faoliyatiga fan-texnikaning so‘nggi yangiliklarini samarali tadbiq etish;
- kasbiy ko‘nikma va malakalarini takomillashtirish;
- salbiy pedagogik nizolarning oldini olish, bartaraf etish choralarini izlash yo‘lida olib boradigan amaliy harakati uning o‘z ustida ishlashini ifodalaydi.

Demak, kasbiy refleksiya o‘z faoliyatini tahlil qilish orqali mutaxassisning rivojlanish istiqbolini belgilashga xizmat qiladi. Oqituvchining kasbiy refleksiyasi pedagogik faoliyat mazmuni, yo‘nalishlari va natijalarini tahlil qilish orqali uning o‘quvchilar, ota-onalar, hamkasblar va rahbariyatga bo‘lgan, shuningdek, ularning o‘qituvchining o‘ziga bo‘lgan munosabatlarini oydinlashtirish imkoniyatini yaratadi. Binobarin, o‘qituvchining ta‘lim sub‘ektlari bilan o‘zaro munosabati pedagogik

faoliyat muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Pedagogik tashxis o'qituvchi uchun kasbiy faoliyatda erishayotgan yutuq va kamchiliklari to'g'risida to'la tasavvurga ega bo'lish imkoniyatini ta'minlaydi. Uning natijasi o'qituvchining o'z-o'zini rivojlantirishga qaratilgan harakat rejalarini tuzib olishiga imkon beradi. O'qituvchining o'z-o'zini rivojlantirishdagi harakat rejasi "Individual rivojlanish dasturi"da o'z ifodasini topadi. Ushbu dastur asosida o'qituvchi o'z ustida ishlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Nazorat savollari:

1. Kasbiy refleksiya deganda nima tushuniladi?
2. Oqituvchining kasbiy refleksiyasi nimalarda namoyon bo'ladi?
3. Pedagogik tashxis nima?
4. O'qituvchi faoliyatini tashxislash qanday amalga oshiriladi?
5. Oqituvchining o'z-o'zini rivojlantirishi qanday kechadi?
6. Individual rivojlanish dasturi nima?
7. Qanday holatlar o'qituvchining o'z ustida ishlashini anglatadi?

Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. Бизязева А.А. Психология думающего учителя: педагогическая рефлексия. – Псков: ПГПИ им. С.М.Кирова, 2004. – 216 с.
2. Бодалев А.А. Психология общения. – М.: Изд-во «Институт практической психологии», 1996. – 256 с.
3. Гребенникова Л.В. Диагностика профессиональной компетентности учителя // <https://kopilkaurokov.ru/zavuchu/planirovanie/diagnostika-professionalnoi-kompietientnosti-uchitielia>
4. Дудина М.М, Хаматнуров Ф.Т. Основы психолого-педагогической диагностики / Учеб.пособие. – Екатеринбург: Изд-во РГПУ, 2016. – С. 16-17.
5. Дьюи Дж. Психология и педагогика мышления / Пер. с англ. – М.: Педагогика, 1997. – С.15.
6. Инназаров М.А. Малака ошириш тизимида педагог кадрлар касбий компетентлигини ташхислаш ва баҳолаш технологиялари: пед.фанл.бўйича фалс.докт.(PhD) ...дис. – Тошкент: 2020. – 37-бет.
7. Карнелович М.М. Рефлексия учителей на этапе послевузовского образования. – Гродно: ГрГУ, 2009. – 67 с.
8. Кондратьева С.В. Профессионализм в педагогическом общении. – Гродно: Изд-во ГрГУ, 2003. – 330 с.
9. Коржувев А.В., Попков В.А., Рязанова Е.Л. Рефлексия и критическое мышление в контексте задач высшего образования // Ж. Педагогика. – М.: 2002. – №1. – С. 18.
10. Кузьмина Н.В. Профессионализм личности преподавателя и мастера производственного обучения. – М.: Педагогика, 1990. – С. 29.
11. Предмет педагогической диагностики и ее историческое развитие // <http://lib4all.ru/base/B2590/B2590Part2-5.php>.
12. Семенов И.Н., Степанов С.Ю. Типы взаимодействия наук и методологические ориентации в психологии творчества рефлексии. – М., 1989.

13. Шапран Ю.П. Диагностика профессиональной компетентности будущих учителей биологии // <https://sibac.info/conf/pedagog/xxii/30254>.

О‘QITUVCHI MEHNATINI ILMIY ASOSDA TASHKIL ETISH

О‘quv rejasi:

1. О‘qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etish.
2. Pedagogik faoliyatni rejalashtirish.
3. О‘qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etishga ta’sir ko’rsatuvchi omillar.
4. Pedagogik tajriba to‘plash.

Tayanch tushuncha va iboralar: mehnat, o‘qituvchi mehnati, o‘qituvchi mehnatini tashkil etish, mehnatni ilmiy asosda tashkil etish, pedagogik faoliyatni rejalashtirish, o‘qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etishga ta’sir ko’rsatuvchi omillar, pedagogik tajriba to‘plash.

I. О‘qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etish. О‘qituvchi barkamol avlodni tarbiyalash jarayonida ishtirok etar ekan, nafaqat ma’naviy-axloqiy madaniyati bilan atrof-dagilarga o‘rnak bo‘lishi, shu bilan birga, pedagogik mahoratini namoyon eta olishi, yetuk pedagog sifatida malakali kadrlarni tayyorlash ishiga o‘zining munosib hissasini qo‘shishi zarur. Bunda uning mehnati va ana shu mehnatning qanday tashkil etilishi muhim ahamiyatga ega.

О‘qituvchining mehnati u tomonidan kasbiy faoliyatning tashkil etilishini anglatadi. Mehnat shaxslar tomonidan tashkil etiladigan faoliyatning muhim turlaridan biri hisoblanadi.

Mehnat – biror maqsad uchun qaratilgan aqliy yoki jismoniy faoliyat.

О‘qituvchining mehnati ko‘p holatlarda mehnat deb emas, balki faoliyat, yanada aniqrog‘i, pedagogik faoliyat deb yuritiladi. Ushbu tushunchalarning mohiyati bilan tanishish fikrni oydinlashtiradi.

Faoliyat – 1) anglangan maqsad bilan boshqariladigan ichki (psixik) va tashqi (jismoniy) harakatlar yig‘indisi; 2) shaxs tomonidan tabiiy, ijtimoiy maqsadga muvofiq tashkil etiluvchi kundalik, ijtimoiy yoki kasbiy harakatlarning muayyan shakli, ko‘rinishi.

Pedagogik faoliyat – o‘qituvchi tomonidan aniq maqsadlarga muvofiq tashkil etiladigan kasbiy harakatlar majmui.

О‘qituvchi tomonidan pedagogik faoliyat (o‘qituvchi mehnati)ning tashkil etilishi kasbiy mehnatning tashkiliy-amaliy jihatdan oqilona uyushtirilishini ifodalaydi. Pedagogik faoliyatni ilmiy asosda tashkil etish talab etiladi.

О‘qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etish – o‘qituvchi mehnati (faoliyati)ning tashkiliy-amaliy jihatdan to‘g‘ri uyushtirish.

Quyidagi **vazifalarning** amalga oshirilishi mehnatni ilmiy jihatdan to‘g‘ri tashkil etish imkoniyatini beradi:

- 1) vaqtni maksimal darajada tejash va undan samarali foydalanish;
- 2) qulay mehnat va dam olish sharoitini yaratish, undan oqilona foydalanish;

3) faoliyat jarayonida o'z salomatligi, har tomonlama rivojlanishi to'g'risida qayg'urish.

Pedagogik faoliyatni ilmiy tashkil etish o'qituvchi mehnatining tashkiliy-amaliy jihatdan uyushtirish asosida ko'zlangan maqsadga erishishni bildiradi. O'qituvchi mehnatining ilmiy tashkil etilishi u tomonidan tashkil etiladigan faoliyat samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

II. Pedagogik faoliyatni rejalashtirish. O'qituvchining kasbiy faoliyatni tashkil etishda o'z oldiga aniq pedagogik maqsadni qo'ya olishi kutilgan natijani qo'lga kiritishni ta'minlaydi. **Pedagogik maqsad** o'qituvchining ongida pedagogik jarayonning bir-biriga bog'liq barcha tarkibiy qismlariga muvofiq yaratilib, o'zi va o'quvchilarning o'zaro ta'sirlari, aloqalari taxmin qilingan natija sanaladi. Mohiyatiga ko'ra **pedagogik maqsadning qo'yilishi** o'qituvchining ongida pedagogik jarayonning bir-biriga bog'liq barcha tarkibiy qismlariga muvofiq tashkil etilishiga erishish asosida o'zi va o'quvchilarning o'zaro ta'sirlari, aloqalari taxmin qilingan natijani avvaldan loyihalash, rejalashtirishga imkon berishini anglatadi.

Pedagogik faoliyatni rejalashtirish – aniq maqsad asosida o'qituvchi tomonidan muayyan ko'rinisdagi kasbiy faoliyat loyihasining ishlab chiqilishi, rejalashtirilishi.

O'qituvchi mehnatini rejalashtirishda rejaning oqilona bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Mohiyatiga ko'ra o'qituvchi mehnatini oqilona rejalashtirishda aniq maqsad asosida o'qituvchi tomonidan muayyan ko'rinisdagi kasbiy faoliyat loyihasining barcha omillar, mavjud shart-sharoitlar inobatga olinadi.

Odatda o'qituvchi tomonidan pedagogik faoliyat (mehnat)ni rejalashtirish bir necha bosqichda kechadi. Bosqichlar aniq maqsad asosida o'qituvchi tomonidan muayyan ko'rinisdagi kasbiy faoliyat loyihasining ishlab chiqilishi, rejalashtirilishining o'zaro bog'liq davrlari bo'lib, mehnat jarayonini samarali, maqsadga muvofiq tashkil etilishini ta'minlaydi.

O'qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etish uchun zarur sharoitni yaratish taqozo etiladi. Bunda o'qituvchi tomonidan kasbiy faoliyat (mehnat)ni ilmiy tashkil etish uchun jismoniy va ruhiy zo'riqishlarni kamaytirish chora-tadbirlari ko'riladi. O'qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etish uchun quyidagilarga e'tibor qaratiladi:

1. Pedagogik faoliyatni texnologiyalashtirish (vaqtni tejash, kam kuch va mehnat sarflanishini, ilg'or pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etilishini ta'minlaydi, boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun xizmat qiladigan axborotlar sifatini oshiradi).

2. Qulay ish o'rnini yaratish (zamonaviy texnik va texnologik jihozlar, qulay ish vaqti, samarali metod, usul va vositalar, o'qituvchining ishchanlik qobiliyatini uzoq vaqt saqlashga xizmat qiladigan mehnat sharoitidan iborat).

3. O'qituvchi mehnatining samarali shakl, metod, usul va vositalarini tanlash.

4. Pedagogik faoliyat (o'qituvchi mehnati)ning sur'atini oshirish.

5. O'qituvchi mehnati va dam olishining samaradorligini ta'minlash (o'qituvchi mehnati samaradorligini oshirish, salomatligini saqlashga xizmat qiladigan oqilona rejimni belgilash).

6. Ish o'rnini shovqindan himoyalash.

7. Aqliy va jismoniy mehnatning o'zaro almashishini ta'minlash.

8. Jismoniy va ruhiy zo'riqishni kamaytirish, tushkunlikka tushishning oldini olishga erishish.


9. Pedagogik faoliyatni mazmunan boyitish yo'li bilan monoton (bir xil) bo'lishining oldini olish va bartaraf etish.

10. Pedagogik faoliyat sur'atining kun davomida bir xil sur'atda bo'lishini ta'minlash.

III. O'qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etishga ta'sir ko'rsatuvchi omillar.

Shuningdek, o'qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etishda muayyan omillarning ta'siri ham o'rganiladi. O'qituvchi mehnatining maqsadga muvofiq, to'g'ri tashkil etilishi va natijalanishiga ta'sir etuvchi sabablar tarzida namoyon bo'ladigan omillarning pedagogik faoliyatni ilmiy tashkil etishdagi ahamiyati katta.

Quyidagi omillar o'qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etishda ahamiyatlidir (31-rasm):



31-rasm. O'qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etishga ta'sir etuvchi muhim omillarning turlari

1. Psixologik-fiziologik (texnik-texnologik) omillar (jismoniy (dinamik va statik ish), ruhiy (ishning aniqligi), hissiy (ishni bajarishdagi ta'sirlanish) va aqliy (qayta ishlanayotgan axborotlar hajmi, bir vaqtning o'zida kuzatilishi talab etiladigan ishlar soni) zo'riqishlar, pedagogik faoliyatning bir xilligi).

2. Sanitariya-gigienik omillar (ish joyidagi mikro iqlim – harorat, nisbiy namlik, havoning harakatlanish tezligi), havoning tozaligi (bug', gaz, aerozollarning mavjudligi), yoritilganligi, shovqin, vibratsiya, ultratovush, biologik va boshqa ta'sirlar).

3. Estetik omillar (shaxs tomonidan atrof-muhitni estetik qabul qilinishini ta'minlovchi omillar – ranglar, shakllar, musiqiy ohanglar, ish o'rnining jihozlanishi, mehnat qurollari (vositalari)ning chiroyli ko'rinishi, ish kiyimlarining ko'rimsiligi, binolarning badiiy-me'moriy yechimi; bularning barchasi o'qituvchining kayfiyatiga va o'z navbatida ishchanlik qobiliyatining oshishiga, mehnat samaradorligining yaxshilanishiga ta'sir etadi).

4. Ijtimoiy-psixologik omillar (kadrlar tarkibi, hamkasblarning qiziqishlari, rahbariyatning boshqaruv uslubi va boshqalar; ushbu omillar ta'sirida muassasada axloqiy-psixologik iqlim yuzaga kelib, o'qituvchining jismoniy, ruhiy va hissiy barqarorligini, jamoa bilan jipsligini, mehnat faolligini va ijodiy tashabbuskorligini


ta'minlaydi).

Aniq maqsad asosida o'qituvchi tomonidan muayyan ko'rinishdagi kasbiy faoliyat loyihasini ishlab chiqish, rejalashtirishga qaratilgan amaliy harakatning samarali bo'lishi o'qituvchi mehnati unumdorligini ta'minlaydi. Qolaversa, o'qituvchi mehnatini tashkil etishda usullarning to'g'ri tanlanishi ham alohida ahamiyat kasb etadi. O'qituvchi tomonidan pedagogik faoliyatning maqsadga muvofiq, to'g'ri tashkil etilishi va natijalanishiga xizmat qiladigan usullarning maqsadga muvofiq, samarali tanlanishi pedagogik faoliyat usullarini to'g'ri tanlash imkoniyatini ta'minlaydi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida o'qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etishda muayyan jihatlarga e'tibor qaratish talab etiladi. O'qituvchi mehnatining o'ziga xosligi kuchli raqobatga asoslangan bozor iqtisodiyoti sharoitida o'qituvchi mehnatini tashkil etishning o'ziga xos tomonlari, jihatlari sifatida namoyon bo'ladigan o'qituvchi mehnatini tashkil etishda quyidagi vazifalarni ijobiy hal qilishga e'tibor qaratishi zarur:

1. Kuchli raqobatga bardoshli bo'la olish.
2. O'z ustida doimiy izlanish.
3. O'zining kasbiy salohiyati, malakasi va mahoratini takomillashtiri borish.
4. Yangi pedagogik texnologiyalarni izchil o'zlashtirish.
5. Fan, texnika, texnologiya yangiliklaridan izchil xabardor bo'lib borish.
6. Ijodiy va kreativlik qobiliyatini rivojlantirishga e'tibor qaratish.
7. Innovatsion g'oyalarni ilgari surish.

4. Pedagogik tajriba to'plash. Manbalarda "pedagogik tajriba" tushunchasi negizida kasbiy faoliyatni tashkil etish jarayonida pedagog tomonidan o'zlashtirilgan bilim, orttirilgan ko'nikma va malakalar majmui tushuniladi. Har bir o'qituvchining pedagogik tajriba to'plashda quyidagi yo'llardan foydalanadi (32-rasm):



32-рasm. Педагогик тажриба тўплаш йўллари

1. Mustaqil o'qib-o'rganish, doimiy ravishda o'z ustida ishlash. U pedagogika fanida ro'y berayotgan yangiliklar haqida ma'lumotlarni beruvchi yangi adabiyotlar, Internet materiallari, vaqtli matbuot sahifalarida chop etilayotgan ma'lumotlar, shuningdek, ilg'or texnologiyalar bilan tanishish imkonini beradi.

Buning natijasida yosh o'qituvchilar ularda ilgari surilayotgan ustuvor g'oyalarni umumlashtirish va xulosalash asosida mustaqil loyihalarni tayyorlash ko'nikmalarini o'zlashtiradilar.

2. Mahoratli o'qituvchilarning ish tajribalarini o'rganish. U ta'lim muassasasidan chetga chiqmagan holda tashkil etiladi. Pedagogik mahoratni oshirishning bu yo'lidan foydalanish vaqtini tejash imkonini beradi, shu bilan birga iqtisodiy jihatdan samarali sanaladi. Tajribali o'qituvchilarning ish tajribasini o'rganish ular tomonidan tashkil etilayotgan mashg'ulotlarni kuzatish, tahlil qilish asosida amalga oshiriladi. Bunda olingan taassurotlarni umumlashtirish va xulosa chiqarish maqsadga muvofiqdir.

3. Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurs (institut)larida kasbiy malakalarni oshirish. U ta'lim muassasalarida ishlab chiqilgan rejaga muvofiq tashkil etiladi. Rejani ishlab chiqishda muassasada faoliyat yuritayotgan o'qituvchilarning kamida 3-5 yilda bir marta malaka oshirish kurslarida ta'lim olishlarini ta'minlash e'tiborda tutiladi. Shu bilan birga ta'lim muassasasining turli fan o'qituvchilariga bo'lgan ehtiyojidan kelib chiqqan holda faoliyat yuritayotgan o'qituvchilar turdosh fanlar bo'yicha qayta tayyorgarlikdan o'tishga jalb etiladi. Qayta tayyorlash kurslarida pedagogik ma'lumotga ega shaxslar o'z ixtiyorlariga ko'ra ham ikkinchi mutaxassislik yo'nalishi bo'yicha ta'lim olishlari mumkin.

4. Ilmiy anjumanlarda faol ishtirok etish (nazariy va amaliy konferentsiya, seminar, pedagogik o'qish va treninglar).

5. Yetakchi ta'lim muassasalarida ularning ish tajribalarini o'rganish (stajirovka).

O'qituvchi tomonidan respublika va xorijiy mamlakatlarning pedagoglarining kasbiy faoliyat samaradorligini oshirish, ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish, yosh avlodni o'qitish hamda tarbiyalash borasida erishilgan yutuq, muvaffaqiyatlarning o'rganilishi yagona nom bilan "ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish" deb aytiladi.

Har bir o'qituvchi ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganishda muayyan vositalardan foydalanmoqda. Masalan, axborot texnologiyalari xizmatidan. Ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganishda axborot texnologiyalari xizmatidan foydalanish o'qituvchi tomonidan pedagogik jarayonlar samaradorligiga erishishda qo'l keladigan ma'lumotlarning axborot texnologiyalari (jumladan, kompyuter texnologiyasi)dan olish, o'rganish, saqlash va qayta ishlashini ta'minlash maqsadida tashkil etilgan amaliy harakat sanaladi. Zamonaviy sharoitda o'qituvchilarning ilg'or pedagogik tajribalardan samarali foydalana olishlari talab etilmoqda. Bunda o'qituvchining kasbiy faoliyati mazmunini yangicha ilmiy qarashlar, ilg'or pedagogik tajribalar, yangiliklar, innovatsion g'oyalar bilan boyitib borish asosida pedagogik jarayonni takomillashtira olishi muhim ahamiyatga ega.

Shunday qilib, o'qituvchi mehnatini to'g'ri, ilmiy asosda tashkil etish ta'lim-tarbiya samaradorligini ta'minlash garovi bo'libgina qolmay, ayni vaqtda o'qituvchining tartibli, muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun zamin yaratadi. Qolaversa, mehnatni ilmiy jihatdan to'g'ri tashkil etish, o'z-o'zini rivojlantirish, o'z ustida ishlash va pedagogik tajriba to'plab borish o'qituvchilarga pedagogik faoliyatda yo'l qo'yilgan yoki qo'yilayotgan xatolardan holi bo'lish, o'quvchilar, hamkasblar hamda ota-

onalar bilan munosabatda ijobiy natijadarni qo‘lga kiritish imkoniyatini yaratadi.

Nazorat uchun savollar:

1. O‘qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etish deganda nimani tushunasiz?
2. O‘qituvchining o‘z-o‘zini rivojlantirishi qanday ro‘y beradi?
3. Individual rivojlanish dasturi nima?
4. Pedagogning individual rivojlanish dasturida nimalar aks etadi?
5. O‘qituvchining o‘z ustida ishlashi deganda nimani tushunasiz?
6. Pedagogning o‘z ustida ishlash modelida qanday holatlar aks etadi?
7. Pedagogning o‘z ustida ishlashi qanday bosqichlarda kechadi?
8. Pedagogik tajriba nima va u qanday to‘planadi?

Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” / Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa kontserni. 1997.
2. Ibragimov X.I., Abdullaeva Sh.A. Pedagogika nazariyasi / Darslik. – Toshkent: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2008.
3. Kasbiy pedagogika /O‘.Tolipov va boshq. – T.: TDIU, 2001.
4. Pedagogika / Bakalavriat yo‘nalishi uchun darslik / Prof. M.X.Toxtaxodjayevaning umumiy tahriri ostida. – Toshkent: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, 2010.

XOTIMA

Kishilik jamiyati taraqqiyotining shaxs tarbiyasi masalalari kun tartibiga qo'yilgan ilk davrlardanoq bolalarning ta'limi va tarbiyasi uchun mas'ul shaxslar toifasining shakllanishi, ularning shaxs va mutaxassis sifatida muayyan ijtimoiy talablarga javob bera olishlari, kasbiy mahoratga ega bo'lishlariga nisbatan ijtimoiy talablar qo'yila boshlagan.

Pedagogika oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan bo'lajak o'qituvchilarni mazkur ijtimoiy talablar bilan yaqindan tanishtirish, ularda pedagogik malaka va kasbiy mahoratni shakllantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Tegishli yo'nalishda faoliyat yuritayotgan oliy o'quv yurtlarida "Pedagogik mahorat" fanining o'qitilishi bo'lajak o'qituvchilarni ta'lim va tarbiya jarayonlarni metodik jihatdan puxta, tashkiliy jihatdan samarali tashkil eta olishlarida muhim poydevor hisoblanadi. Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik texnikaga ega bo'lishlari pedagogik jarayonda yuzaga keladigan shaxslararo munosabatlarni samarali, salbiy nizolarsiz uyushtirilishini ta'minlash bilan birga hech bir qiyinchiliksiz ta'lim va tarbiyaviy ishlar jarayonini tashkil etilishiga ham yordam beradi.

Oliy o'quv yurtidagi tahsil davrida talabalarni Sharq va G'arb mutafakkirlarining pedagog shaxsi va faoliyatiga qo'yiladigan talablarga oid qarashlari bilan yaqindan tanishtirish ularga kelgusida o'zlarini mutaxassis sifatida tasavvur etishlari uchun imkoniyat yaratadi.

Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida "Pedagogik mahorat" fanini o'qitish uchun yordamchi manba sifatida yaratilgan ushbu manbadan tegishli yo'nalishda tahsil olayotgan talabalar pedagogik mahoratning o'qituvchi faoliyatida tutgan o'rni, maktab amaliyotida o'qituvchi mahorati masalalari, pedagogik muloqotni to'g'ri tashkil etish, pedagogik odob, pedagogik faoliyatni ilmiy asosda tashkil etishga oid nazariy bilimlarini mustahkamlash va boyitish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Ma'lumki, talabalar tomonidan pedagogik mahorat asoslariga doir ko'nikma va malakalarni o'zlashtirilishida laboratoriya mashg'ulotlari alohida o'rin tutadi. Shunga ko'ra "Pedagogik mahorat" o'quv qo'llanmasida berilgan laboratoriya ishlanmalari bilan tanishish asosida talabalar tomonidan pedagogik qobiliyat, o'quv-tarbiya jarayonida ruhiy holatni boshqarish malakasi, kommunikativ qobiliyat, pedagogik texnika va nutq texnikasi malakasini o'zlashtirish imkoniyati mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” / Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa kontserni. 1997.
2. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 14-b.
3. Abduvahobov U. Shaxs (Komil inson haqida). – Toshkent: Vatan, 1996.
4. Avloniy, Abdulla. Tanlangan asarlar. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 2006.
5. Avloniy, A. Turkiy guliston yohud axloq. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992.
6. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Moliya, 2003.
7. Akromova F. Insoniy munosabatlar psixologiyasi. – Toshkent: “Shams ASA”, 2002.
8. Axborot tizimlari va texnologiyalari / OO‘Yu uchun darslik. S.S.G‘uomov va b. – T.: Fan va texnologiyalar, 2013.
9. Бабанский Ю.К. Оптимизация процесса обучения. – М.: Педагогика, 1977. – 257 с.
10. Begimkulov U.Sh. Pedagogik ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari / Monografiya. – T.: Fan, 2007.
11. Bekmirzayev N. Notiqlik san’ati asoslari. – Toshkent: Yangi asr, 2008.
12. Беспалко В.П. Слагаемые педагогической технологии. – М.: Педагогика, 1989. – с. 70-71.
13. Бизяева А.А. Психология думающего учителя: педагогическая рефлексия. – Псков: ПГПИ им. С.М.Кирова, 2004. – 216 с.
14. Богоявленская Д.Б. Интеллектуальная активность как проблема творчества. – Ростов-на-Дону: Изд-во РГУ, 1983. – 176 с.
15. Бодалев А.А. Психология общения. – М.: Изд-во «Институт практической психологии», 1996. – 256 с.
16. Большая психологическая энциклопедия / Самое полное современное издание. – Москва: Эксмо, 2007. – С. 420.
17. Bolshaya psixologicheskaya entsiklopediya / Samoe polnoe sovremennoe izdanie. – Moskva: Eksmo, 2007.
18. Булатова Ю.И. Активизация учебно-познавательной деятельности студентов вузов / Ж. Педагогика высшей школы и профессионального образования. – М.: 2012. – №3. – С. 9.
19. Vigotskiy L.S. Pedagogicheskaya psixologiya /Pod red. V.V.Davidova. – М.: Pedagogika. 1991.
20. Виды педагогического мастерства // <http://dic.academic.ru/dic.nsf/socio/4789>.
21. Виды технологий воспитания // https://studme.org/297924/pedagogika/vidy_tehnologiy_vospitaniya.
22. Гребенникова Л.В. Диагностика профессиональной компетентности учителя // <https://kopilkaurokov.ru/zavuchu/planirovanie/diagnostika-professionalnoi-kompietientnosti-uchitelia>

23. Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o'qituvchisining psixologiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 1999.
24. Djumaeva S. Ijtimoiy va pedagogik nizolar: ularning mohiyati va bartaraf etish yo'llari / Metodik qo'llanma. – Toshkent: TDPU, 2011 yil.
25. Дудина М.М, Хаматнуров Ф.Т. Основы психолого-педагогической диагностики / Учеб.пособие. – Екатеринбург: Изд-во РГПУ, 2016. – С. 16-17.
26. Дьюи Дж. Психология и педагогика мышления / Пер. с англ. – М.: Педагогика, 1997. – С.15.
27. Закономерности воспитания // <https://studfile.net/preview/5373553/page:3>.
28. Закономерности воспитания // <https://zaochnik.com/spravochnik/pedagogika/vvedenie-v-pedagogicheskiju-professiju/zakonomernosti-i-printsipy-vospitaniya>.
29. Законы воспитания // https://studref.com/360549/pedagogika/zakony_vospitaniya.
30. Законы, закономерности, принципы воспитания. Понятие, сущность методов, приемов, средств и форм воспитания // <https://studfile.net/preview/6175846/page:3>.
31. Zimnyaya I.A. Pedagogicheskaya psixologiya / Ucheb. posobie dlya studentov vissha.ped.ucheb.zavedeniy. – Rostov-na-Donu: RGU, 1997.
32. Ibragimov X.I., Abdullaeva Sh.A. Pedagogika nazariyasi / Darslik. – Toshkent: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2008.
33. Ivanov R.I., Zufarova M.E. Umumiy psixologiya / Pedagogika va psixologiya bakalavriyat ta'lim yo'nalishi talabalari uchun darslik. – Toshkent: O'zbekiston Faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008.
34. Инназаров М.А. Малака ошириш тизимида педагог кадрлар касбий компетентлигини таъхислаш ва баҳолаш технологиялари: пед.фанл.бўйича фалс.докт.(PhD) ...дис. – Тошкент: 2020. – 37-бет.
35. Инновацион таълим технологиялари / Муслимов Н.А., Усмонбоева М.Х., Сайфуров Д.М., Тўраев А.Б. – Тошкент: “Сано-стандарт” нашриёти, 2015. – 105-106-бетлар.
36. Kaykovus. Qobusnoma / Nashrga tayyorlovchi S.Dolimov. – Toshkent: O'qituvchi, 1986.
37. Карнелович М.М. Рефлексия учителей на этапе послевузовского образования. – Гродно: ГрГУ, 2009. – 67 с.
38. Kasbiy pedagogika /O'.Tolipov va boshq. – T.: TDIU, 2001.
39. Коммуниктивные умение // <http://oblasti-zhizni.ru/professionalnye-i-kommunikativnye-navyki-v-chem-razlichie>.
40. Кондратьева С.В. Профессионализм в педагогическом общении. – Гродно: Изд-во ГрГУ, 2003. – 330 с.
41. Коржуев А.В., Попков В.А., Рязанова Е.Л. Рефлексия и критическое мышление в контексте задач высшего образования // Ж. Педагогика. – М.: 2002. – №1. – С. 18.
42. Кузьмина Н.В. Профессионализм личности преподавателя и мастера производственного обучения. – М.: Педагогика, 1990. – С. 29.

43. Лернер П.С. Инновационные технологии повышение интерактивности профилного обучения // Ж. Школные технологии. – М.: 2004. - № 6. – С. 155-168.
44. Mamatov A.Z. Texnologik jarayonlarni matematik modellashtirish / Met. qo'll. – T.: “Sano-stanart”, 2012.
45. Magdino, O. Yaxshi yashash siri / Ma'naviy-ma'rifiy tavsiyalar. – T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010.
46. Mahmudov N. O'qituvchi nutqi madaniyati. – Toshkent: A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.
47. Muhiddinov A.G. O'quv jarayonida nutq faoliyati. – Toshkent: O'qituvchi, 1995.
48. Navoiy, Alisher. Mahbub ul-qulub. Asarlar. O'n besh tomlik. 13-tom. – Toshkent: Badiiy adabiyot nashriyoti, 1966.
49. Нутқ маданияти / Ўқув-методик қўлл. – Тошкент: ТДПУ, 2004. – 4-бет.
50. Oripov M. Informatika va hisoblash texnikasi asoslari. – T.: O'qituvchi, 2001.
51. Osnovi pedagogicheskogo masterstva / Pod red. A.Zyuzina. – Moskva: Prosvshenie, 1989.
52. Основные признаки воспитания // <http://novogrudokedu.by/index.php/2013-04-18-10-09-00/2013-04-18-12-36-18/101-2013-06-19-08-03-11>.
53. Оценка уровня воспитанности школьников // https://studme.org/49846/pedagogika/otsenka_urovnya_vospitannosti_shkolnikov.
54. Pedagogika / Bakalavriat yo'nalishi uchun darslik / Prof. M.X.Tohtaxodjayevaning umumiy tahriri ostida. – Toshkent: “O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, 2010.
55. Педагогический такт // http://imp.rudn.ru/psychology/pedagogical_psychology/13.html.
56. Педагогическая мастерство // <http://psi.webzone.ru/st/050200.htm>.
57. Половникова А.В. Обществознание / Учебник для 10-11 класса: Базовый уровень. – М.: Просвещение, 2017. – С. 208.
58. Предмет педагогической диагностики и ее историческое развитие // <http://lib4all.ru/base/B2590/B2590Part2-5.php>.
59. Рубинштейн С.Л. Принципы и пути развития психологии. – М.: Владос, 1999. – С. 38.
60. Семенов И.Н., Степанов С.Ю. Типы взаимодействия наук и методологические ориентации в психологии творчества рефлексии. – М., 1989.
61. Sultonova G.A. Pedagogik mahorat / O'quv-uslubiy qo'llanma. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005.
62. Сущность педагогического мастерства // <http://psylist.net/hpor/ped037.htm>.
63. Tarbiyaviy ishlar metodikasi / Pedagogika institutlari uchun o'quv qo'llanma. L.I.Ruvinskiy tahriri ostida. – Toshkent: O'qituvchi, 1991.
64. Tarbiya / Ota-onalar va murabbiylar uchun entsiklopediya. Tuzuvchi: M.N.Aminov. Mas'ul muharrir A.Majidov. – Toshkent: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2010.

65. Umumiy psixologiya / Ma'ruza matnlari. Tuzuvchilar: N.Yoqubov, D.Mirzajonova, G.Ashurova. – Qo‘qon: Qo‘qon Davlat pedagogika instituti, 2007.
66. Усова А.В. Теория и практика развивающего обучения, индивидуально-личностного подхода в обучении. – Челябинск: ЧТУ, 1996. – С. 45.
67. Шапран Ю.П. Диагностика профессиональной компетентности будущих учителей биологии // <https://sibac.info/conf/pedagog/xxii/30254>.
68. Щукина Г.И. Педагогические проблемы формирования познавательных интересов учащихся. – М.: Педагогика, 1988. – 208 с.
69. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 1-том. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2000. – 134-бет.
70. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Шукрона – Ҳ / 5 жилдли. Бешинчи жилд. А.Мадвалиев таҳрири остида. Таҳрир ҳайъати: Э.Бегматов ва бошқ. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2008. – 331-бет.
71. Qudratov T. Nutq madaniyati asoslari / Oliy o‘quv yurtlari uchun o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1993.
72. G‘oziev E. Psixologiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 1994.
73. Holiqov A. Pedagogik mahorat / O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: “Iqtisod-moliya”, 2010.
74. Husanov B., G‘ulomov V. Muomala madaniyati / Darslik. – Toshkent: “Iqtisod-moliya”, 2009.

